

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
PEDAGOG KADRALARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH TARMOQ (MIINTAQAVIY) MARKAZI**



**"O'ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI:
YANGICHA QARASHLAR VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR"**

MODULI BO'YICHA

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7-dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: O‘zMU, tarix fanlari doktori, professor
N.U. Musayev

Taqrizchi: O‘zMU, tarix fanlari doktori, professor
X.E.Yunusova

O‘zMU, tarix fanlari doktori, professor
O‘.M.Mavlonov

**O‘quv - uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekabrdagi 5/4-sonli bayonnomasi)**

MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR	Ошибка! Закладка не определена.
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	9
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	13
IV. AMALIY MASHG'ULOTLAR	84
V.MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI.....	93
VI. GLOSSARIY	95
VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI	101

I. ISHCHI DASTUR

KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamlı texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamlı texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo’llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarining mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulining maqsadi: Modulning maqsadi – “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fani to‘g‘risida tinglovchiga zamonaviy bosqichga oid chuqur tarixiy bilimlar, yangi ilmiy qarashlar va nazariyalar haqida axborot

berish, shuningdek, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish, mazkur fan haqidagi tinglovchilar bilimlarini takomillashtirish, bu boradagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va amalda qo‘llash, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- Tinglovchilarga davlatchilik va boshqaruv tarixi masalalari bo‘yicha ilg‘or ta’lim innovatsiyalar, konseptual zamonaviy muammolar va yondashuvlar asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar berish, zamonaviy modulli texnologiyalaridan foydalanib tinglovchilarni mazkur yo‘nalishda malakasini oshirishga ko‘maklashish;
- O‘zbekiston davlatchiligi tarixining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni, ahamiyati va rivojlanish hususiyatlari haqidagi bilimlarni boyitish;
- Yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirish jarayonida ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, ulardan samarali foydalanish mahoratni oshirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Modulni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- O‘zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari, xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligidan ildizlarini **bilishi** kerak.
- O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.
- O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar fanining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish, yangicha qarash va yondashuvlarga oid zamonaviy manbalardan foydalana olish, tahlil qilish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Modulni o‘qitish ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Modulni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

- ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspressso'rovlardan, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kolokvium o'tkazish, va boshqa interaktiv ta'lif usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

"O'zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar" moduli mazmuni o'quv rejadagi "Mustaqil O'zbekistondagi islohotlarning nazariy konseptual asoslari", "Zamonaviy ta'lif tizimiga oid innovatsiyalarni O'zbekiston tarixi faniga tadbiq etilishi", "O'zbekistonda tarixiy-demografik jarayonlar" o'quv modullari bilan uzviy bog'langan holda pedagoglarning kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliv ta'liddagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar ta'lif jarayonini tashkil etishda yangicha yondashuv asoslarini va bu boradagi ilg'or tajribani o'rganadilar, ularni tahlil etish, amalda qo'llash va baholashga doir yangi bilimlarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi		
		Jami	jumladan	
			Nazariy	Amaliy Mashg'ulot
1.	Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar	2	2	
2.	Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi	2	2	
3	O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli	2	2	
4	O'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari	2	2	
5	Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji	2		2
6	So'nggi o'rta asrlarda o'zbek xonliklari: ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari	2		2
7	Turistikonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari	2		2
8	O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida	2		2

9	O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.	2		2
10	Davlat xokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rnii va roli	2		2
	Jami: 20 soat	20	8	12

NAZARIY MASHG‘ULOTLARMAZMUNI

1-mavzu. Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. (2 soat).

1.1. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganish axamiyati

1.2. Sivilizatsiya va davlat tushunchalari.

1.3. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.

1.4. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.

2-mavzu. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. (2 soat).

2.1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi.

2.2. Ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.

2.3. Baqtriya podsholigi

2.4. Xorazm vohasida ilk davlatchilikning shakllanishi.

2.5. Farg‘ona vodiysi qadimgi davlatchiligi masalasi.

2.6. So‘g‘d hududida davlatchilikning vujudga kelishi

3-mavzu. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli (2 soat).

3.1. Ahamoniylar davri boshqaruv tizimi.

3.2. Makedoniyalik Aleksandr davrida davlat boshqaruvi.

3.3. Salavkiylar davrida boshqaruv tizimi.

3.4. Yunon–Baqtriya podsholigi.

3.5. Xorazm, Qang‘ va Davan davlatlari.

3.6. Yuechji–Kushon va Kushon davlati.

4-mavzu. O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari (2 soat).

4.1. Ilk o‘rta asrlar davlatchiligi tarixi (V–VIII asr o‘rtalarigacha). 4.2. Arablarning O‘rta Osiyonni istilo etishi. Movaraunnahrda boshqaruv.

- 4.3. Somoniylar davlati.
- 4.4. Qoraxoniylar davlati.
- 4.5. G‘aznaviylar va saljuqiylar davlati.
- 4.6. Xorazmshoh - anushteginiylar davlati.
- 4.7. Chig‘atoy ulusi.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma’muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida (2 soat).

5-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi (2 soat).

6-amaliy mashg‘ulot. Davlat xokimiyyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli (2 soat).

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“AQLIY HUJUM ” metodi

“Aqliy hujum” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plib, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar.

“Aqliy hujum” metodining og‘zaki turidan foydalangan holda quyidagi savollar beriladi:

1. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganish axamiyati nimadan iborat ?
2. Ilk davlatchilik vujudga kelishi sabablarini ochib bering?
3. Qadimgi davlatchilik taraqqiyotining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Sivilizatsiya nima?
5. Davlat tushunchasini ochib bering?
6. Davlatning qaysi shakllarini bilasiz?

“Aqliy hujum” metodining yozma turidan foydalangan holda quyidagi savollarga yozma to‘liqroq variantda javob yozishlari talab etiladi:

1. Davlatchilik kelib chiqish masalasiga oid qanday nazariyalar mavjud?
2. Davlatchilik paydo bo‘lishida ilk shaxarlar qanday ahamiyatga ega?


“LOYIHA” metodi



“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

ILMIY MAQOLA LOYIHASINI TAYYORLASH

Ta'lim oluvchilarga modul mavzulari doirasida erkin mavzu tanlaydilar, ular mavzu hususiyatidan kelib chiqqan holda o'z ilmiy maqolalarini tayyorlaydilar (hajm 4-5 varaqgacha)

“Инсерт жадвали”

Tinlovchilarda ma'ruzalar va mustaqil ta'lim jarayonida olgan bilimlari asosida nazariy ma'lumotlarni tizimlashtirishib uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etish, qabul qilinayotgan ma'lumotlarning tushunarligini nazorat qilish avval egallagan bilimlarini yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantiradi. Tinglovchilar ushbu jadval asosida darsda olgan bilimlarini o'z bilimlari bilan taqqoslaydi, mavzu bo'yicha mustaqil ishlab, yangi ma'lumotlar oladi, ularni matnda qo'yilgan belgilar asosida jadvalga kiritadi.

Namuna:

Insert jadvali

O'rta Osiyo davlatchiligi etnogenezi va etnik tarixini qayta ko'rib chiqishdagi zamonaviy muammolar

V	+	-	?

“V”- haqidagi bilimlarimga javob beradi;

“+” haqidagi bilimlarimga qarama-qarshi;

“-” yangi ma'lumotlar

“?” mavzuga oid tug‘ilgan savollar

“T-jadval” metodi

Jadval shaklida berilgan topshiriqni mohiyatiga ko‘ra qiyosiy taqqoslashni amalga oshirish talab etiladi. Jadvalning o‘ng va chap tomonlariga masalaning bir-biriga zid holatlari bayon etiladi, masala yechimi yuzasidan yakuniy xulosaga kelinadi.

Namunalar:

O‘zbekiston hududida ilk davlatchilikning shakllanish xususiyatlari

Qadimgi davlatchilik tarixini davrlashtirish masalasi

Baqtriya podsholigi muammosi

III. NAZARIY MATERİALLAR

1-mavzu. Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.

REJA

- 1.1. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganish axamiyati.*
- 1.2. Sivilizatsiya va davlat tushunchalari.*
- 1.3. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.*
- 1.4. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.*

Tayanch so‘zlar: Davlatchilik, sivilizatsiya, tarixiy-madaniy viloyatlar, arxeologiya, tarixiy madaniy me’ros, tarixiy yodigorliklar, taraqqiyot darajasi, madaniy muloqot, madaniy yuksalish, ilk davlatchilik tarixi, tarixiy usullar, O‘zbekiston davlatchiligi tarixi, O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi, moddiy va ma’naviy madaniyat iqtisodiy o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, me’morchilik, binokorlik, hunarmandchilik, dehqonchilik madaniyati, sivilizatsiyali yondoshuv, ijtimoiy madaniy komplekslar.

1.1. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganish axamiyati.

O‘zbekistan tarixini xolisona va xaqqoniy o‘rganish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida aloxida taxlilini topib, o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixidagi boy an’analarni tadqiq etish dolzarb muammo tarzida maxsus ta’killandi. I.A.Karimov belgilab bergen muxim vazifalar va tarixchi olimlar oldiga qo‘ylgan masalalar shundan iboratki, asl manbalarga tayangan xolla Vatanimiz tarixiga yangicha yondoshib, kadimgi davrlardan to bizning zamoni-mizgacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni va vokealarni o‘rganishimiz zarur.

Xar bir xalkning davlatchilik va madaniyati tarixini urganish nafakat ilmiy yeki nazariy, balki chukur ma’naviy- ruxiy axamiyatga ega bo‘lib, xar birimizda o‘zimiz tug‘ilgan va yashayotgan ona zamin bilan mustaxkam aloqadorlik xisini rivojlantiradi.

Bugungi kunda vatanparvarlik mafkurasining zarurligi masalasi ayni muddaodir. Ona zamin uchun Vatan ravnaki, xalk manfaatlari va farovonligi yulida xar kanday sharoitda fidokorlik kursatish xar birimizning mukaddas burchimizdir.

Vatan tushunchasi tarixiy xotira, garixiy ong asosida shakllanali. Vatan tuyg‘usi yoshlikdan, beg‘ubor qalbdan o‘rin oladi, uning ildizlari ona tuproqda, shu ona zaminda biz tug‘ilganmiz, voyaga yetganmiz. Ushbu tuyg‘uning takomili o‘rtta va olivy ta’lim muassasalaridagi gumanitar ta’lim, eng avvalo, Vatan tarixini o‘rganish orqali ta’minlanadi.

Turli xalqlar o‘z davlatchiligining shakllanishi bosqichini ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlariga bog‘lik xolda turli tarixiy davrlarda bosib o‘tdilar. Yer yuzida o‘z davlatchilagini xech qachon yarata olmagan elatlar va qabilalar saqlanib qolgan bo‘lib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bir necha ming yillar ilgarigidek, urug‘ va qabilaning ma’naviy o‘lchamlari, urug‘ boshliqlarining obrus- e’tibori bilan boshqarib turilmokda.

1.2. Sivilizatsiya va davlat tushunchalari.

Sivilizatsiya insoniyati madaniyati rivojinigina anglatib qolmay. shuningdek, davlatchilik taraqqiyoti xamdir. Qadimgi yozma manbalarda O‘rta Osiyodagi, shu jumladan, O‘zbekistondagi ilk davlatlar xaqida ma’lumotlar saqlanib qolgan. Bu ma’lumotlardan o‘tgan asrdan boshlab turli ilmiy asarlar yozishda foydalanib kelindi. Tadqiqotchilarning xulosalari birbiriga zid bo‘lib, xatto XX asrda xam Fapbning ayrim taniqli olimlari makedoniyalik Iskandarning xarbiy yurishlarigacha O‘rta Osiyoda na davlat, na shaxarlar bor edi, degan asossiz fikrni ilgari surdilar.

Arxeolog, qadimshunos olimlar ko‘p mexnat qilishlariga to‘g‘ri keldi. Ular O‘zbekiston xududida Iskandarning xarbiy yurishlaridan bir necha yuz yillar ilgari gullab yashnagan shaxar xarobalarini sinchiklab tekshirdilar xamda ulardan ham qadimgiroq o‘troq dehqonchilik makonlarini ochdilar.

O‘rta Osiyo xalqlari tarixiga tegishli umumiy mavzular va ilmiy muammolarning mavjudligi ma’lum. Ular eng qadimgi davrlardan boshlab ajdodlarimiz tarixi va madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Ko‘pda-ko‘p tarixiy vaziyatlarda qo‘shti xalklarni umumiy madaniy va etnik ildizlar birlashtirib, ularning tarixiy taqdiri bir-biriga uzviy bog‘langan. Qadimgi davrlardayoq turli shevalarda gaplashgan qabilalar va elatlar umumiy tarixiy-madaniy an’analarga ega bo‘lib, antropologik va etnik jixatdan ular ko‘p xollarda qon-qarindosh bo‘lganlar. Bu elatlar axoli bo‘lib. xech qayerga izsiz yo‘qolib ketmagan. O‘rta Osiyo xalqlari ajdodlarining yirik guruxlarini tashkil kilgan.

O‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi ancha qadim ildizlarga ega. Yurtimizda ilk davlatchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi arxeologiya yozma manbalar asosida o‘rganiladi.

Xududimizga tegishli ilk yozma manbalar -“Avesto”, axamoniylar davri mixsimon yozuvlari va qadimgi dunyo (Yunon-Rim) davriga taalluqli manbalar

o'lkamizdagi viloyatlarning nomlarini, aholining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Keyingi ayerlar davlatchilik tarixini urganishda va tadqiq etishda Beruniy, Narshaxiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobur, Xofiz Tanish Buxoriy va boshqa mualiflar asarlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchilik tizimiga o'tish jarayoni miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida boshlandi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda O'rta Osiyo xududida eng yirik davlatlar - qadimgi Xorazm va qadimgi Baktriya mavjud edi. Sug'diyona va Farg'ona viloyatlari qadimgi tarixning iqtisodiy va madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Asrlar davomida o'zbek xalqi ajdodaari chet el bosqinchilar (axamoniylar, yunon-makedon)ga qarshi kurash olib bordilar. Turli sulolalar davrida o'lkamizda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar o'zgarib turdi.

O'rta asrlarda o'zbek xalqi davlatchiligi tarixida somoniylar, qoraxoniylar, saljukiylar sulolalarining yirik davlatlari vujudga keldi. XII asrning o'rtalarida xorazmshoxlar mamlakatni markazlashtirishga xarakat qildilar, ammo bu jarayonga mug'ullarning yurishlari va istilosи to'siq bo'ldi.

O'zbek xalqi davlatchiligi tarixining yangi boskichi Amir Temur xukmronligi davri bilan uzviy bog'liqdir. Markazlashgan davlatda iqtisodiy xayot, me'morchilik, xunarmandchilik, ilm. fan. san'at yuksak darajada rivoj topdi. Ushbu tarixiy an'ana Mirzo Ulug'bek davrida davom etdi.

Keyingi asrlarda o'zaro nizolar va kurashlarga qaramay, ijtimoiyiktisodiy va madaniy hayotida yangi jarayonlarni kuzatish mumkin. XVIII asrning o'rtalariga kelib O'rta Osiyo xududida uchta davlat (Buxoro amirligi Xiva va Qo'qon xonliklari) paydo bo'ldi. Afsuski, ular o'rtasida birlik bo'lmadi. siyosiy qarama-qarshiliklar, o'zaro kurashlar avj oldi. Bunday vaziyatda O'rta Osiyo xonliklari podsho Rossiyasi tomonidan istilo kilingan, Turkiston o'lkasi mustamlakaga aylandi.

Shu davrdan boshlab o'lkada istiqlolga erishish va milliy davlatchilikni tiklash uchun xalq xarakatlari boshlandi, ayniqsa, XX asrning birinchi choragida bu kurash o'zining yukori nuqtasiga chiqdi. O'zbekistan davlat mustaqilligi e'lon kilinguncha, o'zbek xalqi o'z xayotida mana shunday murakkab bosqichlarni bosib o'tdi.

1.3. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo'li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo'li”.

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko'rinishlarda bo'lib, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga jamiyat rivojining ichki qonuniyatları (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darjası, xususiy mulkning paydo bo'lishi, hunarmandchilik, tovar ayriboshlash va savdoning jadal rivojlanishi kabilar) bilan birga, tashqi omillar - kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to'qnashuvlar ham o'z

ta'sirini ko'rsatgan. Qadimgi Sharqning dastlabki davlatlari alohida joylashgan uy-qo'rg'onlar va ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar sug'orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya'ni zinch o'zlashtirilgan, xo'jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug'orma dehqonchilik vohalarida paydo bo'lgan. Tarixshunoslikda bunday ilk davlatlar qadimgi Misr misolida "nom"lar ya'ni "viloyatlar" yoki shahar-davlatlar (Ikkidaryo oralig'i) deb ataladi.

Eng qadimgi davlatlar bundan 5 ming yil avval qadimgi Misr va Ikkidaryo oralig'ida (Dajla va Frot) paydo bo'lgan. Davlatchilik tizimi bundan 4-3,5 ming yil avval

Yunoniston, Kichik Osiyo, Eron, Kavkazorti, Hindiston, Xitoy va O'rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Jahon tarixidagi ilk davlatlar yuqorida ta'kidlaganimizdek, dehqonchilik va chorvachilik kabi ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar paydo bo'lgan hududlarda shakllangan. Boshqaruvning asoslari quyidagilardan iborat edi: ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish zaruriyati, jamoadagi urf-odatlarni bajarish, jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo'linishi.

XX asrning eng muxim voqealaridan biri yangi mustakil davlatlarning tashkil topishidir. Shy asrda O'zbekistan nomi tarixiy xaqiqat bo'lib jaxon tarixidan abadiy o'rinn oldi. Uning davlatchilik tarixida yangi davr boshlandi.

O'rta Osiyoda ilk davlatlar vujudga kelishi masalasining o'rganilishi tarixi XIX asrning oxirlarida boshlangan bo'lib, bu muammo tarixchi, manbashunos va kadimshunoslar tomonidan tadkik kilingan. Natijada, mavzuning ayrim tomonlari yoritilgan bulsada, lekin asosiy masalalar yuzasidan tadkikotchilar urtasida yagona fikr mavjud emas.

Sobik sovet tarixshunosligida davlatchilikning vujudga kelishi masalasi asosan kuyidagi muammolarni tadkik etishga yunaltirilgan: mulkiy tabaqlananish, ijtimoiy tabaqlananish; ekspluatatsiya munosabatlari. ya'ni davlat o'zaro nizolar va kurashlarga asoslangan sinfiy jamiyat maxsuli ekanligi g'oyasi asosida o'z yechimini topgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida chop etilgan ayrim darsliklar va kitoblarimizda xam bunday yondoshuvni kuzatish mumkin. Bu tabiiy bir xol, chunki dastlabki paytlarda O'zbekiston yangi tarixini yaratishning anik yo'naliishlari xali ishlab chiqilmagan edi.

Davlat tizimiga o'tish bosqichi, tarixiy jarayon sifatida, eng qadimgi (ibridoiy) jamiyatning madaniyati va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining yangi bosqichi bo'lib, ularning yanada rivojlanish tarakkiyoti maxsulidir. Shu davr iqtisodiy xayotida erkin jamoatchilarning mexnati ishlab chikarishni rivojlantirayotgan asosiy kuch bulgan.

Jamiyatda qarama-qarshi sinflar paydo bo'lib ilk davlatlarning vujudga kelishiga asosiy sabab bo'ldi degan xulosa to'g'ri emas, chunki faqat davlatchilikka doyir siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy mansablar va boshqaruv tizimining paydo bo'lganidan so'ng, aniq iqtisodiy va siyosiy sabablarga ko'ra, mulkiy va ijtimoiy tabaqlananish jarayoni keskin o'zgarib, keyinchalik tez rivoj topadi.

Misol uchun, qadimgi Misr, Mesopotamiya va Yunonistonda dastlab shaxar-davlatlar vujudga kelib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyesiy xayotida erkin aholi faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Ammo bosqinchilik urushlari natijasida asirlar va qullarning miqdori o'sib borishi bilan ularning mehnatidan hunarmandchilik, binokorlik ishlari va qishloq xo'jalik soxalaridagi ishlab chiqarishla keng foydalaniadi. Natijada ko'shimcha maxsulot va boyliklar orttiriladi, ayrim to'q oilalarning obrue'tibori, ijtimoiy o'rni baland bo'lib, boy-badavlat kishilarning ajralib chiqishiga sabab bo'ladi. Demak, qadimgi davlatlar rivojining turli boskichlariga, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlar xos bo'lgan. Shuning uchun xam davlatchilik tarixini davrlashtirish va turli jamiyatlarga xos tarixiy voqealarni qiyosiy o'rganish dolzarb vazifadir.

1.4. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.

Antik va o'rta asrlar davridan boshlab davlatning kelib chiqishi to'g'risida dastlabki qarashlar paydo bo'lib, ular asosida turli nazariyalar ishlab chiqilgan. Ularning tarafdorlari o'zlarining mafkuralari, yondashuvlari va dunyoqarashlariga asoslanib ma'lum nazariyalarini isbotlashga harakat qilganlar. Ushbu nazariyalarda abstraksiya (mavhum tasavvur), umumiy falsafiy usullar ustunlik qilib, muammoning tarixiy– huquqiy jihatlariga kam e'tibor qaratilgan. Mazkur masalani ko'rib chiqqan olimlar (R.V.Rtveladze, A.X.Saidov, A.V.Abdullayev) quyidagi nazariyalarga ta'rif berdilar:

Teologiya nazariyası tarafдорлари: XIII аср, Foma Akvinskiy, XIX аср, Jozef Mestr, islom mafkurasi va katolik cherkovi.

Bu nazariya davlatlar kelib chiqishini ilohiylik bilan bog'laydi. Qadimgi davrdayoq Isroilda paydo bo'lgan bu nazariya ilk davlatlarning diniy boshqaruva shakllarini (teokratik) qattiq turib himoya qiladi.

Patriarxal nazariya dastlab Arastu asarlarida aoslanib, XIII asrda R.Filmer tomonidan rivojlantirildi.

Uning tarafдорлари dastlabki davlat bevosita oiladan o'sib chiqqan deb hisoblaydi. Unga ko'ra, davlat hokimiyati otaning oila a'zolari ustidan hokimligini belgilab beradi.

Patremional nazariya XIX асрда yashagan fransuz olimi A.Galler tomonidan ishlab chiqilgan.

Nazariya tarafдорлари davlat yerga mulkchilik huquqidan kelib chiqqan (patrimonium) deb hisoblashadi. YA'ni, hokimiyat, yerga egalik qilish huquqidan bevosita u yerda yashovchi odamlarga yoyiladi.

Shartnomaviy nazariY. XVII–XVIII asrlarda keng yoyilgan bu nazariya tarafдорлари A.Gorsiy, J.Lokk, T.Gobs, J.Russo, D.Didro, SH.Monteskye kabilar edi.

Bu nazariyaga ko'ra davlat – odamlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida odamlarning ongli ravishda birlashishidir. Odamlar shartnomaning kuchi bilan o'z erkinligi, o'z hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

Zo‘ravonlik (kuch ishlatish) nazariyasi. Uning tarafдорлари: YE.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy huquqsiz va himoyasiz qabilalarning kuchli va uyushgan qabilalar tomonidan bosib olinishi tufayli zo‘ravonlik yoki kuch ishlatish yo‘li bilan paydo bo‘lgan deb hisoblaydilar.

Irrigatsiya nazariyasi. Nemis olimi K.Vittfogel tomonidan ishlab chiqilgan. Bu nazariyaga ko‘ra, davlatlarning paydo bo‘lishi, ularning birlamchi despotik shakllari sharqiy agrar viloyatlarda ulkan inshootlar qurilishi bilan bog‘lanadi.

Psixologiya nazariyasi tarafдорлари: L.Petrajetskiy, Z.Freyd, G.Tard davlatning paydo bo‘linishi inson psixologiyasi, shaxsning jamoada yashashga ehtiyoji, obro‘li kishilarni izlash, buyruq berish va itoat istagi bilan izohlaydilar.

Sinfiy nazariY. Tarafдорлари: K.Marks, F.Engels, V.Lenin, G.Plexanov. Bu nazariyaga ko‘ra, sinflar paydo bo‘lishi va ular o‘rtasida sinfiy kurash keskinlashuvining yakunidir. Davlat bir sinfning boshqa sinf ustidan hukmronlik qurolidir.

Davlatchilik kelib chiqishi masalalariga oid markscha nazariyasi jamiyatda ijtimoiy o‘rni baland bo‘lgan boy–badavalt kishilar va aksincha qashshoq sinflarning paydo bo‘lishi g‘oyasi bilan bog‘langan.

Ibtidoiy jamiyatning yemirilishi va ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o‘rganishda sovet davri tadqiqotlarida sinfiy nazariya uslubiy poydevor bo‘lgan. Shu sababli ham davlat xalqdan ajralgan holda sinfiy ezuvchi kuch sifatida ta’riflangan. Ekspluatatsiyaning ilk shakllarini quyidagi uch asosiy shakllariga ajralib o‘rganilgan: 1. Qulchilik. 2. Jamoadagi ichki ekspluatatsiY. 3. O‘lon yig‘ib olish va ijtimoiy–iqtisodiy qaramlik.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganish ahamiyati nimadan iborat?
2. Ilk davlatchilik vujudga kelishi sabablarini ochib bering?
3. Qadimgi davlatchilik taraqqiyotining muhim jihatlarini ta’riflab bering?
4. Sivilizatsiya nima?
5. Davlat tushunchasini ochib bering?
6. Davlatchilik kelib chiqish masalasiga oid qanday nazariyalar mavjud ?
7. Davlatning qaysi shakllarini bilasiz ?
8. Davlatchilik paydo bo‘lishida ilk shaxarlarning ahamiyati to‘g‘risida so‘zlab bering

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev O‘. O‘rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. T.: Akademiya, 2009.
2. Asqarov A., Shirinov T. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzi yuga Sredney Azii. – Samarkand, 1993.

3. Davlat qurilishi va boshqaruvi. –T.: Akademiya, 2007.
4. Isomiddinov M. Istoki gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda. – T, 2002.
5. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. T.1. –T.: O‘zbekiston, 2009.
6. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiY. Tarixiy lavhalar. – T. 2010.
7. Qudratov S. Markaziy Osiyo hududida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. – Guliston, 1998.
8. Masson V.M. Ekonomika i sotsialniy stroy drevnih obshestv. L.: Nauka, 1976.
9. Masson V.M. Perviye sivilizatsii. – L., 1989.
10. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent: UMED, 2005.
11. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T.: Adolat, 2001.
12. Sagdullayev A. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Universitet, 2004.
13. Sagdullayev A., Aminov B. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.
14. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2006.
15. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Shari, 2001.
16. Xorezm v istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tashkent, 2013.
17. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ma’rifat, 2009.
18. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlod, 2012.

2-mavzu:Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.

REJA:

- 2.1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi
- 2.2. Ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.
- 2.3. Baqtriya podsholigi
- 2.4. Xorazm vohasida ilk davlatchilikning shakllanishi
- 2.5. Farg‘ona vodiysi qadimgi davlatchiligi masalasi.
- 2.6. So‘g‘d hududida davlatchilikning vujudga kelishi.

Tayanch so‘zlar: Ilk davlatlar, bronza davri, arxeologik yodigorliklar, dehqonchilik, chorvachilik, ishlab chiqarish xo‘jaliklar, me’morchilik, mudofaa devorlar, ibodatxonalar, hunarmandchilik, mol ayriboshlash, qadimgi aloqa yo‘llari, Gonur, Tog‘oloq, Dashli, Sopolli, Jarqoton, davlatchilik shakllanishining arxeologik belgilari, saroylar va oddiy uy-joylar, shahar – davlat, shahar-hududiy davlat markazi, ijtimoiy –iqtisodiy munosabatlar, madaniy aloqalar, etnik jarayonlar, Qadimgi Baqtriya, Baqtriya podsholigi, xronologiya, boshqaruv shakli, “Katta Xorazm” xorasmiyalar, Xorazm vohasi, ilk temir davri, Ko‘zaliqir, Quysoy madaniyati, saklar, mudofaa, tizimi, paxsa va xom g‘isht binokorligi, uy – qo‘rg‘on, shahar markazi, arxeologik ma’lumotlar, qiyosiy tahlil, Quyi Amudaryo, sug‘orish tizimi, irrigatsiya inshootlari, Dingilja, Xazorasp, Xumbuztepa, Chust madaniyati, Dalvarzin, bronza va temir qurollari, yarog‘-aslahalar, tarixiy – madaniy jarayonlar, Farg‘ona vodiysi, Sug‘diyona, Shaharsozlik madaniyati, Afrosiyob, Ko‘ktepa, Uzunqir, Yerqo‘rg‘on, iqtisodiy – madaniy aloqalar, siyosiy tarix.

2.1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko‘rinishlarda bo‘lib, ularning shakllanish va rivojlanish bosqichlariga jamiyat rivojining ichki qonuniyatlari (ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi, xususiy mulkning paydo bo‘lishi, hunarmandchilik, tovar ayriboshlash va savdoning jadal rivojlanishi kabilar) bilan birga, tashqi omillar - kuchayib borayotgan siyosiy qarama-qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Qadimgi Sharqning dastlabki davlatlari alohida joylashgan uy-

qo‘rg‘onlar va ilk shaharlar hamda ishlov beriladigan yerlar sug‘orish tizimi maydoni bilan chegaralangan nisbatan kichik hududda, ya’ni zich o‘zlashtirilgan, xo‘jalik va ishlab chiqarish maqsadida keng foydalaniladigan qadimgi sug‘orma dehqonchilik vohalarida paydo bo‘lgan. Tarixshunoslikda bunday ilk davlatlar qadimgi Misr misolida “nom”lar ya’ni “viloyatlar” yoki shahar-davlatlar (Ikkidaryo oralig‘i) deb ataladi.

Eng qadimgi davlatlar bundan 5 ming yil avval qadimgi Misr va Ikkidaryo oralig‘ida (Dajla va Frot) paydo bo‘lgan. Davlatchilik tizimi bundan 4-3,5 ming yil avval Yunoniston, Kichik Osiyo, Eron, Kavkazorti, Hindiston, Xitoy va O‘rta Osiyo hududlarida tarqalgan. Jahon tarixidagi ilk davlatlar yuqorida ta’kidlaganimizdek, dehqonchilik va chorvachilik kabi ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklar paydo bo‘lgan hududlarda shakllangan. Boshqaruvning asoslari quyidagilardan iborat edi: ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish zaruriyati, jamoadagi urf-odatlarni bajarish, jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatdan bo‘linishi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, eng qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kungacha quyidagi boshqarish vazifalari ustuvor bo‘lib kelmoqda: rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish, nazorat, jamoatning ichki va tashqi munosabatlarni boshqarib turish.

Qadimgi boshqaruv tizimi quyidagi funksiyalar bilan bog‘langan holda amalga oshirilgan: iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, hududiy.

Iqtisodiy funksiyalar tizimida ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti muhim o‘rin tutgan. Jumladan, dehqonchilik ishlarini, ishlab chiqarishni tashkil etish, jamoa xo‘jaliklarida yer va suvni taqsimlash, qurilish va sug‘orish-irrigatsiya ishlarini yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash va savdosotiq aloqalari.

Ijtimoiy funksiyalar jamoalardagi o‘zaro aloqalarni tartibga solish va muvofigqlashtirish, urf-odatlarni bajarish, munozarali masalalarni hal qilish, jamoaning ichki va tashqi munosabatlarini huquqiy jihatdan boshqarib turish zaruriyatiga asoslangan.

Harbiy-siyosiy funksiyalar tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, harbiy qurollarni ishlab chiqarish, qurollangan qo‘shinlarni tashkil etish, tumanlar hududlarida mudofaa ishlarini amalga oshirish.

Ilk davlatlarning hududiy asosini ularga aloqador bo‘lgan qo‘shni dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo‘lib, ular qadimgi «dehqonchilik tuman-vohalari» deb atalgan. Ularning har birida hosildor yerlar va sug‘orish tizimidan tashqari uy-qo‘rg‘onlar va manzilgohlar (qishloqlar), ekin ekilmagan yerlar va yaylovlар mavjud bo‘lgan. Qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi tabiiy-geografik, ijtimoiyiqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘liq edi. Bir necha tumanlar viloyatni tashkil etgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar bilan bog‘liq holda boshqaruvning **hududiy funksiyalari** ham vujudga kelgan. Ushbu funksiyalar tuman, viloyat hududlarida joylashgan qishloq jamoalari, tuman aholisi (bir necha qishloq jamoalari) va viloyat (bir necha tuman) aholisining o‘rtasida mavjud bahsli hududiy muammolarni hal qilish, voha-tumanlarda hosildor yerlar, sug‘orish tarmoqlari va yaylovlardan foydalanishni tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlangan. Ikkinci bosqich jamoaning o‘zini-o‘zi boshqaruv muassasalarining yo‘lboshchi hokimiyatiga to‘la bo‘ysundirilishi bilan bog‘langan bo‘lib, ushbu jarayonda jamoa a’zolari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqalar huquqiy tartibot yanada takomillashib boradi. Bu holat esa davlat tuzumidagi turli vazifalarning xuquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, demak qadimgi Sharqning ilk davlatlari tarixi dastlab jamiyatning qullar va quldlarga bo‘linishidan boshlanmagan ekan. Ushbu jarayonning muhim omillaridan biri mulkiy tabaqalanish bo‘lmashdan, sinfiy qarama-qarshilikka aloqasi bo‘lmagan jamiyatning ijtimoiy-amaliy vazifalar jihatidan bo‘linishidir. Bu hol, eng avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy va diniy omillarga bog‘liq bo‘lgan. Davlatchilikning asoslari, siyosiy institutlar shakllangandan keyingi davrlar chuqur ijtimoiy tabaqalanish jarayonning boshlangani bilan xarakterlanadi.

Ilk davlatlarning ishlab chiqaruvchilik hayotida dastlab ozod jamoa a’zolarining mehnati muhim o‘rin tutadi. Aholi sonining o‘sishi hamda yangi aholi joylasha oladigan hududlarga, bo‘z yerlar va chorva uchun yaylov, ma’danlarga boy manbalarga ega bo‘lish ehtiyoji katta yo kichik urushlarga sabab bo‘lgan. Doimiy harbiy to‘qnashuvlar sharoitida ba’zi bir davlatlar tor-mor keltirilib, ba’zi birlari esa kuchayib borgan. Sanoqsiz asirlar va xonavayron bo‘lgan jamoa a’zolari qullikka mahkum bo‘lganlar. Ularning mehnatidan ishlab chiqarish maqsadlarida keng foydalanilgan. Shu tarzda tarixda qadimgi Misr, Shumer, Bobil, Ossuriyadek o‘rtamiyona hududga ega davlatlardan (o‘rta podsholiklar) keyinchalik yirik, dunyoviy miqyosdagi Ahamoniylar sultanatidek davlatlar vujudga kelgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, ilk temir davrida O‘rta Osiyo janubidagi jamoalarda “uy egasi”, “qishloq oqsoqoli”, “oqsoqollar kengashi”, “tuman hokimi” kabi mansablar mavjud edi. Ijtimoiy tuzumning bu pog‘onasi ilk davlatchilikning yuqori darajasi bo‘lib, u jamoalarning ijtimoiy hayotida o‘z obro‘-e’tibori va ahamiyatini saqlab qoldi. Jamoa uchun tashkiliy boshqaruv keng ko‘lamdagi qurilish, sug‘orish va dehqonchilik ishlarini tashkil etish paytida zarur edi. Yo‘lboshchi hokimlarning boshqalardan ajralib turishiga qadimgi shaharlarning ichki qal’asida ularning alohida joylashgan saroy qo‘rg‘onlari ham guvohlik beradi. Bu hokimiyat jamoaning ichki va tashqi munosabatlarni boshqarib turgan. Qadimgi tuman va viloyatlar, shahar markazlarining ahamiyati, ayniqsa harbiy to‘qnashuvlar paytida yanada oshib, ulardan tuman aholisi uchun boshpana, ijtimoiy mulkning asosini tashkil etuvchi chorva podalari uchun pana joy sifatida foydalanilgan.

Uy-qo‘rg‘on egalarining huquqlari ancha yuqori bo‘lib, ular oila va jamoadagi ish yurituvchilar sifatida an'anaviy qishloq xo‘jalik shakllarini rivojlantirish, oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish maqsadida turli munosabatlarni boshqarib turgan. Bu ijtimoiy tuzumda ayrim guruhlar dehqonchilik xo‘jaligi bilan mashg‘ul bo‘lgan. Mazkur tuzumda, uy chorvachiligi ixtisoslashgan hunarmandchilik, qurilish ishlari bilan shug‘ullanuvchilar, umuman, ishlab chiqaruvchilar bor edi. Undan tashqari, ishlab chiqarish jarayonida band bo‘lmagan yoki xo‘jalik ishlari bilan kamdan-kam shug‘ullanadigan shaxslar ham mavjud bo‘lib, bu toifa kishilariga uy-qo‘rg‘on egalari, jamoa oqsoqollari, diniy arboblar, tuman va viloyat hokimi kabilar kirgan. Ularning barchasi jamiyat hayoti va ishlab chiqarish tartibida tutgan o‘rni bilan boshqalardan farq qilgan.

O‘zbekistonda ilk davlatlar dehqonchilikdan iqtisodiy, ixtisoslashgan hunarmandchilikning ajralib chiqishi tufayli shakllangan shahar markazlari asosida paydo bo‘lgan.

2.2. Ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari.

So‘nggi yillar tarixshunosligida O‘zbekiston tarixidagi qadimgi davlatlar rivojlanishining davrlashtirilishi ishlab chiqildi (E.V.Rtveladze). Ushbu davrlashtirish tarixiy hamda arxeologik tadqiqotlar natijalariga asoslangan bo‘lib, mil.avv.II ming yillikning ikkinchi yarmidan milodiy III–IV asrlargacha bo‘lgan quyidagi 6 ta davrga ajratiladi.

Birinchi davr–mil.avv.II ming yillikning ikkinchi yarmi. Bu davrda Shimoliy Baqtriya (Surxon vohasi)da davlatchilikning ilk ko‘rinishi shakllanib, uning tepasida balki oqsoqollar kengashi va saylanadigan hukmdor turgan bo‘lishi mumkin. Bunday ko‘rinishdagi ilk davlatlar bu davrda Baqtriya hududlarida shakllangan nisbatan yirik uyushmalar tarkibiga kirgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Nisbatan taraqqiy etgan iqtisod, jumladan, sug‘orma dehqonchilik, sopol va metall hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo munosabatlari bunday uyushmalarning davlatchilik xususiyatidan dalolat beradi. Ammo, davlatchilikning muhim belgisi hisoblangan yozuvning bu hududlarda mavjudligi hozirga to‘la isbotlanmagan.

Ikkinci davr – mil.avv. I ming yillik boshlari– mil.avv. 540 y. Bu borada Baqtriya, Sug‘d va Xorazm kabi tarixiy–madaniy viloyatlar shakllanadi. “Avesto” ma’lumotlariga tayanib, tadqiqotchilar ularni ijtimoiy toifalar tizimiga asoslangan siyosiy hokimiyat ko‘rinishidagi davlatlarning ilk shakli sifatida izohlaydilar. Bu davrda nisbatan hududiy yirik mulklar–qadimgi Baqtriya va qadimgi Sug‘d davlatlari, shuningdek, shimolda sak– massagetlarning qabilalar konfederatsiyalari tashkil topgan.

Uchinchi davr – mil.avv.540–330 yillar. Ahamoniylar bosqini tufayli O‘rta Osiyo viloyatlarining ular qadimgi Fors davlati tarkibida kirishi natijasida mahalliy

davlatchilik taraqqiyotidagi uzilish davri. Ulkan Ahomoniylar sultanati satrapiyalarga bo‘linib boshqarilgan hamda uchta O‘rta

Osiyo satrapiyalari – Baqtriya, Sug‘d, Xorazm to‘laligicha yoki qisman hozirgi O‘zbekiston hududlarida joylashgan.

Satrapiyalar tarkibiga kirgan viloyatlarning hukmdorlari, Baqtriya va Sug‘d zodagonlari Oksiart, Xoriyen, Sisimir, Katan, Avstan—Nautaka, Ksenippa, Paretaka kabi o‘zlarining merosiy mulkclarini ma’lum ma’noda mustaqil boshqarganlar. Sak qabilalarining ahamoniylarga qarshi uzoq kurashlari natijasida mil.avv.IV asrning boshlariga kelib Xorazmda mustaqil davlat tashkil topadi.

2.3. Baqtriya podsholigi

Turli qadimgi tillar yozma manbalaridagi Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxdi, Baxlika (hind manbalarida) yirik o‘lka va davlatning nomidir. Baqtriya – bu Bahdi, Baqtra daryosi (hozirgi Balxob) nomi bilan bog‘liq bo‘lgan tushunchadir. Rim tarixchisi Kursiy Ruf bunday xabar qiladi: «Baqtra daryosi nomidan shahar va viloyatning nomi kelib chiqqan».

Dastlabki bosqichda bu so‘z yagona vohaning nomi bo‘lib, keyingi davrlarda keng hududga tarqalgan Baqtriya tarixiy–madaniy viloyati, Baqtriya davlati (bir necha daryo vohalari va viloyatlari) ma’nolarida ishlatalgan. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, qadimgi davlatlarning nomlariga odatda daryo, qabila, xalq va markaziy shaharlar nomlari asos solgan. O‘rta Osiyo xalqlarining tarixida daryolar muhim hayot manbai vazifasini bajargan. Hozir ham O‘zbekistonning viloyatlari, asosan, daryo va shaharlar nomlari bilan belgilangan. Demak, Baqtra, Baqtriya so‘zlari – bu geografik tushunchalardir.

«Baqtriyaliklar», «Baqtriya xalqi» so‘zlari qadimgi manbalarda tilga olinib, bitta xalqni yoki bir necha qarindosh qabilalarni birlashtirgan tushunchani beradi. Odatga ko‘ra, baqtriyaliklar yozma manbalarda bosqinchilarga (Ossuriya podshosi Nin, Kir II, Makedoniyalik Aleksandrga qarshi) turgan xalq sifatida nazarda tutilgan.

Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, Baqtriya yerkari — bu Afg‘onistonning shimoli–sharqiy qismini, Janubiy Tojikiston, Surxondaryo viloyatini o‘z ichiga olgan. Baqtriya hududida eng qadimgi odamlar tosh davridan boshlab yoyilgan. O‘zbekiston hududdiga qarashli Baqtriya qismida – Teshiktosh, Machay va Zarautsov tosh asri yodgorliklari uzoq o‘tmish hayoti haqida dalolat beradi.

O‘zbekistonda eng qadimgi paxsa va xom g‘ishtdan qurilgan (aholi o‘troq dehqonchilik xo‘jaligiga ega) yodgorliklar Surxondaryo vohasidan topib tekshirilgan. Ular bronza davriga oiddir. Bronza davrida Baqtriya hududida davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni boshlangan. Mazkur davrga oid saroy, ibodatxonalar topilgan hamda yuksak binokorlik, hunarmandchilik va ziroatchilik madaniyati izlari aniqlangan.

Mil.avv. IX–VIII asrlarga kelib, Baqtriya tuprog‘ida harbiy ahamiyatga ega siyosiy birlashmalar tashkil topgan. Bu O‘rta Osiyo aholisining bir qismi ko‘chmanchi chorvachilikka o‘tgan davrga to‘g‘ri keladi. Siyosiy qarama– qarshiliklar avj olib

turgan bu jarayonlarda qurollangan otliqlarning hujumlari katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Bu bosqichning tarixi va harbiy yo‘lboshchilarning siyosiy qurashlari “Avesto”da tasvirlangan.

Mil.avv. 700–540 yillari qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo‘lib, uning hududiy chegaralari: Hinduqush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib taqalgan (daryo vovalari – Balxob, Qunduz, Panj, Vaxsh, Kofirnixon, Surxon). Bu ilmiy xulosani isbotlash tarixiy geografiyaga oid uchun maxsus maqolalar chop etilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan hududiy chegaralari bo‘yicha Baqtriya davlati O‘rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo‘lgan. Qadimgi Baqtriya hududlariga O‘rta Amudaryoda Xorazm va sak–massagethlarning harbiy– siyosiy uyushmasiga tegishli o‘lkalar chegaradosh edi.

Marg‘iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan. Bundan yozma manbalar dalolat beradi. Podsho Doro I ning Marg‘iyonadagi qo‘zg‘oltonni tor– mor qilishi haqida Behistun yozuvlaridagi quyidagi xulosa mavjud: “Mana nimalarni men Baqtriyada qildim”. Doro III davrida Baqtriya va Sug‘diyona birlashtirilgan o‘lka bo‘lib, unda Bess ismli satrap hokimlik qilgan. Marg‘iyona va Baqtriya aholisining urf–odatlari hamda madaniyati bir–biriga ancha o‘xshab rivoj topgan.

Videvdat kitobida Baqtriya «eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan biri baland bayroqli, “go‘zal o‘lka” sifatida yoritilgan. So‘nggi yunon manbalarida Baqtriya – «ming shaharlar davlati» deb atalgan. Bu tarixiy an’analarga nimalar asos solgan? Ahamoniylar davlatida Baqtriya eng qudratli o‘lkalardan biri hisoblanganligimi yoki uning tabiiy boyliklarimi, jasur jangovar otliq va piyoda qo‘sishlari, yirik shaharlari va qadimgi zamonlarga oid tarixi, xalqi va davlatimi? Balki shu sabablarning hammasi birgalikda va shubhasiz juda qadimgi zamonlarga oid Baqtriya xalqining tarixiy an’analardir.

Gerodotdan avval «Baqtriya xalqi» tushunchasini buyuk Esxil «Forslar» degan fojiasida ishlatgan (sahnada mil.avv.472 yilda ijro etilgan). “Forslar”da yosh baqtriyalik jangchilardan Tenagon va Aritomlarning ismlari tilga olingan. Ular Salamin jangida haloq bo‘lib (mil.avv. 480 yil) shu orolda dafn qilingan. «Baqtriya xalqi halok bo‘ldi» – deb Esxil o‘z asarida xulosa qilgan. Aynan qadimgi fors yozuvlarida «Baqtriya» va baqtriyaliklarning tilga olinishi mil.avv. 522 yildan so‘nggi davrlarga oiddir. Bu rasmiy darajada, ammo oldingi zamonlarda ham Baqtriya haqida turli xabarlar O‘rta Sharqda keng ma’lum edi. Shuning uchun ham Gerodotning aytishicha, Misr va Bobil bilan bir qatorda Baqtriya Kir II ning harbiy yurishlariga to‘siq bo‘lib turgan.

Shubhasiz, bu Baqtriyaning muhim harbiy va iqtisodiy ahamiyati haqida dalolat beradi (aholi, qudratli shaharlar va qal’alarning ko‘pligi, tabiiy ashyolarning boyligi, muhim markaziy savdo yo‘llarining chorrahasi, hunarmandchilikning rivojlanishi, piyoda va otliq qo‘sishlarning yurti va boshqalar). Bundan tashqari, Baqtriya Ahamoniylar davlatining uzoq sharqiy chegaralarida joylashgan podsho taxtini egallash maqsadini o‘z oldida qo‘yilgan ahamoniylar sulolasini vakillari uchun norasmiy surgun joyi ham bo‘lishi ehtimoldan holi emas (ahamoniylar saroyidan chetlashtirish

va podsho taxtidan uzoqlashtirish jarayonida). Ma'lumki, Smerdis – Bardiya podsho Kambizning buyrug‘iga binoan o‘ldirilgan, Masist o‘z akasi podsho Kserks bilan taxt uchun kurashib halok bo‘lgan. Artabon podsho Artakserksga qarshi chiqib, Baqtriya qudratiga tayangan, mil.avv.330 yilda Baqtriya satrapi Bess Doro III ni o‘ldirib, o‘zini «Osiyoning ulug‘ podshosi» Artakserks IV deb e’lon qilgan. Bu vaziyatda ham tarix yana qayta takrorlangan. Bess Makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurashni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun Baqtriya va Sug‘diyonaning harbiy qudratiga ishongan.

Oimlarning fikriga ko‘ra, qadimgi Baqtriyaning bir qismi bo‘lgan Afg‘onistonning shimoli–sharqida (Kunduz, Ko‘kcha daryolarining vohalari) Aryonam Vayjo mamlakati joylashishi mumkin edi. U “Avesto”da Aryoshayyona nomi bilan ham mashhurdir. Aryoshayyona Kavi Vishtasp podsholigi bo‘lib, Drangiana, Sattagadiya, Ariya, Marg‘iyona va Amudaryo o‘rtal oqimidagi viloyatlarni birlashtirgan. Oimlar Kavi Vishtasp podsholigini Marv va Hirot atrofida joylashgan “Katta Xorazm” deb hisoblashganlar (V.B.Xenning va I.Gershovich).

Boshqa tadqiqotchilar Zaratushtra ta’limotining birinchi tarafdoi – Kavi Vishtasp davlatini Baqtriya hududiga joylashtirib, tarixiy an’alar Baqtriya tuprog‘ida davlat vujudga kelishi jarayoni juda qadimgi davrlarga oid degan fikrni olg‘a suradilar.

Arxeologiya manbalar qadimgi Baqtriyada dastlabki shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonini aniqlash imkonini beradi. Baqtriyaning shahar markazlari (ular asosan ayrim viloyatlarda harbiy– ma’muriy hunarmandchilik va savdo–sotiq ahamiyatga ega bo‘lgan) asrlar davomida harobalarga aylanib, yer ostida qolib ketgan. Shunday markazlardan Bolo Hisor (Baqtra), Oltindilyor, Qiziltepa va Boytudasht yodgorliklarida arxeologik tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Bu shaharlar keng maydonlarda joylashib, qalin va mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Yodgorliklarda hom g‘isht va paxsadan qurilgan uy– joylar qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan. Shaharlarning bir qismida hukmdorlar qarorgohlari qal’a–qo‘rg‘onlar joylashgan.

Baqtriya ayrim daryo vohalaridagi beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirnixon–Vaxsh, Panj, Ko‘kcha–Qunduz vohalari shular jumlasidandir. Surxon viloyatining markazi Qiziltepa bo‘lgan, Shimoliy Afg‘onistonda yirik shaharlar qoldiqlari – Bolo Hisor va Oltindilyorlar topib tekshirilgan. Bolo Hisor o‘rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Gerodot va Ktesiylarning ta’kidlashicha, Baqtriyaning markazi edi.

Ktesiyning «Persika» asarida Baqtriyaning juda ko‘p harbiy istehkomlari va qal’alari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Hozirgi kunda Baqtriya tuprog‘idan mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmiga oid 240 dan ortiq uy–qo‘rg‘onlar, qal’alar va shaharlar harobalari topib tekshirilgan. Jumladan, Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashqon, Jondavlat, Bandixon, Qizilcha va SHo‘rtepa yodgorliklarini aytib o‘tish lozim. Ular devorlar va mudofaa burjlar bilan mustahkamlangan qal’alar yoki to‘rburchak shaklida qurilgan uy–qo‘rg‘onlardir. Qadimgi aholi sug‘orma

dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Yodgorliklarda sopol idishlar, bronzadan va temirdan yasalgan pichoqlar, o‘roqlar, bronza idish parchalari hamda o‘q uchlari, jez igna va bigizlar, sopol urchuqlar, toshdan ishlangan qurollar topilgan.

Qurilish, hunarmandchilik – temirchilik, kulolchilik, to‘quvchilik, zargarlik, charmgarlik va sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi Baqtriyada qadimiy madaniyat yuksak darajadaga taraqqiyotini ko‘rsatadi.

2.4. Xorazm vohasida ilk davlatchilikning shakllanishi

Xvarizam (“Avesto” tilida), Xuarazmish (qadimgi fors tilidi), Xorasmiye (qadimgi yunon tilida) tushunchalari Quyi Amudaryo hududlaridagi Xorazm vohasiga tegishli bo‘lgan. Qadimgi Xorazm tarixi va yodgorliklari S.P.Tolstov rahbarligidagi arxeologik ekspeditsiyaning tadqiqotlari natijasida keng yoritilgan. Xorazmning sug‘orish inshootlari va sug‘orilishi tarixini o‘rganishda taniqli olim arxeolog Y.G. G‘ulomov katta hissa qo‘shgan. Xorazm tuprog‘ida turli xil ko‘hna qishloq va shahar xarobalari qazib ochilgan. Hozir ham Qadimgi Xorazm tarixini o‘rganish va uning arxeologik yodgorliklarini qidirib topish va tadqiq qilish ishlariga katta e’tibor berilmoqda.

«Avesto»ning dastlabki ma’lumotlariga (Yasht madhiyalari) zamondosh Xorazm yodgorliklari mil.avv. IX–VIII asrlarga oid Amirobod madaniyati nomi bilan atalgan. Bu davr yodgorliklari mahalliy bronza davri madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim yerto‘la turar joy, kichik sug‘orish inshootlar izlari va qo‘lda yasalgan idishlar bilan mashhur bo‘lgan. Bronza buyumlaridan o‘roqlar, jez ignalar hamda o‘q uchlari qo‘yilgan tosh qoliplar topilgan.

Xorazmdagi shu davr aholisining asosiy tirikchilik manbai chorvachilik va dehqonchilik bo‘lgan. Tabiiy sharoit ariq qazib, suv chiqarishga imkon bergen tumanlarda sug‘orma dehqonchilik rivojlangan. O‘lkaning yirik sug‘orish inshootlari mil.avv. V–IV asrlarga oiddir. Tadqiqotchilar bu inshootlar ahamoniylardan ham oldingi davrlarda katta bir davlat hududida qurilgan bo‘lishi mumkin va bu davlatga Xorazm, So‘g‘diyona, Parfiya, Ariya va Marg‘iyona yerlari kirgan, deb faraz qilganlar.

Gekateyning xorasmiyalar elatiga oid ma’lumotlari va Gerodotning Akes daryosi suvlari bilan foydalanuvchi xalqlarning yerlari haqidagi xabarlariga tayangan holda “Katta Xorazm” davlati to‘g‘risidagi ilmiy nazariya paydo bo‘lgan. Bu davlatga Gerodot sanab o‘tgan xalqlar – xorasmiyalar, girkalar, parfiyaliklar, saranglar va tamaneylar yerlari ham kirgan deb taxmin qilindi. Ba’zi tadqiqotchilarning ta‘kidlashicha (V.Tarn, F.Altxaym), ahamoniylar davridan oldin xorasmiyalar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo‘nalishda Kopetdog‘ yonbag‘irlarida joylashganlar. “Katta Xorazm” davlatining markazi Marv va Hirot atrofida bo‘lib, bu davlatni Kir II bo‘ysundirgan so‘ng xorasmiyalar Quyi Amudaryo – Xorazm vohasiga ko‘chib borganlar deb faraz qilindi (V.B.Xenning, I.Gershevich, I.V.Pyankov). Demak, bu

nazariyaga ko‘ra, xorazmliklarni Quyi Amudaryo yerlariga janubdan qadimgi forslar siqib chiqarganlar.

Boshqa olimlar bu nazariyaga qarshi bo‘lib, xorazmliklar O‘rtal Osiyo janubidan ko‘chib kelmaganlar. Xorazm davlati Quyi Amudaryoda qadimgi zamonlardayoq vujudga kelgan deb xulosa qilganlar (S.P.Tolstov, M.G.Vorobyova). Ammo bu davlatning chegaralari hozirgi Xorazm vohasi hududidan ancha keng bo‘lib, O‘rtal Amudaryo vohasidan boshlab Orol dengizigacha bo‘lgan yerkarni o‘z ichiga olgan.

Bu hududda mil.avv. VI–V asrlarga oid 310 ta uy–qo‘rg‘onlar, qishloq va shahar xarobalari ma’lumdir. Shular jumlasidan eng yirigi Qo‘zaliqir mustahkam mudofaa devorlari bilan o‘ralgan. Qo‘zaliqir mudofaa devorlarining tuzilishi bilan Baqtriyadagi Qiziltepa shahar devorlarining tuzilishida ancha o‘xshash aniqlandi. Baqtriya va Xorazm shahar markazlari mudofaa devorlarining o‘rtasida jangchilar yurishi uchun maxsus yo‘lak bo‘lgan. Shahar devorlarining yon tomonlarida o‘q otish uchun mudofaa burji qurilgan. Devorlarda har 2 metrda shinaklar qoldirilgan.

Arxeologiya manbalarga ko‘ra, Xorazm vohasida mil.avv. IX–VIII asrlarga oid paxsa yoki hom g‘ishtdan qurilgan uy–joylar, mudofaa devorlari va turli me’morchilik inshootlar aniqlanmagan. Turar joylar yarim yerto‘lalardan iborat, sopol idishlar esa qo‘lda yasalgan va kulolchilik charhi bu davr mahalliy hunarmandchiligidagi noma’lum edi.

Xorazm moddiy madaniyati hamda binokorligidagi tub o‘zgarishlar va vohada oldingi davrlarda noma’lum madaniy an’analarning paydo bo‘lishi mil.avv. VII–VI asrlar bilan belgilanadi. Mazkur davrga oid Xorazmda xom g‘isht va paxsadan qurilgan uy–joylarning qoldiqlari qazib ochilgan. Qurilish va hunarmandchilik ancha rivoj topgan (Qo‘zaliqir, Xumbuztepa, Xazorasp). Voha qulolchiligidagi charxdan foydalanish boshlanadi, temirdan mehnat hamda harbiy qurollar ishlab chiqariladi, saroy shaklidagi inshootlar, sajdagoglar va otashkadalar paydo bo‘ladi.

Bu yerda bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, jez igna, bigizlar, tosh qurollar, sopol idishlar topilgan.

Xorazm vohasi sopol idishlari Marg‘iyona, Baqtriya va Sug‘diyona kulolchilik buyumlariga o‘xshab, ulardan uncha farq qilmaydi. Sopol idishlar va boshqa moddiy manbalar asosiy xususiyati bilan umumiyligini madaniyatga mansubdir. Bundan binokorlik usullari uy–joylarning tuzilishi va mudofaa tizimi ham dalolat beradi. Ilk temir davri¹da O‘rtal Osiyo janubiy viloyatlarida juda qadimgi zamonlardayoq rivojlangan madaniy an’alar Xorazm vohasi aholisining moddiy madaniyatiga tatbiq qilinadi.

O‘rtal Osiyo janubiy viloyatlarini madaniy umumiyligini ziroatchi aholining qo‘shni–qarindoshligi, yaqin urf–odatlari, tili, diniy qarashlari va madaniy aloqalari birlashtirgan. Shuningdek, Marg‘iyona–Baqtriya aholi guruhlarning (binokorlar, hunarmandlar, ziroatchilar) Xorazm chegaralarida va aynan voha hududiga yoyilishi ehtimoldan holi emas. Ziroatchi aholisining migratsiyalari fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldingi davarlarda boshlangan. Migratsiyalar tufayli Janubiy

¹ History of Civilizations of Central Asia. Vol. 1. France. 1996. P. 441–458.

viloyatlar jamoalarining vakillari va Xorazm mahalliy aholisi qo'shilib qorishishi sababli yangi madaniy va etnik jarayonlarga zamin yaratilgan.

Bu davrga qadar Xorazm vohasida Quyisoy madaniyatiga oid chorvadorlar hamda ilk saklar istiqomat qilganlar (mil.avv. VII asr). Xususan xorazmliklar – saklar va baqtriyaliklar etnomadaniy an'analarining qorishishi natijasida Xorazm vohasida Qo'zaliqir madaniyati hamda xorasmiylar elati vujudga kelgan. Shunday qilib, mazkur madaniyat Marg'iyona–Baqtriyada boshlab yuqori darajada rivoj topgan sivilizatsiya ta'sirining mahsuli ekanligi ehtimoldan holi emas.

Mil.avv. X–VIII asrlarda Janubiy So'g'diyonada (Qashqadaryo vohasi) kulolchilik charxda ishlangan sopol idishlarning paydo bo'lishi, qurilishda hom g'isht va paxsaning ishlatilishi, uy–qo'rg'onlar va ayrim qal'alarning bino qilinishi Baqtriyaning Sug'diyonaga madaniy ta'sirini va baqtriyaliklar tomonidan ba'zi vohalarning o'zlashtirishini tasdiqlaydi.

Bugungi kunga kelib, "Katta Xorazm" davlatiga doir nazariya olimlar tomonidan rad etildi. Xorazm vohasida ilk davlatchilik alohida voha – tumanlarda mil.avv. VII–VI asr chegarasida vujudga kelgan degan fikr o'rtaga tashlandi.

Alohida dehqonchilik – chorvachilik voha–tumanlardan iborat qadimgi Xorazm davlati mil.avv. VI asrda Amudaryoning o'rta oqimi qismidan Janubiy Orolbo'yi yerlarida vujudga kelgan, degan xulosaning to'g'riliqi tasdiqlandi. "Katta Xorazm" markazi Hirot va Marv atrofida joylashmagan, chunki yozma manbalarga ko'ra, Marg'iyona qadimgi Baqtriyada davlatining tarkibiy qismi bo'lib, uning yirik viloyatini tashkil etgan.

Baqtriya va Xorazm davlatining hududiy chegaralari O'rta Amudaryo oqimidagi yerlar orqali o'tgan. Shu zaminda bir–biriga yaqin holatda ikkita qadimgi istehkom – Odoytepa va Qushqala qurilgan. Xorazmliklar egalik qilgan yerlar Sug'diyona, Marg'iyona va Baqtriyaga tegishli o'lkalarga borib taqalgan. Balki shuning uchun ham Gekatey xorasmiylar – xorazmliklar viloyatini parfiyaliklardan sharqiy tomonda joylashtirgan. Gerodot esa parfiyaliklar va xorasmiylarning yerlari chegaradosh bo'lgan deb ko'rsatgan.

Kir II O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarini (Marg'iyona, Baqtriya) istilo qilib, shu hududlar bir qism aholisini yurtimizning shimoliy viloyatlariga siqib chiqarish mumkin edi. Ammo, qadimgi Xorazmda davlatchilik tizimining vujudga kelishi turli murakkab madaniy, etnik va siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ahamoniylar davridan oldingi zamonlarda boshlangan. Bundan mintaqadagi sivilizatsyaning birlamchi markazlarining madaniy ta'siri va aholi migratsiyalari katta ahamiyatga ega bo'lgan.

2.5. Farg'ona vodiysi qadimgi davlatchiligi masalasi.

Mil.avv. I ming yillikning birinchi yarmida O'zbekiston tuprog'ida Farg'ona, Choch, Sug'diyona, Xorazm va Baqtriya (shimoliy bir qismi) kabi tarixiy viloyatlar

mavjud bo‘lgan. Ularning taraqqiyoti O‘zbekiston davlatchiligi tarixi bilan bevosita bog‘langan. Shular jumlasidan Farg‘ona va Choch ahamoniylar yozuvlarida va dastlabki yunon tarixchilarining asarlarida tilga olinmagan. O‘rta Osiyodagi Ahamoniylar davlatining sharqiy chegaralari hozirgi O‘ratepa shahri atrofida o‘tgan deb faraz qilinadi. Makedoniyalik Aleksandr davrida ham Choch va Farg‘ona vodiysining aholisi mustaqil qolgan.

Olimlar fikriga ko‘ra, O‘ratepa shahri atrofida joylashgan Nurtepa shahar xarobasi o‘rnida mil.avv.VI–IV asrlarda Kurushkata nomli (yunoncha Kiropolis), ya’ni «Kir shahri» joylashgan. Bu shahar mudofaa devorlari bilan o‘ralgan, ammo uning uyjoylari yertulalardan iboratdir. Sug‘d hunarmandchiligi ta’siri asosida Nurtepada kulolchilik charxida yasalgan sopol idishlar ham tarqalgan. Bu shaharga qadimgi sug‘dlar asos solgan bo‘lishlari mumkin.

Toshkent viloyatida (Choch) ilk temir davrida Burg‘ulik (Burganli) madaniyati rivojlangan. Qadimgi qabilalar asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Mudofaa devorlari bilan o‘ralgan yirik shaharlar aniqlanmagan, turar joylar yarim yerto‘lalardan iboratdir. Qadimgi makonlardan qo‘lda ishlangan sopol idishlar, bronza o‘roqlar va tosh qurollar topilgan. Choch viloyati aholisining bir qismini ahamoniylar yozuvlarida tilga olingan «Sug‘diyona narigi yog‘idagi saklar» bilan qiyoslash mumkin.

Mil.avv. I ming yillikning boshlarida Farg‘ona vodiysida Chust madaniyati rivojlanadi. Bu madaniyatni yaratgan dehqonlar yerto‘la, paxsa yoki xom g‘ishtdan qurilgan uylarda yashaganlar. Ba’zi maskanlar mudofaa devorlar bilan o‘ralgan (Chust, Dalvarzin). Dalvarzinda qazib ochilgan devorning qalinligi 4,6 m keladi.

Chust moddiy madaniyati yuksak darajada rivojlangan. Qadimgi yodgorliklarda topilgan tosh va jez o‘roqlar, pichoqlar hamda arpa, bug‘doy, tariq donlari va ular uchun kovlangan o‘ralar chustliklarning asosan dehqonchilik bilan mashg‘ul bo‘lganliklaridan darak beradi.

Qadimgi aholining turmushida temirchilik va kulolchilik katta ahamiyat kasb etgan. Chustliklar yasagan bronza o‘roq, kamon o‘qlarining poykonlari, tosh o‘roq, pichoq va rangli sopol idishlar Marg‘iyona va Baqtriya buyumlariga ancha o‘xshaydi. Dalvarzinda mil.avv. VIII–VII asrlarga oid temir qurollar ham topilgan. Bu ma’lumotlar Farg‘onada temirdan ishlangan buyumlar tarqalganligidan dalolat beradi.

Arxeologik manbalar asosida Farg‘onada mil.avv.VII–VI asrlarda mulkiy tabaqlanish jarayoni, hunarmandchilik, ayriboshlash va savdo aloqalarining keng tarqalishi natijasida urug‘chilik jamoasi o‘rnida dastlabki davlatchilik vujudga keladi deb taxmin qilinadi.

Shu davrdagi Farg‘ona aholisi hayotida katta ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Biroq qadimgi yozma ma’lumotlar bo‘lmaganligi tufayli o‘lkada dastlabki davlatlarga o‘tish jarayoni bizga ancha noma’lum bo‘lib kelmoqda.

2.6. So‘g‘d hududida davlatchilikning vujudga kelishi.

Turli manbalardagi Sug‘da, Sug‘uda, Sug‘diyona nomlarining kelib, chiqishi va ularning ma’nosи hozircha noma’lum. «Avesto»ning Yasht kitobida tilgan olingan “Sug‘d makoni Gava”—Sug‘diyonaning eng qadimgi viloyati bo‘lishi mumkin. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, Gava (Gau) – «buqa», «poda», Qashqadaryo vohasi bilan bog‘lanadi. Bu so‘z viloyatning juda ko‘p geografik nomlaridan takrorlanib saqlangan (Gavdara, Gavxona, tog‘lar Gau, cho‘qqi Gau va boshqalar). Ehtimol, “Gava Sug‘da” atamasida “qudratli Sug‘d” tushunchasi o‘z aksini topgan.

Qashqadaryoda eng kadimgi dehqonchilik bilan shug‘ullangan yirik markazlar va uy–qo‘rg‘onlari qoldiqlari mil.avv. X—VIII asrlar bilan belgilanadi. Shular jumlasidan Sangirtepa, Yangitepa, Chiroqchitepa, Yerqo‘rg‘ondir. Mazkur davrga oid Yasht ma’lumotlari Gava Sug‘da haqida e’lon qiladi.

Qadimgi yunon tarixchilarli Sug‘diyonani Baqtriya yoki sak— massagetlarga nisbatan kamroq tilga olganlar. Makedoniyalik Aleksandr yurishlaridan so‘ng Sug‘diyona haqida ma’lumotlar ancha to‘liq bo‘lib, kengayib boradi.

Sug‘diyona – bu Zarafshon, Qashqadaryo vohalarida joylashib, janubi–sharqda Baqtriya va shimoli–g‘arbda Xorazm bilan chegaradosh bo‘lgan. Qadimgi zamonlarda Sug‘diyona muhim savdo yo‘llarining chorrahasida joylashgan. Sug‘diyona haqida «Avesto», Gerodot va ahamoniylar davri yozuvlari xabar qiladi.

Sug‘diyonaning markazi Maroqanda shahri (so‘g‘d tilida — Smarokansa, «uchrashuv, anjumanlar joyi» deb tarjima qilinadi). Maroqandaning harobalari – bu hozirgi Afrosiyob shahar harobalaridir. Ahamoniylar davrida uning maydoni 219 gektardan iborat bo‘lib, shahar mudofaa devorlari bilan o‘ralgan edi. Yunon tarixchilarining ma’lumotlariga qaraganda, Maroqandaning uzunligi 11 km ga yaqin tashqi devori va qo‘rg‘oni bo‘lgan.

Sug‘diyonaning boshqa shahar markazlari – Qarshi vohasida Yerqo‘rg‘on, Qashqadaryoning sharqiy qismidagi Uzunqir (maydoni 70 ga) va Samarqandan 30 km shimolda joylashgan Ko‘ktepa (maydoni 100 ga) yodgorliklaridir. Bu yodgorliklarda o‘tkazilgan arxeologiya tadqiqotlar qadimgi Sug‘diyona aholisiing xo‘jaligi va madaniyatini chuqurroq o‘rganish imkonini berdi.

Topilgan arxeologiya manbalar Sug‘diyona va Baqtrianing binokorligi, moddiy madaniyatining bir–biriga ancha o‘xhash va yaqin ekanligidan dalolat beradi. Bu o‘xhash keng madaniy munosabatlar taraqqiy etishi asosida paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, so‘nggi ahamoniylar davrida ularni bir o‘lka –satraplik birlashtirgan. Ahamoniylar yozuvlari Sug‘diyonadan Persepol saroyiga lojuvard olib borilganligidan xabar beradi, ammo lojuvard konlari faqat Baqtrianing Badaxshon tog‘larida borligi ma’lum.

Sug‘diyona hududiga odamlar qadimgi tosh asridayoq kirib kelib, undan keyingi davrlarda tog‘, daryo vohalari bo‘ylab keng tarqala boshlaganlar. Qulay tabiiy–geografik sharoitda ibtidoiy xo‘jaliklar va moddiy madaniyat rivojlangan. Tosh davrga

oid arxeologik Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq va Samarqand makonlarida topib tekshirilgan.

Mil.avv. IV–III ming yilliklarga kelib Zarafshon qo‘yi oqimida Kaltaminor madaniyati shaklidagi tosh quollar va sopol idishlar tarqaladi. Bronza davrida Quyi Zarafshon toshqin suvlari irmoqlari hosil qilgan zax yerlarda dehqonchilik rivojlangan.

Bronza davrida yashash hududlari tobora kengayib borganligi, tabiiy boyliklar, yangi konlar, sug‘oriladigan yerlar va keng yaylovlari qadimgi qabilalarga doim zarur bo‘lgaligi haqida Zarafshonning yuqori oqimida joylashgan Sarazm madaniyati dalolat beradi. Sarazm topilmalari – ko‘p xonali uylar, sopol buyumlar, quollar, zeb–ziynat buyumlari va boshqalar mil.avv. IV ming yillikning oxiri – III ming yilikka oiddir.

Chorvador qabilalarga mansub Samarqand yaqinidagi Mo‘minobod, Zarafshon tog‘lari yonbag‘ridagi Sazag‘on, Quyi Qashqadaryodagi Gujayli yodgorliklari topib tekshirildi.

Mil.avv. VII asrga kelib, Sug‘d ziroatchi aholi Sharqiy Qashqadaryo, Quyi Qashqadaryo, O‘rta va Quyi Zarafshon vohalarida joylashgan. Sug‘diyona hududi Nurota va Hisor tizmalarini hamda g‘arbda dashtlar bilan chegarallangan. O‘troq viloyatlar markazlari Uzunqir, Yerqo‘rg‘on va Ko‘ktepa o‘rnida joylashgan. Mil.avv. VIII–VI asrlarda Sug‘d hududida davlatchilik tizimi rivojlangan.

Videvdat kitobida Gava Sug‘da “eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan” ikkinchi yurt sifatida ko‘rsatilgan. Yasht ro‘yxatida Baqtriya tilga olinmagan, ammo Sug‘d Xorazmdan oldin va Marg‘iyonadan keyin aytib o‘tilgan.

Nazorat savollari:

1. O‘zlashtiruvchi xo‘jaliklarga asoslangan urug‘chilik jamiyatining belgilarini ta’riflab bering?
2. Ishlab chiqaruvchi xo‘jaliklarga asoslangan jamiyat haqida so‘zlab bering?
3. Boshqaruv asoslarining vujudga kelishi zaruriyati nimadan iborat.
4. Ijtimoiy boshqaruv nima?
5. Marg‘iyona – Baqtriya sivilizatsiyasi tushunchasini ta’riflab bering.
6. O‘zbekiston hududida ilk davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni qaysi davrda boshlangan.
7. Bronza davriga oid Sopolli va Jarqo‘ton yodigorliklari haqida nimalarni bilasiz?
8. Ilk davlatlar shakllanishining arxeologik belgilariga tavsif bering.
9. Baqtriya podsholigi muammosi qachon ilgari surildi?
10. “Katta Xorazm” haqida qarashlarning xususiyatlarini ta’riflab bering.
11. Qadimiy elat-xorasmiylar haqida ma’lumotlar qaysi manbalarda o‘z aksini topgan?
12. Xorazm vohasida davlatchilik qaysi davrda paydo bo‘lgan?

13. Chust madaniyatiga oid muhim arxeologik yodigorliklarni tavsiflab bering.
14. Farg‘ona vodiysida ilk davlatchiligi tarixiga oid qanday yondashuvlar mavjud?
15. Qaysi davrda Farg‘ona vodiysida davlatchilik vujudga kelgan?
16. Sug‘diyona va Baqtriyaning ilk temir davri iqtisodiy –madaniy aloqalarini ta’riflab bering.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev O‘. O‘rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent: Akademiya, 2009.
2. Asqarov A.A., Shirinov T. Rannyaya gorodskaya kultura v epoxi bronzi yuga Sredney Azii. – Samarqand, 1993.
3. Dyakonov I.M. Vostochniy Iran do Kira // Istorya iranskogo gosudarstva i kulturi. – M.: Nauka, 1971.
4. Isamiddinov M.X. Istoki gorodskoy kulturi Samarcandskogo Sogda. – Tashkent, 2002.
5. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. Otvet.red. Rtveladze E.V., Alimova D.A. T.1. – Tashkent: Uzbekistan, 2009.
6. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiya (tarixiy lavhalar) / Mas’ul muharrir R.X.Sulaymonov. – Toshkent: Mumtoz so’z, 2010.
7. Qudratov S.S. Markaziy Osiyo hududlarida ilk davlatlarning paydo bo‘lishi. – Guliston, 1998.
8. Masson V.M. Perviye sivilizatsii. – L., 1989.
9. Rapoport Y.A. Kratkiy ocherk istorii Xorezma v drevnosti // Priaralye v drevnosti i srednevekovye. – M.: Nauka, 1998. 10. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
11. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE.V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. –Toshkent: Adolat, 2001.
12. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006.
13. Sagdullayev A.S. va boshq. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T., 2000.
14. Samarqand. 2750 / Mas’ul muharrirlar T.Shirinov, SH.Pidayev, M.Qarshiboyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
15. Sarianidi V.I. Margush. Drevnevostochnoye sarstvo v staroy delte reki Murgob. –Ashgabad, 2002.
16. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. Problemi sivilizatsii
O‘zbekistana VII v do n.e. – VII v n.e. – T., 2000.

17. O‘zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2003.
18. Shaydullayev SH.B. Severnaya Baktriya v epoxu rannego jeleznogo veka. – Tashkent, 2000.
19. Shahrисабз. Mingyilliklar meros / Ilmiy muharrirlar E.Rtveladze, A.Sagdullayev. – Toshkent: Sharq, 2002.
20. Eshov B.J. Sug‘diyona tarixidan lavhalar. – T., 2002.
21. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruв tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

3 - mavzu: O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli

REJA:

- 3.1. Ahamoniylar davri boshqaruv tizimi.*
- 3.2. Makedoniyalik Aleksandr davrida davlat boshqaruvi.*
- 3.3. Salavkiylar davrida boshqaruv tizimi.*
- 3.4. Yunon–Baqtriya podsholigi.*
- 3.5. Xorazm, Qang' va Davan davlatlari.*
- 3.6. Yuechji–Kushon va Kushon davlati.*

Tayanch so‘zlar:

Ahamoniylar davri

Siyosiy tarix, Kurush, Kir II, Kurushkat, tashqi bosqinlar, harbiy yurish, Fors podsholigi, Araks, To'maris, qo'zg'olonlar, Frada, Dadarshish, Doro I, sak yurti, Skunxa, Shiroq, ma'muriy–harbiy shaharlar, uy–qo'rg'onlar, mudofaa devorlar, me'morchilik, moddiy manbalar, hunarmandchilik, ziroatchilik, "Amudaryo xazinasi", "uy qullari", "vaysa", "garda", "kurtash", madaniyat, din, Persepol saroyi, hosildorlik, olovga sig'inish, ibodatxonalar, Navruz, marosimlar, oromiy alifbosi, yozuv.

Antik davri

Makedoniyalik Aleksandr, Baqtriya, Sug'diyona, Arrian, Kursiy Ruf, Strabon, "Geografiya" asari, "Aleksandr anabasisi", Oks, kechuv, qo'riqchi qo'shin, Maroqanda, pistirma, changalzor, panagoh, sug'diyalar, Spitaman, yunon–makedonlar, xorasmiylar, Farasmon, Gefestion, Ptolemey Lag, baqtriylar, Artaboz, Bazaira, qo'riqxona, Nautaka, Kiropolis, Yaksart, Aleksandriya Esxata, tarixiy geografiya, qadimgi xalqlar, etnik hududlar, etnik chegaralar, hududiy joylashish, Araks, Oks, yozma manbalar, etnografik ma'lumotlar, Nikshapa, Gabaza, Paritaka. Salavkiylar, Yunon–Baqtriya davlati, moddiy madaniyat, Marg'iyona devori, satrap, podsho, Antiox, Ahamoniylar davlati, oliy sud, ish boshqaruvchi, podsho devonxonasi, moliya boshqaruvchisi, soliqlar yig'imini boshqaruvchisi, xat–hujjatlar ishlarining boshqarUVI, bosh qonun boshqarUVI, qo'shinlar bosh qo'mondoni, yeparxlar, geparxlar, strateglar, polislar, katoykiyalar, Xorazm, turlar, sak qabilalari, apasiak, massagetlar, Orolbo 'yi, Farasman, Xorazm tangalari, Afrig'iylar, Artav va Artamush, Quyi Sirdaryo, Kat, Tuproq qal'a, Qang', qang'ar, yobg'u, chjavou, Qang'desh, Qang'

viloyatlari, ko‘chmanchi, chorvadorlar, usunlar, Davan, Sima Syan, Fragonik, Da-yuan, Ersyi, Yuchen, Qoradaryo, SHo‘rabashot madaniyati, Xitoy bilan munosabatlar, Aravon, Obishir, Motsay,

Van, samoviy otlar, Yuechji – Kushon, Strabon, Pompey Trog, Katta Yuechji, saraukalar, assianlar, Guyshaun, Kanishka, Germey, Kujula Kadfiz, Kushon shaharlari, Dalvarzin, Xolchayon, Talibarzu.

3.1. Ahamoniylar davri boshqaruv tizimi.

Mil.avv. VI asrning ikkinchi yarmida O‘rtal Osiyo viloyatlari ahamoniylar hukmronligi ostiga tushib qolgan.

Erondagagi Ahamoniylar davlatiga mil.avv.558 yilda podsho Kir II asos solgan (forscha Kurush – «podachi» deb tarjima qilinadi). Kir II Eronning «Parsua» (Fors) viloyatining podshosi bo‘lib, Midiya davlati podshosi Astiagga qarshi urush boshlagan. Bu kurashda Astiag yengilgan.

Bundan keyin, Kir II qadimgi Sharqdagi juda ko‘p mamlakatlar ustidan hokimiyatini o‘rnatishni rejalashtirgan. Tarixan qisqa muddat ichida, mil.avv.547–546 yillar davomida, Kir II Kichik Osiyo davlatlarini istilo qildi. Gerodotning xabarlariga ko‘ra, Kir II ning harbiy yurishlariga «Bobil, Baqtriya xalqi saklar va misrliklar to‘sinq bo‘lib turganlar».

Kichik va Old Osiyoda o‘z hokimiyatini o‘rnatish uchun iqtisodiy boyliklarni va harbiy kuchlarni qo‘lga kiritish doim zarur bo‘lgan. Qurok kuchi bilan yangi mamlakatlarni va turli xalqlarni bo‘ysundirish Kir uchun asosiy maqsadga aylangan.

Kir II O‘rtal Osiyoni qay tarzda bosib olganligi haqida aniq ma’lumotlar saqlanmagan. Ayrim qisqa ma’lumotlar Ktesiyning «Persika» asarida bor. Qadimgi yunon tarixchisi aytishicha: «Kir va baqtriyaliklar urushida hech qaysi tomon vakillari g‘alaba qozonmagan». Biroq, baqtriyaliklar, ahamoniylar davlatining harbiy qudrati Sharqda ustunlik qilganidan xabardor bo‘lib, Kir II ga ixtiyoriy bo‘ysunadilar. Kir II va Baqtriya urushlari haqida Ksenofont ham o‘zining «Kiropediya» asarida qisqa ma’lumot bergen.

Gerodot, Kir II ning istilochilik rejalarini ko‘rsatib aytganda, Baqtriyani istilo qilish Bobildan keyin ikkinchi o‘rinda turganligi haqida xabar beradi. Kir II Bobilni mil.avv. 539 yilda o‘ziga bo‘ysundirgan. Demak, 539 yildan keyin Kir II Baqtriyaga hujum qilishi kerak edi. Ammo Kir II O‘rtal Osiyo viloyatlarining iqtisodiy boyliklari va harbiy kuchlariga aniq darajada baho berib, mil.avv. 545–540 yillar davomida O‘rtal Osiyoning janubiy qismiga harbiy diqqatini qaratgan. Shuning uchun Gerodotning ma’lumotlari tarixiy jihatdan birmuncha noto‘g‘ri deb hisoblanadi.

Bobil podsholigi va Misr o‘sha zamonning qudratli davlatlari bo‘lib, ularni istilo qilish uchun maxsus harbiy tayyorgarlik ko‘rish kerak edi. Misrga qarshi yurishdan Kir II voz kechgan va mazkur davlatni uning o‘g‘li (Kambiz) istilo qilgan.

Eronning shimoli-sharqi va O'rta Osiyodagi siyosiy ahvolining o'zgarishi tufayli Kir II Bobilni zabit etish imkoniyatidan ham mahrum bo'lgan. O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari tomonidan ahamoniylar davlatiga qarshi hujum uyuştirish xavfi paydo bo'lib, saklarga qarshi qadimgi fors davlati chegaralaridagi mustahkam qal'alaridan o'z vaqtida fors qo'shinlari tomonidan foydalanish rejalashtirilgan. Shuning uchun ham Bobildan oldin, Kir II Parfiya, Ariya, Marg'iyona, Baqtriya va So'g'diyonani o'ziga bo'ysundirgan. Sirdaryoga yaqin, hozirgi O'ratepa atrofida, Kir II yangi mustahkam qal'aga asos solgan deb faraz qilinadi. Bu Kurushkat (Kir shahri) nomli qudratli qal'a ko'chmanchilarga qarshi istehkom sifatida qurilgan. Kurushkatni (yunoncha Kiropolis) Makedoniyalik Aleksandr mil.avv.329 yilda vayron qilgan.

Mil.avv. 530 yilga kelib, ahamoniylar Hind vodiysidan O'rta Yer dengizigacha bo'lgan hududda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-da, O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar mustaqil bo'lib yashagan. Mil.avv. 530 yilning avgust oyida Kir II massagetlarga qarshi yurish qilgan. Bu harbiy yurish haqidaga qadimgi davr mualliflari – Gerodot va Trog-Yustin ma'lumotlari saqlangan bo'lib, ular bu voqealarni turlichalashtirish uchun qurilganlar.

Geografik jihatdan Kir II ning massagetlarga qarshi yurishlari yo'naliшини aniqo'rghanish muammosi juda ham murakkabdir. O'rta Osiyo ko'chmanchilari Kaspiy dengizi bilan Sirdaryo o'rtasidagi keng o'lkada joylashganlar. Kir II ning qo'shinlari Parfiya chegaralaridano'tib, Amudaryo – O'zboy bo'yalaridayashovchi massaget qabilalarining yurtiga kirib borganlar.

Kir II Araks (Amudaryo) o'zanidan kechib o'tib, massagetlar yerlarining ichkarisiga kirib borgan. Yurishlarining bir kunlik yo'lidan so'ng, fors podshosi ortga qaytgan. Ammo shu joyda, Gerodotning xabariga ko'ra, Kir II o'z qo'shinlarining zaif bir qismini hamda ular bilan birga oziq-ovqatlar zahiralarini va ichimliklarni maxsusqoldirgan. Massagetlarning bir guruhi forslarga hujum qilib, ularniqirib tashlaganlar. G'alabadan so'ng massagetlar sharob ichib uxlab qolganlar. Bundan so'ng sobiq jang maydoniga forslarning asosiy qo'shinlari qaytib kelib, massagetlarning bir qismini joyida o'ldirganlar boshqa birlarini asirlikka olganlar. Ularning orasida To'marisning o'g'li Spargapis ham bo'lgan.

Gerodotning xabarlariga ko'ra, To'maris boshchiligidagi massagetlar fors qo'shinlarini butunlay mag'lubiyatga uchratib, barchasini yo'q qilganlar. Gerodot asarida aytilishicha, massagetlar yo'lboshchisi To'maris, urush maydonidan Kirning jasadini topib kelishni buyurgan va uning boshini kesib, qon bilan to'lg'azilgan meshga solgan.

Bu hikoyada vatanparvarlik, chet el bosqinchilariga qarshi, mustaqillik uchun kurash, ona yer mudofaasi va xalqning jasurligi mavzusi yoritilgan. O'rta Osiyo xalqlari tarixi uchun yuqorida keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Kir II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kambiz o'tirdi. Uning hukmronlik davri, ya'ni mil.avv. 530–522 yillar O'rta Osiyo xalqlari siyosiy tarixi haqida yozma manbalarda hech qanday ma'lumotlar yo'q. Kambiz Misrni istilo qilgan qadimgi fors

podshosidir. Kambiz vafotidan so‘ng mamlakatda katta qo‘zg‘olonlar boshlangan. Bu haqida Doro I (mil.avv.522–486 yillar) Bexistun yozuvida shunday xabar qiladi: «Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg‘iyona, Satgagadiya, Saklar mendan ajralib chiqib ketdilar». Ahamoniylarga qarshi, ayniqsa xalqning katta qo‘zg‘oloni Marg‘iyonada alanga olgan.

Behistun yozuvlarida Doro I xabar qiladi: «Marg‘iyona davlati mendan ajralib chiqib ketdi. Marg‘iyonalik Frada ismli bir kishi viloyatning hokimi deb e’lon qilindi. Keyin men Baqtriya satrapi va menga bo‘ysunuvchi odamim fors Dadarshishni huzurimga chaqirib unga gapirdim: «Menga bo‘ysunmaganlarni tor–mor qilish kerak».

Axuramazda irodasi bilan mening qo‘sishnalarim qo‘zg‘olonchilarni butunlay mag‘lubiyatga uchratdi. Bu jang asiyadiy oyining 23 nchi kunida sodir bo‘ldi. Shundan so‘ng davlat meni qo‘limga kirdi. Mana men Baqtriyada nimalarni qildim».

Mil.avv. 522 yilning 10 dekabrida (qadimgi fors asiyadiy oyining 23 nchi kuni) Dadarshish marg‘iyonaliklarni tor– mor qilgan. Qo‘zg‘oltonni bostirish paytda 55 ming odam o‘ldirilgan va 7 ming kishi asirlikka olingen. Asosiy voqealar quyisi Murg‘obda bo‘lib o‘tgan, buerda Marg‘iyonaning ko‘hna Marv shahri xarobalari saqlangan. Ular jumlasidan Erqal'a mil.avv.VII–VI asrlarda vujudga kelgan. Erqal'a – bu Marg‘iyonaning poytaxti va shuningdek ahamoniylarga qarshi qo‘zg‘oloning markazi deb hisoblanadi.

Behistun yozuvlaridagi oxirgi so‘zlar «Mana men Baqtriyada nimalarni qildim» tushunarli emas, chunki qo‘zg‘olon Marg‘iyonada ko‘tarilgan. Bundan quyidagi xulosani chiqarish mumkin – Marg‘iyonaahamoniylar davridan oldin qadimga Baqtriya podsholigining tarkibiy qismi bo‘lgan yoki qo‘zg‘olondan so‘ng Doro I Marg‘iyonani Baqtriya davlatiga qo‘sib olgan.

Doro I birlashgan davlatni qaytadan tiklaydi. Kir II davridan dunyoning barcha mamlakatlari ustidan xokimlik o‘rnatishga intilgan ahamoniylar yillar davomida juda yirik davlatga asos solganlar. Doro I o‘zidan oldin o‘tgan podsholar siyosatini davom ettirtan. Doro I qabriga qo‘ylganqabrtoshdagi bitiklarda: «Sen Eron jangchisining nayzasi uzoq–uzoq mamlakatlargacha borib yetganini bilib olasan» – deb yozilgan.

Qadimga forslarning O‘rta Osiyo shimoliga yurishlari shafqatsiz yakunlanganligini va Kirning massagetlar qabilalari bilan qattiq jang paytida xaloq bo‘lganligi Doro I ning tashqi siyosatida inobatga olinib, mil. avv. 519 (518) yilda Doro I saklar (saka–tigraxauda)ga qarshi maxsus yurish qilgan.

Doro I xabar qiladi: «Saklarga qarshi men Sak yurtiga bostirib bordim, ularning o‘zları cho‘qqiqlapoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim, daryo kemalaridan ko‘prik qilib, saklar yurtiga hujum qildim. Ularning sardori – Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o‘z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. Shundan so‘ng mamlakat mening qo‘l ostimga o‘tdi».

Doro I sak qabilalari ustidan g‘alabaga erishgan bo‘lsa ham, O‘rta Osiyo xalqlari ahamoniylarga qarshi ozodlik kurashlarini davom ettirganlar. Qadimgi dunyo tarixi muallifi Poliyen, o‘zigacha yetib kelgan hikoyalarga asoslanib, jasur Shiroqtarixi orqali

saklarning ahamoniylarga qarshi qahramonona kurashini hikoya qiladi. Shiroqo‘z jonidan kechib, qadimgi fors qo‘sinchalarini suvsiz cho‘l va sahroning ichkarisiga olib kirib, saklarning makonlarini dushman hujumidan saqlab qoldi, bundan o‘zi ham halok bo‘ldi.

O‘rtal Osiyoning bo‘ysundirilgan hududlari va umuman, zabit etilgan qadimgi Sharq viloyatlari Doro I davrida alohida ma’muriy o‘lkalarga birlashtirilgan. Bu ma’muriy-harbiyo‘lkalarniidora qilgan hokimlarni qadimgi forslar «xshatrapavan», yunonlar esa «satrap»² deb ataganlar (qadimgi fors tilidagi “xshatra” – “viloyat” atamasidan “satrapiya”, “satrapliklar” tushunchasi kelib chiqqan).

Behistun yozuvlari, Gerodot va Ktesiy ma’lumotlari asosida, olimlar Baqtriya satraplari ro‘yxatini aniqlaganlar. Mil.avv. 530–522 yillarda Baqtriya satrapi vazifasini Kir IIning o‘g‘li Smerdis (Bardiya) bajargan (Qambiz podshoning ukasi), 522–486 y. Dadarshish, 486–480 va 480–465 y. Ariamen bilan Masist – Doro I o‘g‘illari, 465–423 y. Artabon Gistasp, mil.avv.335 yilgacha ma’lumotlar yo‘q, 335–329 yillarda Bess – Baqtrianing oxirgi satrapi bo‘lgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan ro‘yxatdagi Baqtriya viloyatini idora qilgan hokimlar to‘rt vaziyatda podsho o‘g‘illari yoki uning aka– ukalaridir. Muhim savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan Baqtriya ahamoniylar davlatida katta iqtisodiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham uni idora qilgan satraplar ahamoniylar sulolasini vakillari edi.

Gerodotning aytishicha, Doro I davlatni 20 ta o‘lka-satrapiyalarga bo‘lgan. Behistun, Naqshi Rustam va Suza yozuvlarida fors podsholigi 24 satraplikka ajratilib ko‘rsatilgan. Behistun yozuvlari ro‘yxatida Baqtriya–16, So‘g‘diyona– 17 o‘rinda ko‘rsatilgan. Gerodotning ma’lumotlariga ko‘ra, Baqtriya–12, saklar– 15, Parfiya, So‘g‘d va Xorazm–16 ma’muriyo‘lka bo‘lgan. Gerodotning «Tarix» asarida satrapliklarning podshoga to‘laydigan soliqlar miqdori keltirilgan.

Doro I ning vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Kserks taxtga o‘tirgan (mil.avv.486 yil). Kserksning tashqi harbiy siyosati Eronni qurol kuchi bilan eng qudratli davlatga aylantirish jarayoni davom etadi. Kserks qadimgi Yunoniston va Yevropa mamlakatlari ustidan hukmronlik qilishi o‘z oldiga muhim maqsad qilib qo‘ygan. O‘rtal Osiyo xalqlari – baqtriyaliklar, xorazmliklar, so‘g‘diylar va saklar Kserks qo‘sinchilari tarkibida yunon – fors urushlarida ishtirop etganlar.

Marafon jangida saklarning otliq qo‘sinchilari nihoyat katta jasurlik ko‘rsatib, yunonlarning jangovar markaziy qismini chekinishga majbur qilganlar. Baqtriya va saklarning chavandozlari ahamoniylar qo‘sinchalaridagi eng jasur qismlaridan biri bo‘lib h isoblangan. Yunon–fors urushlari davrida O‘rtal Osiyo xalqlarining harbiy qudrati katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Kir II dan so‘ng Kambiz ham, Doro I va Kserks ham davlatni qaytadan tiklash va birlashtirishga ko‘pdan-ko‘p harakat qilganlar. Mil.avv. IV asrda so‘nggi

² History of Civilizations of Central Asia. Vol. 2. France. 1996. P. 45-47.

ahamoniylar podsholari Artakserks II, Artakserks III va Doro III to‘xtovsiz urushlarni davom ettirishga majbur bo‘lib, davlatni juda ham zaiflashtirganlar. Bundan tashqari, barcha bo‘ysundirilgan xalqlar o‘z mustaqilliklarini tiklash uchun forslarga qarshi kurash boshlaydilar. Mil.avv. 334 yilda Makedoniyalik Aleksandr, qadimgi Sharqdagi iqtisodiy va siyosiy inqirozlardan foydalanib, Ahamoniylar davlatiga qarshi urush boshlaydi. Mil.avv. 334– 330 yillar davomida Makedoniyalik Aleksandr Fors podshosi Doro III ni tor–mor qilib, O‘rta Osiyo chegaralariga yetib keladi. Shu tariqa ahamoniylarning O‘rta Osiyodagi ikki yuz yillik hukmronligi tarixi tugaydi.

O‘rta Osiyo xalqlari ahamoniylarga juda katta miqdorda soliqlar to‘laganlar. Moliya–soliq ishlari satrap–hokim qo‘lida bo‘lgan. Viloyatlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini satraplar kuzatib borgan. Bo‘ysundirilgan o‘lkalardagi butun idora ishlarini satraplar nazorat qilganlar.

Satrap o‘z o‘lkasida viloyat, tuman hokimlari va qishloq oqsoqollariga tayangan holda boshqaruvni amalga oshirgan. Uning vazifalari satraplikning xavfsizligini ta‘minlash harbiy yurishlar paytida o‘lkadan markazga qo‘sishlar yuborish, yillik soliqlarni belgilangan turlarda va miqdorla yig‘ib, markaziy davlat g‘aznasiga yetkazib berishidan iborat bo‘lgan.

Satrapliklarning boshqaruv tashkilotida turli mansab va lavozimlar mavjud edi. Devonxona boshlig‘i, xazinabon, soliq yig‘uvchi, sud ishlarini yurituvchi, xattot-kotib, xo‘jalik ishlari boshlig‘i shular jumlasidandir. O‘rta Osiyo satrapliklari muayyan miqdorda belgilangan kumush soliqlardan tashqari qishloq xo‘jalik, chorva va hunarmandchilik mahsulotlari shaklida ham soliq to‘lashga majbur edilar.

Soliq yig‘ilishi qishloq oqsoqollari, tuman va viloyat hokimlari zimmasiga tushgan. Soliqlar satraplar saroyi g‘azna omborxonalarida Baqtra va Moroqanda kabi markaziy shaharlarda to‘plangan. Satrap o‘lka miqyosidagi soliqlarning yig‘ib olinishi jarayonini nazorat qilgan. Saroy xazinachisi va hisobchilari tuman va viloyatlardan yetkazib berilgan soliqlar turlari va miqdori asosida iqtisodiy-moliyaviy hisobotlar tayyorlaganlar. Ushbu ma’lumotlar markaziy davlat soliq tashkiloti tomonidan rejorashtirilgan muddatda, maxsus aloqa tizimi hizmatchilari – choparlar orqali fors podshosi qarorgohida jo‘natilgan.

Satrapliklar xazinasidan ma’lum miqdorda aynan satrapning xonadonlari mansabdorlar va harbiylar maosh sifatida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlangan (un, chorva, yog‘, sabzavot, vino, pivo va boshqalar).

Zabt etilgan hududlarni idora qilish maqsadida, podsho buyruqlarini joylarga o‘z vaqtida yetkazish va satraplardan turli ma’lumotlarni tezkor olish uchun, ahamoniylar davlatida maxsus aloqa xizmati tashkil qilingan edi. O‘rta yer dengizi buyidagi Kichik Osiyoda Efes shahridan boshlangan “Shoh yo‘li” qadimgi Fors davlati poytaxtlaridan biri – Suza bilan bog‘langan (masofasi 2470 km). Ushbu yo‘Ining sharqiy tarmoqlari Baqtriya orqali Sugdiyona va Hindistongacha davom etgan.

“Shoh yo‘lida” xavfsizlikni ta‘minlash uchun harbiy istehkomlar va maxsus maskanlar qoshida oziq-ovqat omborxonalari barpo etilgan edi. Har bir 30 km

masofada choparlar uchun dam olish va otlarni almashtirishga imkon yaratilgan. Xizmat safarida davlat ishlarini amalga oshiruvchi mansabdorlar (hisobchilar, harbiylar, tekshirish va nazorat xizmati vakillari) ushbu yo'lda joylashgan omborxonalaridan ozuqa bilan ta'minlangan.

Qadimgi yunon tarixchisi Ktesiyning xabariga ko'ra, Baqtra shahridan davlat poytaxti Suzaga otlangan amaldor o'z xizmat safari davomida har kuni 1 – 1,5 kg un,

1 litr vino yoki pivo hamda ma'lum miqdorda go'sht bilan ta'minlangan.

Davlat miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ma'muriy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida oromiy alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalanilgan. Joylarda turli hujjatlar mahalliy tillarda tarjima qilingan. Xorazm vohasidagi Katta Oybo'irqal'ada mil. avv. V – IV asrlarga oid xum sirtida tig' bilan bitilgan oromiy alifbosiga asoslangan xorazm yozuvi namunasi topilgan. U hajm o'lchovi birligi – "mari" deb o'qilgan (1 mari 16,5 – 17 litrga to'g'ri kelgan). Bu yozuv Xorazm yozuvining eng qadimgi nusxasi hisoblanadi. Oromiy yozuvini mahalliy xorazm tiliga (shuningdek, baqtriya va sug'd tillariga) moslashtirish ahamoniylar davriga to'g'ri keladi.

Yirik o'lkalarning satraplari ahamoniylar sulolasidan bo'lib, fors podshosi nomidan o'z o'lkalarini idora qilganlar. Baqtriya va Xorazm hokimlari huzurida maxsus qal'alar va yirik saroylar bo'lgan. Baqtriya o'lkasining iqtisodiy boyliklari va harbiy kuchlari, satraplarning haddan oshiqli mustaqilligi ahamoniylar podshosiga qarshi qo'zg'olonlar ko'tarishga olib kelgan.

Amudaryo xazinasi tarkibida Eronda va Yunonistonda (Afina shahrida) zarb etilgan tanga pullar bor. Dastlabki tanga pullar esa mil.avv.VII asrda Kichik Osiyo va Afinada paydo bo'lgan. O'rta Osiyo orqali qadimga aloqa va savdo yo'llari turli viloyatlarni birlashtirgan. Badaxshonda boshlangan «lojuvard yo'li», G'arbiy Sibir (Oltoy)dan – «oltin yo'l» O'rta Osiyo hududidan o'tib, O'rta yer dengizigacha yetib borgan. Qadimga yo'llar savdoni rivojalantirish va aloqa xizmatini keng darajadayo'lga qo'yish uchun muhim ahamiyagga ega bo'lgan. Tog' daralari yonida, daryolardan kechib o'tilgan joylarda istehkomlar qurilgan. Amudaryoning o'rta oqimida Odoytepa, Surxondaryoda Talashqontepa, Zarafshon tizmasi yonbag'ridagi Uzunqir va boshqalar shular jumlasidandir. Ular harbiy ahamiyatga ega bo'lgan.

O'rta Osiyoda qulchilik munosabatlari qadimgi Sharq mamlakatlari va qadimgi Yunonistonga nisbatan ancha farq qilib, deyarli rivojlanmagan. O'rta Osiyoda qadimgi qulchilik shakllaridan biri «uy qulchiligi» bo'lgan. Elam va qadimgi fors yozuvlaridagi «kurtash» bilan «garda» so'zları «uy quli» tushunchasini bildiradi. Ular turli iqtisodiy vazifalarni bajargan (misol uchun, «garda–hunarmand», «garda–binokor»lar).

«Uy, xonadonquli» «Avesto»da «vaysa» deb ataladi. «Vaysa» va «garda»lar katta oila jamoasi erkin a'zolari bilan umumiy uyda yashaganlar. «Uy qullarining» mehnat faoliyati hunar kasbi, dehqonchilik, uy chorvachiliga va boshqa ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'langan. Ularning soni jamoaning erkin a'zolariga nisbatan ancha kam bo'lgan. Qishloq jamoalarning iqtisodiy hayotida jamiyat mustaqil vakillarining mehnati – ishlab chiqarishni asosiy rivojlanayotgan kuchi edi.

«Uy qullari» kambag‘allashib qolgan, xonavayron, ish qidirib yurgan mardikorlar va qarzdor jamoa a’zolari bo‘lishlari mumkin edi. Bu kishilarning barchasi jamoaning erkin aholisidan kelib chiqqan va ularning paydo bo‘lishi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning o‘zgarishi bilan uzviy bog‘langan.

Yozma manbalarning xabariga ko‘ra, Kichik va Old Osiyo shaharlarida So‘g‘diyona va Baqtriyadan olib keltingan «kurtash»—«uy qullari»dan binokorlik, toshtaroshlik va qurolozlik ishlarida keng foydalanganlar.

Qullar ahvoliga tushib qolgan odamlar podsho va satraplar ustaxonalarida, saroylarida va yerlarida ham mehnat qilganlar. Eron va Old Osiyoda «kurtash» va «garda»lar xususiy mulkka ega bo‘lmaganlar. O‘rta Osiyoning ijtimoiy vaziyatiga ko‘ra, ular erkin aholining «mulki» bo‘lganligihaqida ham yozma manbalarda aniq ma’lumotlar yo‘q.

3.2. Makedoniyalik Aleksandr davrida davlat boshqaruvi

Aleksandr Makedonskiy faqat zabit etish bilan cheklanmasdan, balki ulkan imperiya barpo etishni, “xalqlar, urf-odatlar, qonunlarning qorishmasidan yaxlit bir xalq, madaniyat yaratish” ni maqsad qilgan edi.

Aleksandr bosib olgan hududlarida davlat idoralari tuzumini o‘zgartirmay, qanday bo‘lsa shundayligicha qoldirgan, faqat o‘zi barpo etgan shaharlarni yunon polislariga o‘xshatib qurgan. Aleksandrning o‘zi olib borgan urushlarini, qon to‘kishlarni xalqlarga ozodoik berish, ularni milliy cheklanishlardan qutqarish bilan izohlagan. Sarkardalariga ham shu fikrni singdirgan. Aleksandr shaxsiyati, xarakterida qarama-qarshi hususiyatlar ko‘p bo‘lgan. Bir tomondan, u o‘z odamlariga mehribon sarkardadek taasurot uyg‘otsa, ikkinchi tomondan, hech qanday e’tirozga chidamaydigan, eng yaqin, unga umr bo‘yi xizmat qilgan (Parmenion, Filoto, Klit, Kallisfen kabi) kishilarni o‘limga mahkum etuvchi zolim shoh.

Aleksandr qanchalar kuchli va tajribali qo‘sishin va lashkarboshilarga ega bo‘lishiga qaramay, Baqtri va Sug‘diyona xalqidan cho‘chib qoladi. Chunki, O‘rta Osiyoning erksevar mahalliy tub joyli aholisining tashqi dushmanga qarshi nafrati kuchli edi. Shuning uchun yunonlar mustamlaka o‘lkalarni boshqarishda barcha zaruriy choralarini ko‘rishga kirishadilar.

Birinchi navbatda istilochilar mahalliy aslzodalar bilan til topishish, ular bilan qon-qorindoshlik iplarini bog‘lash, shu yo‘l bilan mahalliy aqoliga yaqinlashish choralarini ko‘rish zaruriy ekanligiga katta ahamiyat beradilar. Bu masalada Iskandarning o‘zi boshqalarga namuna bo‘ldi. Uning buyrug‘i bilan barcha harbiy boshliqlar, hatto, oddiy jangchigacha mahalliy aholi qizlariga uylanib, qon-qoarindoshlik rishtalarini bog‘lashlari zarur edi.

Sharq va G‘arb birligini yaratish maqsadini ramzi sifatida Aleksandr Suzada ommaviy nikoh to‘yi uyuştiradi. Avvalo o‘zi yuqorida ta’kidlanganidek, mahalliy zodagonning qizi Roksanaga uylanadi. Mil.avv. 324 yilda esa Suzada bir kunda 10

ming jangchi shoh yaqinlari Gefestion, Krater, Ptolomey, Salavk, Perdikka va boshqalar Sharq ayollariga uylandilar.

A.S. Sagdullayevning fikricha, bunday nikohlar aniq siyosiy maqsad – yangi davlatchilik barpo etish g‘oyasi bilan bog‘langan edi. Bu davlat nafaqat turli halqlarning siyosiy birlashmasi bo‘libgina qolmay, balki uning kelajakda makedonlar va Sharq zodagonlari qon-qarindoshligi vorisligiga tayangan davlatga aylanishi rejalashtirilgan edi.

Sharqda Aleksandr boshqaruv faoliyati dastlab Yunonistonning ayrim demokratik an'analariga (harbiy yo‘lboshchilar kengashi, qo‘sishinlar yig‘ini) asoslangan edi. Qo‘sishinlar yig‘inida sud ishlari ko‘rib chiqilib, jinoyat va jazo masalalari qat’iy muhokama qilingan. Podshoga qarshi fitna, xiyonat, isyonga da‘vat etish eng og‘ir jinoyatlar bo‘lib, ushbu jinoyatlar uchun o‘lim jazosi belgilangan. Qatl hukmi qo‘sishinlar yig‘inida qabul qilingan. Sharqqa qilgan yurishlari tugaganidan so‘ng Aleksandr bu hududlarda barpo etgan o‘z sultanatida Ahamoniylar davlat boshqaruvidagi idora-tartib usullarini o‘zgartirmagan. YA’ni, satraplik boshqaruvi va soliqlar yig‘ib olish tizimi deyarli o‘zining ilgarigi holatida saqlab qolingen.

Aleksandr bosib olingan hududlarda mahalliy xalq vakillaridan hokimlarni tayinlagan. Yozma manbalarning ma'lumot berishicha, Aleksandr davrida mahalliy aholi vakillaridan Fratafarn-Girkaniyada, ArtabozBaqtriyada, Oksiart va Xoriyen-Sug‘diyona viloyatlariga hokimlik qilganlar. Mil.avv. 325 yilda Oksiart qo‘l ostiga Paropamis-Hindiqush viloyati topshiriladi.

Yunonlarning O‘rta Osiyodagi hukmronligi Aleksandr Makedonskiy istilosidan boshlanib, qariyb ikki yuz yil to Yunon Baqtriya davlati inqirozigacha davom etdi. Bu davrdagi diplomatik munosabatlarni ikki davrga ajratish mumkin: birinchi davr – Aleksandrning O‘rta Osiyo xalqlari bilan munosabatlari; ikkinchi davr – Salavkiylar va Yunon Baqtriya davri munosabatlari.

Mil. avv. 329 yilda Aleksandr Maroqandda bo‘lgan vaqtida skif – abiylardan, shuningdek, yevropalik skiflardan elchilarni qabul qilgan. Shundan so‘ng Aleksandr do‘stlik niqobi ostida ularga javoban o‘z elchilarini jo‘natgan, ammo asl maqsad skiflar yerlarining tabiatini bilish, aholi soni va qurol-yarog‘ tarkibini aniqlash bo‘lgan. Mil. avv. 328 yilda Yevropa skiflaridan yana elchilar kelgan. Ularning o‘z qizlarini Aleksandr va uning sarkardalariga berish taklifini Aleksandr rad etgan. Bundan tashqari Farasman boshchiligidagi elchilarni ham Aleksandr O‘rta Osiyoda bo‘lgan paytda qabul qilganligi ma'lum.

Shunday qilib, birinchi davr O‘rta Osiyo davlatlari va qabilalari birlashmalarining Aleksandr Makedonskiy bilan turli xil tinchlik shartnomalari va harbiy ittifoqlar tuzishda ifodalangan diplomatik faollikning oshganligi bilan xarakterlanadi.

3.3. Salavkiylar davrida boshqaruv tizimi

Salavkiylar davlatida boshqaruvning murakkabligi sababi bu davlat katta hududlarni qamrab olgan bo‘lib, unda rivojlanish darjasini turlicha bo‘lgan ko‘plab viloyatlar mavjud edi.

Markazdan chetda bo‘lsada, O‘rta Osiyo Salavkiylar davlatning eng muhim qismi bo‘lib, boshqaruv jihatidan bu yerda ahvol birmuncha murakkabroq vaziyatda edi. Birinchidan, bu hududning boshqaruv markazlaridan uzoqligi aloqa qilishda qiyinchiliklar tug‘dirsa, ikkinchidan, Salavkiylar davlati³ chegaralarida joylashgan ko‘chmanchilar doimiy xavf solib turar edi. Mil.avv. III asrdan boshlab ko‘chmanchilarining ko‘chishi boshlanishi natijasida chegaralardagi bu xavf yanada kuchayadi.

Qaram etilgan xalqlarni zo‘ravonlik bilan ushlab turish va egallangan hududlarni boshqarish Salavkiylar davlati oldida turgan muhim vazifalaridan biri edi. Salavkiylar davlati boshqaruv shakliga ko‘ra monarxiya bo‘lib, uni mutlaq hokimiyatga ega bo‘lgan podsho boshqargan. Podsho fuqarolar ma’muriyati oliy boshlig‘i bo‘lib, shuningdek u oliy bosh qo‘mondon, oliy sudya, qonun chiqaruvchi vazifalarini bajargan. Oliy harbiy hokimiyatning podsho ihtiyyorida bo‘lishi, markaziy hokimiyatning ustunligini tahminlash uchun zarur edi. Ammo bu boshqaruv usuli sharqiy viloyatlarda keyinchalik buzilgan bo‘lsada, g‘arbiy viloyatlarda saqlanib qolgan edi. Salavka I «Podsho tomonidan buyurilgan barcha narsalar doimo adolatlidir» degan tamoyilga qat’iy amal qilgan. Salavkiylar sulolasi podsholari bosib olish va hokimiyatni otadan bolaga meros qoldirish kabi huquqlarga ega edilar.

Salavkiylar davlatining nihoyatda katta hududlarni qamrab olganligi ayrim hollarda ma’muriy nazoratning susayib ketishiga sabab bo‘lgan. Manbalarning guvohlik berishicha, bir nechta mahalliy siyosiy uyushmalar (alohida qabilalar, yunon polislari, ibodatxona jamoalari, mahalliy sulolalar) ichki ishlarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilganlar.

Salavka I Aleksandr an’analariiga sodiq qolib, satrapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Salavka I davlati Ahamoniylar va Aleksandr davlatiga nisbatan ancha kichik bo‘lib, hokimiyat satrapiyaga (manbalar 27-28 tadan 72 tagacha satrapiya bo‘lganligi haqida ma’lumot beradi) va nisbatan kichik hududiylar birlashmalar – eparxiya, giparxiya, toparxiyalarga bo‘lingan. Salavkning maqsadi satrapliklarning qudratini pasaytirish va ular ustidan hukmronlikni kuchaytirishdan iborat edi. Ammo Antiox I davrida satrapliklar yana yiriklashtirildi.

Salavkiylar davrida satrap (yoki strateg) mansabidagi shaxs satraplikni boshqaruvchisi hisoblangan. Satraplar podsho tomonidan tayinlangan. Salavkiylar davri satraplari ahamoniylar davridagi satraplardan farqli o‘laroq ham ma’muriy, ham harbiy boshqaruvni qo‘lga olgan. Satraplar qo‘lida katta hokimiyat bo‘lgan, ammo ularda oliy harbiy hokimiyat yo‘q edi. Satrap (yoki strateg) ma’muriy boshqaruvda

³ History of Civilizations of Central Asia. Vol. 2. France. 1996. P. 88-90.

o‘ziga yordamchi tanlagan bo‘lib, u soliq yig‘uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo, xo‘jalik hayotini nazorat qilgan.

Salavkiylar hokimiysi O‘rta Osiyodagi harbiy punktlarda (katoiykiyalar) joylashgan harbiy kuchlarga tayangan edi. Stratoniq, Aleksandr, Giyeraks, Antiox kabi satraplar nomining manbalarda uchrashi, davlat boshqaruvida makedonlar va yunonlar asosiy mansablarni egallaganligidan darak beradi. Boshqaruvida ayrim hollarda mahalliy zodagonlar xizmatidan ham foydalaniqgan. Shuningdek, Salavkiylar davri boshqaruva tizimiga xos hususiyatlardan biri davlatdagagi hukmron shaxs vakillari nasliy tomonidan yunon-makedon va mahalliy zodagonlarning avlodni (aralash nikoh) bo‘lishi lozimligidadir. Zero, Antiox I (Salavka va Spitaman qizi Apamaning o‘g‘li)ning sharqiy viloyatlar boshqaruvini o‘z qo‘liga olishida ham ushbu qarindoshchilik hisobga olingan.

Salavkiylar davlati yaxlit bir xalqdan iborat bo‘lmay, balki turli etnik guruhlarni harbiy yo‘l bilan birlashtirish orqali tashkil topgan edi. Davlat boshqaruving barcha siyosiy, huquqiy va ijtimoiy yo‘nalishlari podsho saroyi bilan bog‘liq bo‘lgan. Podsho saroyi davlat boshqaruvida katta ahamiyatga ega edi. Ahamoniylar davlatida bo‘lgani kabi salavkiylar davlatida ham ko‘pgina davlat ishlarini olib boruvchi devonxona mavjud bo‘lgan. Salavkiylar saroyidagi xat-hujjat ishlarining boshlig‘i lavozimi haqida ma’lumotlar manbalarda uchraydi.

3.4. Yunon–Baqtriya podsholigi

Yunon–Baqtriya davlatining salavkiylardan ajralib chiqishi yunon zodagonlarining qo‘zg‘oloni xususiyatiga ega bo‘lib, unga Baqtriya aholisi tomonidan qo‘llab–quvvatlangan Diodot boshchilik qiladi. Tadqiqotchilar Yunon–Baqtriya davlati paydo bo‘lgan turli sanalarni belgilaydilar (mil. avv.

250–248 yy). Bu davlatning asosi Baqtriya bo‘lib, ba’zi hukmdorlar davrida (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid) Hindistonning shimoli–g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi katta yerlar qo‘shib olinadi.

Baqtrianing salavkiylar davlatidan ajralib chiqishi xususida rimlik tarixchilar Pompey Trog va Yustinda uzuq–yuluq ma’lumotlar saqlangan bo‘lsa–da bu haqda bat afsil ma’lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan mavjud tangashunoslik, ayrim xo‘jalik hujjatlari, san’at yodgorliklari, sug‘orish inshootlari va imoratlar qoldiqlari bergen ma’lumotlar asosida bu davlatdagagi ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayot haqida ma’lum tasavvurlarga ega bo‘lish mumkin. Ammo, Yunon–Baqtriya⁴ davlatining siyosiy tarixi ko‘p hollarda qiyosiy solishtirish va taxminlarga asoslanadi.

Yunon–Baqtriyada davlat podsho tomonidan boshqarilgan bo‘lib, tangashunoslik ma’lumotlari Diodot I, II, III, Yevtidem I, II, Demetriy, Geliokl, Platon kabi podsholari haqida xabar beradi. Salavkiylar kabi Yunon–Baqtriya podsholari ham davlatni satrapliklarga bo‘lib idora etganlar.

⁴ History of Civilizations of Central Asia. Vol. 2. France. 1996. P. 99-100.

Yunon–Baqtriya mulklarining chegaralari doimiy mustahkam bo‘lmasdan, harbiy–siyosiy vaziyatdan kelib chiqib o‘zgarib turgan. Mil.avv. III asrning oxirlari O‘rta Osiyo janubidagi harbiy–siyosiy vaziyat haqida Polibiy ma’lumotlar beradi. Uning yozishicha, salavkiylar tomonidan Baqtrada qamal qilingan Yevtidem ularning hukmdori Antiox III ga «chegarada ko‘chmanchi qabilalar turganligi va ular chegaradan o‘tadigan bo‘lsa har ikkala tomonning ham ahvoli og‘ir bo‘lishi mumkinligini» bildiradi. Polibiy ma’lumot bergen ushbu ko‘chmanchilar mil.avv. III asrning oxirlarida Zarafshon daryosiga qadar deyarli butun Sug‘dni egallagan bo‘lib, bu hududlar Yunon–Baqtriya davlatining vaqtinchalik shimoliy chegarasi bo‘lib qoladi. Shuningdek, Hisor tog‘lari ham shimoliy chegaralar bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Yunon–Baqtriya davlatining gullab yashnagan davri mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi va II asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Janubiy hududlardagi bu davrga oid Jondavlattepa, Oyxonim, Qorabog‘tepa kabi yodgorliklardan hokimlar saroylari, ibodatxonalar, turar–joylar, mehnat va jangovar quollar, turli hunarmandchilik buyumlari hamda ko‘plab tanga pullarning topilishi bu hududlardagi ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon–Baqtriya markazlashgan davlat bo‘lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat bir nechta viloyat (satrapiya) larga bo‘lingan bo‘lib, bu viloyatlar boshqaruvchilari yoki hokimlari podshoga bo‘ysunar edilar. Ammo, bu davrda davlatda nechta satrapiyalar bo‘lganligi va ular qanday nomlanganligi ma’lum emas. Strabon ma’lumotlariga ko‘ra, satrapiyalarga noib satraplarni tayinlashda qarindoshchilik an’analariga amal qilingan bo‘lishi mumkin.

Yunon–Baqtriya podsholigi davlat tuzilishining muhim tomoni – qo‘sishin va uni tashkil etish edi. Avvalo, ta’kidlash lozimki, yunon–baqtriya qo‘sishinlarining katta qismini baqtriyaliklar va boshqa mahalliy aholi tashkil etgan. Qo‘shtinning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari otliq– suvoriylardan iborat bo‘lgan. Qo‘sishinlar tarkibida harbiy fillar ham bo‘lgan.

O‘z vaqtida V.V. Grigoryev Baqtriyadagi yunon hokimiyati yagona monarxiya tomonidan amalga oshirilmay davlatlar uyushmasi (ittifoqi) tomonidan amalga oshirilgani, dastavval, nisbatan kuchlilar, ular orasidan «baqtriyaliklar», keyin esa «ularga tobe bo‘lganlar» haqidagi konsepsiyanı ilgari surgan edi. Hozirgi vaqtda ko‘pchilik tadqiqotchilar Yunon–Baqtriya podsholarining boshqargan hududlari shimoliy Afg‘oniston, janubiy O‘zbekiston va Hindiqushdan janubdagagi ayrim viloyatlar bo‘lganligini e’tirof etadilar. Bu hududlardagi markazlashgan davlatda Diodot I, keyin esa Yevtidem I (ya’ni, mil.avv. III asrning ikkinchi yarmi) davrlarida kuchli podsho hokimiyati mavjud edi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragidan boshlab Yunon–Baqtriya podsholigining inqiroziga qadar davlatda mutlaq birlik va barqarorlik bo‘lmagan.

3.5. Xorazm, Qang‘ va Davan davlatlari.

Xorazm vohasini o‘rab olgan dashtlarda ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi chorvador qabilalari istiqomat qilgan. Ular Sharqiy Kaspiybo‘yi va Orolbo‘yi oralig‘idagi Quyi Amudaryoning Kaspiy dengiziga qo‘yilgan Uzboy o‘zani sohillarida va Quyi Sirdaryoning eski o‘zanlari (Inkardaryo, Quvandaryo) atroflarida joylashgan.

Chorvadorlar bu hududlarda juda erta paydo bo‘lganlar. Adabiyotlarda mil. avv. IX–VIII asrlarga oid chorvador sardorlari va oqsoqollari dafn etilgan Tagiskeen maqbalari “Avesto”da tilga olingan “tura” – turlar madaniyati bilan qiyoslanib, Inkardaryo havzasida Qang‘ha viloyatining markazi joylashgan degan fikr o‘rtaga tashlandi. Mil. avv. VIII – VII asr chegarasida Quyi Sirdaryo hududidan kelib chiqqan ilk saklar quyi Amudaryoning so‘l sohil yerlarida joylashadi, shuningdek, ularga qo‘shni dashtlarda massagetlar yoyilgan. Keyingi davrlarda sharqiy Orolbo‘yi hududlarida turli sak qabilalari: apasiak, sakavarka, augasiy va toxarlar yashagan. Ular va Xorazm vohasi aholi o‘rtasida iqtisodiy – madaniy aloqalar rivojlangan.

Ushbu mavzuning tarixiy jihatlarini o‘rganish jarayonida talabalar quyidagi holatlarga e’tibor berishlari lozim:

- Xorazm mil. avv. V– IV asr chegarasi yoki mil. avv. IV asr boshlarida Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqib, mustaqil davlat sifatida rivoj topdi;
- Xorazm Salavkiylar va Yunon–Baqtriya davlatlari hamda Kushon sultanati tarkibiga kirmadi;
- Xorazm Kang‘ davlatining tarkibiy qismi va uning markazi bo‘lmagan; - Xorazm tarixida Qang‘, Kanguy madaniyati, davri hukm surgan degan qarashlar eskirib, ilmiy adabiyotlarda rad etildi.

Antik davri Xorazm davlatining boshqaruv shakli podsho hokimiyatidan iborat edi. Arrianning asarida Aleksandr xuzuriga yetib kelgan Farasman “xorazmliklarning podshosi” deb atalgan. Farasman kelib chiqqan sulolaning nomi fanda ma’lum emas. Mil. avv. IV–III asrlarga oid Xorazm tangalari topilmagan. Bu davrda Xorazm davlatining hududiy chegaralari va ta’sir doirasi Janubiy Orolbo‘yi, O‘rta Amudaryo va Sharqiy Kaspiybo‘yi yerlari bilan belgilangan. Ehtimol, bu davrda Uzboy orqali Kaspiy dengiziga suv yo‘li xorazmliklar nazoratida bo‘lgan.

Mil. avv. II asr oxirlaridan Xorazm podsholari Yunon–Baqtriya podshosi Yevkratidning tangalariga o‘xshatib, o‘z kumush tangalarini zarb eta boshlaganlar. Bu tangalarda podsho–chavandoz tasvirlangan. U ko‘chmanchi qabilalarning ramzi bo‘lib, mil. avv. II asrda Xorazmga kirib kelgan yuechji – toxarlar sardorlarining hukmronligini aks etadi. Ammo, mazkur hukmronlarning ismlari noma’lum.

Milodiy I asrda davlatda yangi sulolaning hukmronligi boshlanadi. I–III asr boshlariga oid mis tangalaridagi yozuvlarida hozircha bu sulolaning ikki vakili – Artav va Artamush ismlari o‘qilgan.

Afrig‘iylar sulolası taxtnı qo‘lga kiritishi haqida Beruniy ma’lumot keltirgan. Mazkur voqeа 304–305 yillarga to‘g‘ri keladi deb an’anaviy hisoblanib kelgan. Biroq, bu yil sanasiga nisbatan numizmatika (tangashunoslik) materiallari asosida yangi yondashuv vujudga keldi (E.V.Rtveladze). Unga ko‘ra, sulolaning birinchi podshosi Vazamar (Afrig) edi. Vazamar – bu podsho ismi, Afrig‘ esa – oila, urug‘ning nomidir. Shu boisdan, sulolani Vazamariylar (Afrig‘iylar) deb atash taklif qilindi. Agar podsho Vazamarning hukmronligi boshlang‘ich yil sanasi inobatga olinsa, Vazamariylar (Afrig‘iylar) xorazmshoh Ma’munga qadar Xorazmda 600 yildan ziyod hukmronlik qilganlari aniqlanadi.

Xorazm vohasi antik davri tarixini o‘rganishda Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi xodimlari ulkan xissa qo‘shganlar (S.P.Tolstov, A.V.Andrianov, M.G.Vorobyeva, Y.A.Rapoport, B.I.Vaynberg). Ularning izlanishlari va kashfiyotlari tufayli, Xorazm sivilizatsiyasi, qadimi shaharlari, moddiy va ma’naviy madaniyat obidalari butun jahonda mashhur bo‘ldi. XX asrning 90– yillari va XXI asr boshlarida o‘zbekistonlik qadimshunoslarning Xorazmdagi yangi arxeologik tadqiqotlarini qayd etib o‘tish lozim (M.Mambetullayev, V.N.Yagodin, G.Xodjaniyazov, Q.Sobirov, S.Baratov, A.Abdirimov).

Antik davr O‘zbekiston hududlarida taraqqiy etgan davlatlardan biri – Qang‘ davlatidir. Qadimgi Xitoy manbalarida Qang‘ davlati mavjud bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar mil.avv. II asrga to‘g‘ri keladi. Qang‘ davlati mil. avv III asrning boshlarida paydo bo‘ladi. Yunon–Baqtriya davlati va qo‘shni ko‘chmanchi qabilalar bilan bo‘lgan kurashlar natijasida Qang‘ davlati yanada mustahkamlanadi hamda manbalarda O‘rta Osiyodagi yirik davlatlardan biri sifatida tilga olinadi. Davlatning nomi “qang”, “qang‘ar”, “qang‘uy” deb nomlanuvchi qabilaning nomidan olingan bo‘lib, etimologiyasi munozarali hisoblanadi.

Qang‘ davlati assosini tashkil etgan qabilalar Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlarida istiqomat qilganlar. Davlat tashkil topgan dastlabki davrda uning hududi asosini Toshkent vohasi tashkil etgan. Tashqi harbiy hujumlar tufayli Qang‘ davlati nafaqat mustahkamlanib oladi, balki o‘z chegaralarini ham kengaytirib boradi. YA’ni, mil.avv. II va milodiy I asrda Qang‘ davlatining hududi ancha kengayib Toshkent vohasi, O‘rta Sirdaryo yerlari, Talas vodiysi va Chu daryosining quyi oqimidagi yerlarni o‘z ichiga olar edi.

Qang‘ davlati haqida bizgacha yetib kelgan manbalarda bu davlat hokimiyati qanday idora qilingani, boshqaruv tartibi va shakllari haqida aniq ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Katta Xan sulolası tarixida (mil. avv. 202–mil. 25 yy) Qang‘ podshosi o‘z oqsoqollari bilan maslahatlashib ish tutganligi haqida ma’lumot beriladi. Bundan xulosa chiqargan tadqiqotchilar o‘scha davrda tashkil topgan Qang‘ davlatida kengash muhim rol o‘ynaganligini, davlat kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol qatnashganliklarini hamda ularning fikri hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlaydilar. Demak, o‘scha davrlarda podsho saroyi qoshida kengash mavjud bo‘lib,

podshoning ichki hamda tashqi siyosati va boshqa barcha davlat ishlari va boshqaruvi bilan bog‘liq masalalar ana shu kengash yig‘ilishida hal qilingan.

Qang‘ davlatiga qarashli yerlar bir nechta viloyatlarga (yoki mulklarga) bo‘lingan bo‘lib, ularning har birini jobg‘u yoki yobg‘u (qad. Xitoy manbalarida – chjaovu) deb nomlangan xokimlar boshqargan. Jobg‘ular mamlakat boshqaruvida Qang‘ podsholarining asosiy tayanchi hisoblangan. Jobg‘ular podsholarga yaqin kishilardan, ularning qarindoshlaridan, yirik urug‘-qabila boshliqlaridan tayinlangan.

O‘rta Osiyoning sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg‘ona antik davr tarixida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan edi. Farg‘ona haqida yunon–rim mualliflari ma’lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma’lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma’lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolası tarixi» asarlari beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da–van» nomi ostida eslatiladi. Farg‘ona so‘zi Sug‘d manbalarida «Fragnik» shaklida yozilib «tog‘lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma’nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog‘lar orasidagi vodiy» ma’nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo‘yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so‘nggi yillarda o‘zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo‘jayev, B.Matboboyev, A.Anorboyev, S.Qudratov, B.Abulg‘oziyeva, B.Abdullahayev, Abduholiq Abdurasul o‘g‘li kabilar arxeologik ma’lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo‘lishlariga qaramay, bu yo‘nalishda hali ko‘pgina masalalar o‘z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari, mahalliy madaniyatning qo‘shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg‘ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo‘lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o‘ziga xos sug‘orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Ilk temir va antik davrga kelib Farg‘onada mahalliy madaniyatlar an‘analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatları butun vodiysi qamrab oladi va aholining o‘troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg‘ona vodiysida shaharsozlik madaniyat keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg‘ona vodiysi orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘li tarmoqlari bo‘ylab Axsikent, Marhamat, Qubo, Marg‘ilon, Bob (Pop) kabi ko‘hna shaharlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun ham mil.avv. II asrga oid Xitoy manbalari Farg‘onada 70 ta katta–kichik shaharlar borligi haqida ma’lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo‘lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo‘q. Ular O‘zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo‘qon, Koson, Axsikent, O‘ratepa yoki Jizzax o‘rnida joylashtiriladi.

Eng qadimgi yozma manbalar O‘rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma’lumotlar bersada, Farg‘ona haqida bunday ma’lumotlar uchramaydi.

Shunga qaramasdan Y.A.Zadneprovskiy Qadimgi Farg‘ona (Davan) podsholigining mavjud bo‘lganligini taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming yillikning o‘rtalaridan oldingi davrdagi Farg‘ona haqida so‘z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo‘lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg‘onada davlatchilik, aftidan, mil. avv V–IV asrlarda paydo bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (SHo‘rabashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning o‘sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Farg‘onada ko‘p sonli shaharlar mavjudligi haqida ma’lumotlar bor.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg‘ardan Davanga shimoliy yo‘ldan karvon yo‘li harakati boshlanadi. Bu yo‘ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko‘paya boshlaydi va ko‘plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo‘ladi. Savdo yo‘lida Davan muhim ahamiyatga ega bo‘lib boradi. Yassa va Qoradaryo vohalarida ko‘pgina qal’alar savdo yo‘lini qo‘riqlash maqsadida barpo etilgan.

Mil.avv. 125 yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug‘orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo‘jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko‘radi. Chjan Syan Davanning qishloq xo‘jaligi haqida ma’lumot berib, shunday yozadi: «O‘troq aholi yer haydaydi, g‘alla va sholi ekadi, ularda musallas navli uzum, juda ko‘plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida uzum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonadonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o‘n yillarda ham buzilmay saqlanadi». Shuningdek bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo‘st, ko‘ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma’lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg‘onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o‘zлari uchun notanish bo‘lgan beda va uzum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma’lumot bor: «Xitoy elchisi urug‘ keltirdi, shunda osmon farzandi (Xitoy imperatori) unum dor yerga beda va uzum ekdi». Davanliklarning bog‘larida uzumdan tashqari anor, o‘rik va boshqa mevali daraxtlar ko‘p bo‘lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo‘lishini Davan bilan bog‘laydilar.

Xitoy manbalari, shuningdek, qadimgi Farg‘ona chorvachiligining o‘ziga xos tomoni bo‘lgan yilqichilikning yuqori darajada rovojlanganligi haqida ham ma’lumotlar beradi. Davan davlati antik davrda mashhur zotdor otlari bilan shuhrat qozongan edi. Manbalardan ma’lum bo‘lishicha, ularni yetishtirish bilan o‘troq aholi shug‘ullangan. «Davanda yaxshi otlar bo‘lib, ular Ershi shahridadir, otlarni yashiradilar va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lmaydilar». Davanning mashhur «samoviy otlari» tasvirlari tushirilgan qoyatosh suratlari bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan.

Xususan, O'shdan 8 km uzoqlikdagi Ayrimchatovning qoya adirlarida 30 ta chirolyi zotdor otlarning tasvirlari bor. Xuddi shunga o'xhash tasvirlar Marhamat yaqinidagi Aravon qoyasidan, Navqat vohasi va Obishirsoydan ham topilgan. Bu tasvirlar Davan o'zining samoviy otlari bilan qadimdan mashhur bo'lganligini tasdiqlabgina qolmay, farg'onaliklarning yuksak san'at sohiblari bo'lganliklaridan ham dalolat beradi. Manbalarning guvohlik berishicha, qo'shni davlatlar, xususan, Xitoy imperatorlari Davan otlarini nihoyatda qadrlaganlar.

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchi hukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilanish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, Chan Fin, Mug'ua, Yan'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. Yagona hukmdor bo'lgan podsho, ya'ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bitta katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu jarayonda oqsoqollar kengashining ham ahamiyati kam bo'lman. Oqsoqollar urush va sulk tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, ba'zan ular hukmdorning taqdirini ham hal qilganlar. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiyo'voz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan.

3.6. Yuechji–Kushon va Kushon davlati.

Tarixiy manbalar Yunon–Baqtriya davlati ko'chmanchi qabilalar tomonidan tor–mor etilganligi haqida ma'lumot beradi. Strabon ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriyani assiylar, passianlar, toxarlar, saklar qabilalari bosib oladilar. Pompey Trog xabar berishicha, – “Baqtriya va Sug‘diyonaning skif qabilalari saraukalar va assianlar bosib oladilar”. Aslida esa har ikkala tarixchi ham bitta qabila haqida ma'lumot bergen.

Qadimgi Xitoy manbalarida Baqtriyani yuechji qabilalari bosib olganligi haqida ma'lumot beriladi. Mil.avv. II asrning ikkinchi choragida (tadqiqotchilar bu sanani mil.avv. 172–161 yillar oralig‘ida deb belgilaydilar) yuechjilar xunnlardan mag'lubiyatga uchraganidan so'ng O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida ko'chib yuradilar. Bu qabilalar Xitoy manbalarida “Da–yuechji” – “Buyuk” yoki “Katta yuechji” deb eslatilinadi. Chjan Szyan ma'lumotlariga ko'ra, yuechjilar xunn qabilalaridan mag'lubiyatga uchragach O'rta Osiyoning janubiga tomon harakat qilib, Dahya (Baqtriya)ni bosib oladilar va Guyshuy (Amudaryo)ning shimoliy tomonida joylashadilar. Katta Xan uyi tarixida ham yuechjilar Guyshuy daryosining shimoliy tomonida o'z poytaxtlariga asos solganliklari ta'kidlanadi.

Yuechjilar mil.avv. 140–130 yillar oralig‘ida Baqtriyaga bostirib kirganlar. Oradan ko'p o'tmay Baqtriyada Katta yuechji davlati tashkil topadi. Kichik Xan uyi tarixi ma'lumotlariga ko'ra, Katta yuechji hukmdorlari qo'l ostida beshta xokimlik (Xi–xeu) bor bo'lib, ular Xyumi, Shaunmi, Guyshuan, Xise va Dumilardan iborat edi.

Xitoy manbalaridan xulosa chiqargan ko‘pchilik tadqiqotchilar Baqtriya tarixidagi butun yuechji davrini uch bosqichga bo‘ladilar:

1. Mil.avv. 139–125 yillar – Katta yuechji Dahya viloyatini bosib oladi, ammo ularning asosiy mulklari Amudaryodan shimol tomonda edi.

2. Mil.avv. 25 yilga qadar – Katta yuechji davlatining shakllanishi va keyingi rivojlanishi. Davlatning poytaxti Amudaryodan shimol tomonda bo‘lib, janubiy chegarasi Gibin atroflarida (Kashmir yoki Qandahor) edi.

Yuechjilar bo‘ysundirgan hududlar Xise, Shaunmi, Guyshuan, Xyumi, Dumi mulklaridan iborat bo‘lib, ular xi–xou (yabg‘u) tomonidan birlashtirilgan.

3. Mil.avv. 25 yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo‘lishi. Kushon (Guyshuan) yabg‘usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to‘rtta mulkni birlashtirib Kushon davlatiga asos soldi.

Ta’kidlash lozimki, madaniy va ijtimoiy–iqtisodiy tarixga nisbatan Kushon davlatining siyosiy tarixi kam o‘rganilgan masala hisoblanadi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma’lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma’lumotlar va ilk o‘rta asrlar manbalariga asoslanadi. Tadqiqotchilar Kushon davlati tarixini quyidagi uchta bosqichga ajratadilar:

1. Yunon–Baqtriya podsholari hukmronligining tugatilishi hamda O‘rta Osiyo va Shimoliy Afg‘oniston hududlarida bir nechta alohida davlat uyushmalarining tashkil topishi (mil.avv. II asrning oxiri – I asr).

2. Buyuk Kushon davlatining paydo bo‘lishi va gullab yashnashi (milodiy I–III asrlar).

3. Ko‘chmanchilarning tinimsiz urushlari natijasida Kushon davlatining inqirozi va qulashi (III asr oxiri – IV asr).

Kushon davlatining paydo bo‘lishi haqida ko‘proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma’lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar sultanatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo‘lgan bo‘lsada, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga ko‘plab aniqliklar kiritish imkonini bergen tadqiqotlar olib borildi. Ayniqsa, 1961 yil Londonda o‘tkazilgan xalqaro simpozium, 1968 yil Dushanbeda o‘tgan YUNESKO konferensiyasi, 1970 yil Kobuldagagi xalqaro anjuman Kushon davlati masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, undan keyin ham bu masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro anjumanlar bo‘lib o‘tdi.

Mil.avv. I asrning oxiri – mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Kobuliston va Qandahorni zabit etadi. Natijada bu davrga kelib dastlabki poytaxti Surxon vohasidagi Dalvarzin ko‘hna shahri xarobalari bo‘lgan Kushon davlati o‘z ahamiyatiga ko‘ra antik davr Xitoydagi Xan davlati, Parfiya podsholigi, Rim sultanati bilan raqobatlasha oladigan qadimgi dunyoning eng qudratli va zabardast davlatlaridan biri sifatida tashkil topdi. Xitoy

manbalaridagi “Guyshuan hokimi Kiotszyukyu”, ilk Kushon davriga oid topilma tangalar aks ettirilgan “Kushon podshosi Kujula Kadfiz”ga aynan mos tushadi.

Tangashunoslik ma’lumotlariga tayangan tadqiqotchilarining fikricha, Kujula Kadfiz yoki Kadfiz I 80 yildan ziyodroq umr ko‘rib 50–60 yil davlatni boshqarib, taxminan milodiy 35 yilda vafot etadi. O‘zining hukmronligi davrida Kadfiz I Baqtriyadagi uncha katta bo‘lmagan yuechji mulklari hukmdoridan Baqtriyadan tashqari g‘arbiy va janubiy Afg‘oniston va shimoliy Hindistonni o‘z tarkibiga olgan qudratli davlatning podshosi darajasiga ko‘tariladi. Ammo, manbalarning guvohlik berishicha Kadfiz I davrida Kushon davlati to‘la shakllanib bo‘lmagan edi. Har holda, bu davrda Kushonlar o‘z tangalariga ega bo‘lmay, Kadfiz I Rim imperatorlariga (Avgust va Tiberiya) taqlid qilib tanga zarb ettirgan.

Manbalarning dalolat berishicha, Kujuladan keyin taxtga uning o‘g‘li Vima (Gima) Kadfiz (Kadfiz II) o‘tiradi. Xitoy mualliflari Kadfiz II taxtga o‘tirganidan so‘ng “Tyanchju (Markaziy Hindiston)ni zabt etdi va u yerga o‘z sarkardalaridan birini boshqarish uchun qoldirdi. Shu davrdan boshlab yuechji kuchli va boy davlatga aylandi”, deb xabar beradilar. Bu xabarni tangashunoslik ma’lumotlari ham ta’kidlaydi. Kadfiz II zarb ettirgan tangalarning o‘ng qirg‘oq Baqtriyadan, Tojikiston va O‘zbekistonning janubiy tumanlaridan topilishi bu hududlarning Kushon davlati tarkibiga kirganligidan dalolat beradi. Tangashunoslarning so‘nggi yillardagi tadqiqotlariga ko‘ra, Kadfiz II zarb ettirgan “Shohlar shohi – buyuk xaloskor” degan yozuv bor tangalar Hindiston, Afg‘oniston va O‘rta Osiyoda keng tarqalgan. Bunday tangalar Ashxobod, Xorazm, Toshkent vohasi, Surxondaryo, Qashqdaryo, Panjikent hududlaridan ham topilgan. Kadfiz II ning Rim sultanati bilan aloqalar o‘rnatganligi haqida ma’lumotlar bor.

Kushon podsholari ichida eng mashhuri Kanishka hisoblanadi. Uning hukmronligi davrida Kushonlar sultanati gullab–yashnashining yuqori cho‘qqisiga ko‘tariladi. Kanishka davrida Panjob, Kashmir viloyatlari mamlakatga qo‘sib olinadi. Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, davlatning poytaxti Dalvarzindan Peshovar (Afg‘oniston) atroflariga ko‘chiriladi. Bu davrda (mil. II asr) mamlakatning hududi Shimoliy Hindiston, Afg‘oniston, O‘rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkmanistondan iborat edi. Syuan Szyanning yozishicha, “Kanishka podsholik qilgan davrda uning shon shuxrati qo‘shti mamlakatlarga yoyildi. Mamlakatning harbiy qudrati ko‘pchilik tomonidan tan olindi. Xitoyning g‘arb tomonidagilar ham Kanishkaning hokimiyatini tan olib, unga o‘z garovga qo‘ygan odamlarini yuborar edilar”.

Kushon podsholigi ruhoniylar qo‘lidagi davlat bo‘lib bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh kohin ham hisoblangan. Podsholik satrapiyalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning noiblari podsho tomonidan tayinlangan. Kushon podsholigi markazlashgan davlat hisoblanib, davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati nihoyatda katta bo‘lgan.

Nazorat savollari:

1. Siyosiy tarix deganda nimani tushunasiz?
2. Kir II ning O'rta Osiyoga yurishlari qachon boshlangan?
4. Forslar va To'maris boshchiligidagi massagetlar jangi haqida gapirib bering.
5. Doro I ning Marg'iyanada Frada qo'zg'olonini tor-mor etishi va saklarga qarshi yurishini ta'riflang.
6. Ahamoniylar davridagi satraplar nima?
7. Mil.avv. VI-IV asrlarga oid O'rta Osiyoning iqtisodi va ijtimoiy tuzumi masalasiga doir qisqa referat tuzing.
8. Ahamoniylar davri madaniyati va dini to'g'risida nimalarni bilasiz?
9. Makedoniyalik Aleksandrning yurishlari qaysi yunon-rim mualliflarning asarlarida o'z aksini topgan?
10. "Aleksandr anabasisi" nimani anglatadi?
11. Salavkiylarning hokimiyat tepasiga kelishi to'g'risida nimalarni bilasiz?
12. Salavkiylarda davlat boshqaruvi qanday kechgan?
13. Yunon-Baqtriya davlati qanday paydo bo'ldi?
14. Yunon-Baqtrianing davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
15. "Ellinlashgan Sharq" tushunchasiga izoh bering.
16. Xorazm davlatining tarixiy jihatlarini o'rganishda nimalarga e'tibor berish lozim?
17. Afrig'iylar sulolasini haqida nimalarni bilasiz?
18. Xorazm shaharsozligi va me'morchiligi to'g'risida gapirib bering.
19. Qang' davlati haqida umumiy ma'lumot bering.
20. Qang' davlatining hududi, boshqaruvi va etnik munosabatlari qanday edi?
21. Davanda davlatchilik paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
22. Davandagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot qanday kechgan?
23. Katta yuechji haqida nima bilasiz?
24. Kushon davlati tarixi nechta bosqichga ajratiladi?

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Alimova D.A., Filanovich M.I. Toshkent tarixi (qadimgi davrdan bugungi kungacha). – Toshkent, 2009
2. Bikerman E. Gosudarstvo Selevkidov. – M., 1985.
3. Buryakov Y.F. Genezis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa. – Tashkent: Fan, 1982.
4. Vaynberg B.I. Etnogeografiya Turana v drevnosti. – M.:
Vost.lit.RAN, 1999.
5. Vidayushiyesya pamyatniki arxeologii Uzbekistana / Nauch.red.
- E.V.Rtveladze. – Tashkent, 2013.
6. Dandamayev M.A. Politicheskaya istoriya axemenidskoy derjavi. – M.: Nauka, 1985.
7. Dandamayev M.A., Lukonin V.G. Kultura i ekonomika drevnego Irana. – M.: Nauka, 1980.
8. Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. Tom I. – Tashkent:
Uzbekistan, 2009.
9. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar / Mas’ul muharrir A.S.Sagdullayev. – Toshkent: Sharq, 1998.
10. Masson V.M. Kulturogenez Drevney Sentralnoy Azii. – Spb.: Izdvo Spb.Un-ta, 2006.
11. Masson V.M. Sivilizatsii drevnego Xorezma (etapi i puti samoidentifikatsii). IMKU. – Samarkand, 1999. Vip.30
12. Matbobayev B.X. Ferganskoye gosudarstvo Davan // Istorya gosudarstvennosti Uzbekistana. T. I. – Tashkent, 2009.
13. Matboboyev B.X. O’zbek davlatchiligining ilk bosqichlarida Farg’ona. //O’zbek davlatchiliqi tarixida qadimgi Farg’ona. Ma’ruza matnlari. – Namangan, 2001. – 23–40 bb.
14. Nasimxon Raxmon. Turk hoqonligi. - Toshkent, 1993.
15. Pyankov I.V. Baktriya v antichnoy traditsii (obshiyе danniye o strane: nazvaniya i territoriya). – Dushanbe: Donish, 1982.

16. Rapoport Y.A. Nerazik YE.YE. Levina L.M. V nizovyax Oksa i Yaksarta. Obrazi Drevnego PriaralY. – M., 2000.
17. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
18. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstvo, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent, 2005.
19. Rtveladze E.V. Aleksandr Makedonskiy v Baktrii i Sogdiane. – Tashkent, 2002.
20. Rtveladze E.V., Livshits V. Pamyatniki drevney pismennosti. – Tashkent: Uzbekistan, 1985.
21. Sagdullayev A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
22. Sagdullayev A. Poxod Aleksandra Makedonskogo v Sogdianu. – Tashkent: Uzbekistan, 2009.
23. Samarqand. 2750 / Mas’ul muharrirlar T.Shirinov, SH.Pidayev, M.Qarshiboyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
24. Sulaymonov R.X. Drevniy Naxshab. – Tashkent, 2000.
25. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta. – M., 1962.
26. Uilber D. Persepol / Per.s angl.YE.L.Vlasovoy. – M.: Nauka, 1977.
27. Filanovich M.I. Gosudarstvo Kangyuy // Istoryya gosudarstvennosti Uzbekistana. T. I. – Tashkent, 2009.
28. Fray R. Naslediye Irana. – M.: Vostlit, 1972.
29. Xodjaniyazov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
30. Shaxermayr F. Aleksandr Makedonskiy. – M.: Nauka, 1986.
31. Shoniyofov K.SH. Qang‘ davlati va qang‘lilar. – Toshkent: Fan, 1990.

4 - mavzu O'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv shakillari

REJA:

- 4.1. *Ilk o'rta asrlar davlatchiligi tarixi (V-VIII asr o'rtalarigacha).* 4.2. *Arablarning O'rta Osiyonidagi istilo etishi. Movaraunnahrda boshqaruv.*
- 4.3. *Somoniylar davlati.*
- 4.4. *Qoraxoniylar davlati.*
- 4.5. *G'aznaviyilar va saljuqiylar davlati.*
- 4.6. *Xorazmshoh - anushteginiylar davlati.*
- 4.7. *Chig'atoy ulusi.*

Tayanch so'z va iboralar

Kidariylar, xioniylar, eftaliylar, ichki va tashqi kurashlar, Kidar, Piro, "oq xunlar", Prokopiy Kesarskiy, tegin, hoqon, Lazar Parbskiy, massagetlarning yetakchi urug'i, "Madinat-at-tujjor", qal'ali istehkomlar. Devori qiyomat, Kampirak, Rivdad, Kushoniya, Arqud, "kamoni chochiy", ma'muriy markaz, Zahariq, Darg'om, "kadivar"lar, shahanshoh Pero'z, xalqaro savdo, buddaviylik, xristianlik, moniylik, yepiskoplik, metropoliya, turk el, turkash, tukyu, tuqdu's, qabila boshlig'i hoqonlar, siyosiy va madaniy meros, kishkiyalik Zemarx, Bahrom Chubin, G'arbiy Turk hoqonligi, So'yob, yabg'ular, tudunlar, To'n yabg'u, "o'n o'q eli", "shod".

4.1. Ilk o'rta asrlar davlatchiligi tarixi (V-VIII asr o'rtalarigacha).

Milodning IV-V asrlari O'rta Osiyo tarixining muhim bosqichlaridan hisoblanadi. Ulkan Kushonlar davlati ichki va tashqi kurashlar natijasida bir qancha mustaqil davlatlarga bo'linib ketadi. O'rta Osiyoning janubida uning tarkibidan Toxariston va Marv ajralib chiqadi. Ulardan shimolda esa Sug'd alohida bo'lsa, uning sharqiy tomonida Ustrushona joylashadi. Ustrushonaga tutash hududlarda Farg'ona, O'rta Osiyoning shimoliy hududlarida Choch va Xorazm mulklari mustaqil edi.

Bu davrda O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan siyosiy jarayonlar ko'p sonli ichki va tashqi urushlar bilan bog'liq edi. Shuningdek, milodiy IV-V asrlar O'rta Osiyo hududlariga ko'chmanchi qabilalarning kirib kelishi, qabilalar ittifoqi yuzaga kelishi natijasi bo'lgan, yangi siyosiy kuchlardan biri kidariylar bo'lib, ular haqidagi asosiy ma'lumotlar Xitoyning Beyshi solnomasida hamda g'arb muallif tarixchilaridan biri Prisk Paniyskiy ma'lumotlarida uchraydi.

Kidariylarning dastlabki, vatani Sharqiy Turkiston edi. Beyshi solnomasida berilishicha, yuechjilar humdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o‘z qarorgohini Bolo (Balxga) ga ko‘chirgan. Yana shu manba xabar berishicha, Kidar Shimoliy Hindistonga yurish qilib Gandhardan shimoldagi 5 ta davlatni o‘ziga bo‘ysundirgan. Ayrim tadqiqotchilar, kidariylar⁵ Sharqiy Turkistondan ko‘chishni boshlangan so‘ng ular ikki qismga bo‘linib, katta qismi shimoli-g‘arbiy Hindistonga, kichik qismi esa O‘rta Osiyoga joylashadilar, degan fikrni ilgari suradilar. Kidariylarning O‘rta Osiyoga joylashuvi masalalari bilan shug‘ullangan tadqiqotchilarning fikricha, ularning markazi Balx emas balki Qarshi atroflaridagi Yerqo‘rg‘on ko‘hna shahri bo‘lgan. Ammo, bu fikrni ko‘pchilik olimlar e’tirof etmaydilar va balki Qarshi atroflarida kidariylarning kandaydir kichik guruhlari joylashgan bo‘lishi mumkin degan fikrni bildirdilar.

Yaponiyalik tadqiqotchi K.Yenoki braxmiy yozuvida zarb etilgan, “Kidara Kushon sha” degan yozuv bitilgan tangalarni o‘rganib, ular taxminan 390-430 yillarga mansub degan xulosaga keladi. Hind olimi A.Bivarning xulosalariga ko‘ra, bunday tangalar ikkita hokim tomonidan bir vaqtning o‘zida zarb etilgan bo‘lishi mumkin. Yenokining fikricha, kidariylar Toxariston va Gandharni 412-437 yillar oralig‘ida o‘z qo‘l ostilariga birlashtirganlar.

Ayrim tadqiqotchilar kidariylarni Sharqiy Turkistondan kirib kelgan kushonlar qoldig‘i bo‘lishi mumkin degan fikrni ilgari surishadi. Shuningdek, kidariylarning O‘rta Osiyoning janubidagi xioniyalar bilan ittifoqchiligi hamda ularning Eronqa qarshi birqalikdagi harakatlari to‘g‘risidagi taxminlar ham bor.

Tadqiqotchilar Kidar hukmronlik qilgan davrni IV asrning ikkinchi yarmi va V asrning birinchi choragi bilan belgilaydilar. Kidar (yoki Kidara) avval boshda Eron shohi Shopur II ga bo‘ysungan. Oq xunlar bostirib kelishi bilan o‘z o‘g‘li Pironi Peshovarda qoldirib Shimolga yo‘l olgan. Oq xunlar bilan kurash manbalarda 400-yillarga to‘g‘ri kelishi ta’kidlangan. Kidar Shopur II (309-379 yy.) ning zamondoshi bo‘lib, avvalambor kushonlar hokimiyatining davomchisi sifatida ularga bo‘ysunib kelgan hamda xioniyalar yordamida Baqtriyada kushonlar hokimiyatiga chek qo‘yan.

Kidariylar tez orada Amudaryo o‘ng va chap qirg‘oq havzasi hamda Sug‘dning katta qismini egallaydilar. Manbalarning guvohlik berishicha, kidariylar Eron sosoniylari bilan ko‘p martalab urushlar olib boradilar. Bu urushlar ayniqsa sosoniy podsholari Varaxran V (420-438 yy.) va Yozdigard II (438-457 yy.) davrlarida ayniqsa avjiga chiqadi. 456 yilda bo‘lib o‘tgan navbatdagi harbiy to‘qnashuvlardan so‘ng katta talofatga uchragan kidariylar qayta o‘zlarini o‘nglab ololmadilar. Bu voqeadan keyin kidariylar haqida ma’lumotlar deyarli yo‘q. Faqatgina ular Hindistonda Gupta davlatini egallab bu yerda 75 yil hukumronlik qilgani, 477 yilda Gandhardan Xitoya elchilar yuborgani ma’lum xolos.

IV asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo yerlariga shimoli sharqdan xion qabilalari bostirib kiradilar. Tarixda xioniyalar nomi bilan mashhur bo‘lgan bu qabilalarning asli vatanini

⁵ History of Civilizations of Central Asia. Vol. 3. France. 1996. P. 119-130.

ayrim tadqiqotchilar Orol bo‘yida deb hisoblaydilar. Xioniylar xun qabilalariga qon-qarindosh bo‘lganliklaridan bo‘lsa kerak, g‘arb tarixchilari ularni “oq xunlar” deb ataydilar. IV asrning o‘rtalarida ancha kuchaygan xioniylar janubga tomon harakat qilib sosoniylar bilan to‘qnashadilar. Bu to‘qnashuvlar hamda xioniylar yo‘lboshchisi Grumbat, ularning Suriyadagi Umda shahrini qamal qilganliklari haqida Ammian Marsellin ma’lumotlar beradi. Dastlabki harakatlarda xioniylar mag‘lubiyatga uchrasalarda, keyinroq ular sharqqa tomon yurishlar qilgan sosoniylar shohi Shopur II ga qattiq zARBalar beradilar. K.Treverning fikricha, xioniylar IV asrning 70-yillarida o‘zining kuchaygan pallasiga kiradi. O‘rta Osiyoda kidariylar va eftaliylar hukmronligi o‘rnatilgach xioniylarning siyosiy ahvoli o‘zgaradi va ular eftaliylarga tobe bo‘lib qoladi. Afsuski, xioniylar va kidariylarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelmagan.

Xioniylar va kidariylarga nisbatan eftaliylar haqidagi ma’lumotlar nisbatan ko‘proq saqlangan. Eftaliylar tarixi yuzasidan ma’lumotlar rim, vizantiya, suriya, arman va arab tarixchilarining asarlarida, Xitoy solnomalarida, pahlaviy matnlarda, Firdavsiyning “Shohnoma”sida uchraydi. Shunga qaramasdan eftaliylarning kelib chiqishi haqidagi olimlarning fikrlari turlicha. Misol uchun, S.P. Tolstov, A.N.Bernshtam, K.V.Trever kabi olimlar eftaliylarning ilk vatani Sirdaryoning quyi oqimi deb hisoblasalar, A.Mandelshtam, R.Grishman, K.Yenoki kabi olimlar esa eftaliylar vatanini Badaxshon deb hisoblaydilar. B.Litvinskiy va K.Inostransevlar eftaliylarning ilk vatani Farg‘onanining tog‘ oldi hududlari bo‘lganligi haqidagi fikri ilgari suradilar. Ularning turkiy halqlar bo‘lganligi haqidagi masala uzil-kesil yechimini topmagan.

Eftaliylar turli manbalarda turlicha nomlanadilar. Misol uchun, xitoy manbalarida ular “ida, iyeda, idan, idyan” deb, suriya va lotin manbalarida esa “eptalit, eftaliy, abdal” arab va fors mualliflarida “haytal, yaftal, yeftal” degan nomlar bilan eslatiladi.

Xitoy manbalari eftaliylarni turklar (tukyue) bilan bog‘liq ravishda ta’riflaydilar. Vizantiyalik tarixchilar, masalan, Prokopy (VI asr) eftaliylarni xunlardan deb ko‘rsatar ekan, “ular (ya’ni eftaliylar) xunlardandir, tanalari esa oq” deb eslatadi. Eftaliylarning kuchaygan davri V asrning o‘rtalariga (456-457 yy.) ya’ni ular Xitoya birinchi marta elchi yuborgan davrga to‘g‘ri keladi. Ma’lumotlarga ko‘ra, shu davrdan to 531 yilga qadar eftaliylar Xitoya 13 marta elchi jo‘natadilar. Kuchqudrat jihatdan mustahkamlanib olgan eftaliylar O‘rta Osiyo va Shimoliy Hindistondagi kata yerlarni ishg‘ol etishga kirishadilar.

Eftaliylarning janubdagagi asosiy raqiblari Eron sosoniylari edi. Eftaliylar astasekin janubiy hududlarni o‘zlariga bo‘ysundirar ekanlar, ularning sosoniylar bilan munosabatlari keskinlasha boradi. Eftaliylar va sosoniylar o‘rtasidagi kurashlar podsho Pero‘z (459-484 yy.) davriga to‘g‘ri keladi. 484 yilda eftaliylar va sosoniylar o‘rtasida Marv yaqinida bo‘lib o‘tgan jangda sosoniylar mag‘lubiyatga uchraydilar. Eftaliylar 467-473 yillarda Sug‘dda mustahkam o‘rnashib olgan bo‘lsalar, 477-520 yillar

mobaynida Gandharni ishg‘ol etib, u yerdan kidariylarni siqib chiqaradilar. 490 yilda eftaliylar Urumchini, 497-509 yillar orasida Qashg‘arni bosib, deyarli butun Sharqiy Turkistonda o‘z hukmronliklarini o‘rnatadilar.

Shunday qilib, VI asrning boshlariga kelib, eftaliylar anchagina katta hududlarni egallagan edilar, ko‘pchilik manbalar eftaliylarning dastavval ko‘chmanchi xalqlar bo‘lib, keyinchalik o‘troqlashganligi haqida ma’lumot beradi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar ularni ko‘chmanchilar deb hisoblasa, ayrimlari ularni shahar va qishloqlarda yashaganligini ta’kidlaydilar. Eftaliylarning poytaxti Balx shahri edi. Ko‘pchilik tadqiqotchilarning e’tirof etishlaricha, eftaliylar davlati unchalik ham mustahkam emas edi va shuning uchun ham uzoq yashamadi.

Ta’kidlash joizki, eftaliylar o‘zlariga tobe bo‘lgan xalqlar hayotiga juda chuqrta’sir etmasdan, o‘lpon va soliqlar undirish bilan cheklanganlar. Eftaliylarning O‘rta Osiyodagi hukumronligi asosan harbiy kuchlarga tayanar edi. Shuning uchun ham O‘rta Osiyo xalqlari ularning turklar bilan bo‘lgan kurashda qo‘llab-quvvatlamaganlar. Eftaliylar davlati yarim asrga yaqin yashagan bo‘lsada O‘rta Osiyo xalqlari tarixida muhim rol o‘ynadi.

Eftaliylarning etnik kelib chiqishi masalalari ancha murakkab hisoblanadi. Bu murakkablik shu bilan izohlanadiki, arab manbalari va tangashunoslik ma’lumotlarida eftaliylar podsholari faqat turklarga xos bo‘lgan unvon-tegin, hoqon unvonlari bilan tilga olinadi. Shu bilan birgalikda tangalarda aks etgan podsholar aniq yevropoid irqini beradi. Bu holatlar ayrim tadqiqotchilarning eftaliylarni turkiy xalqlar deb hisoblashlariga sabab bo‘ldi.

Prokopyi Kesarskiy eftaliylar haqida shunday ma’lumot beradi: “eftaliylar xun xalqlari qabilasi bo‘lib, barcha xunlar ichida ular yagona oq tanlidir. Turmush tarzi jihatidan ham ular boshqa xunlarga o‘xshamaydilar va boshqa xunlarga o‘xshab xayvonlardek yashamaydilar. Ular bitta podsho boshqaruvida turadilar. Bu podsho rimliklar yoki boshqalardan qolishmaydigan holda aholiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, o‘zaro va qo‘snilar bilan bo‘lgan munosabatlardaadolat mezonlariga amal qiladi.”

V asrda yashagan Lazar Parbskiy eftaliylarni yetti qabiladan iborat massagetlarning yetakchi urug‘laridan biri ekanligi haqida ma’lumot beradi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir ko‘rinishi yoki gaogyuy qabilasining tarmog‘i yoki qang‘lilarning avlodlari sifatida talqin qilinadi. Undan tashqari, o‘zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriyatoxariston yerlarida yashab o‘tgan azaliy baqtr qabilalaridan chiqqan etnik guruh ekanligi haqidagi fikrlar ham bor. Umuman olganda eftaliylarning turkiy xalqlar ekanligi hamda ularning haqiqiy vatani Baqtriyatoxariston ekanligini e’tirof etuvchi olimlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Xullas, o‘z davrida eftaliylar yirik davlat tizimini vujudga keltirdilar. Ular O‘rta Osiyo, Shimoliy Hindiston, Sharqiy Turkiston, Sharqiy Eronni birlashtirgan ulkan davlatga asos solib, Kushon davlati o‘rnida undan ham kattaroq hududlarni birlashtirdilar. Eftaliylar Eronning sosoniylar davlatiga, uning harbiy harakatlariga qarshi tura oldilar hamda sosoniylarning O‘rta Sharqdagi

hukmronligiga chek qo‘ydilar. Eftaliylar sosoniyarlarning ichki ishlariga ham aralashib turdilar, hatto shohlardan qaysi birini saylash va tayinlash masalasini hal qilish ularning qo‘lida edi. Eron davlati har yili ularga katta miqdorda o‘lpon to‘lab turgan.

Turk hoqonligi davrida O‘rta Osiyo. VI asrning ikkinchi yarmidan boshlab Janubiy Sibir va Shimoliy Mongoliya ya’ni, Oltoy hududlarida turkiy qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Tarixda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan Turk hoqonligi xususida talaygina manbalar bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ularning ayrimlari bir-birini inkor etadi. Ushbu manbalar VI asrning oxirlarida yashagan vizantiyalik tarixchilar Menandr Protektor, Feofan Vizantiyskiy, suriyalik tarixchi Ionna Efessiylarning tarixiy asarlari, epigrafik yodgorliklar - Urxo‘n-Yenisey, runiy yozuvlari, Xitoyning “Tan xonadoni tarixi” qabilardir. Undan tashqari o‘rta asrlar mualliflari at-Tabariy, Denovariy, Beruniy, Narshaxiylar asarlarida ham Turk hoqonligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi.

“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Manas”, “Dada Qo‘rqu” kabi umumturkiy xalq dostonlari, o‘rta asrlardagi Mahmud Qoshg‘ariy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib va boshqalar asarlarida turkiy madaniyat, adabiyot, tarix to‘g‘risida turli qimmatli ma’lumotlar keltiriladi. 1999 yili Alpomishning 1000 yilligi Respublikamizda keng nishonlanib, Termizda qahramon Alpomishga mahobatli haykal ham o‘rnatildi.

Ta’kidlash joizki turk atamasining ilk marotaba tilga olinishi 542 yilga to‘g‘ri keladi. Turli manbalarda turklar “turk el”, “turk”, “turkash”, “tukdus”, “tu-kyu”, “tuk-yut” kabi nomlar bilan tilga olinadi. Kuchli, baquvvat, botir kabi ma’nolarni anglatuvchi “turk” atamasi dastavval etnik xususiyatga ega bo‘lmay ijtimoiy ma’noga ega bo‘lgan. Turkarning kelib chiqishi xususida ko‘plab afsonalar mavjuddir. Ayrim afsonalarda turklarning kelib chiqishi Nuh paygambarga borib taqalsa, ayrimlarida ular o‘n yashar bola va ona bo‘ridan tarqalganligi ta’kidlanadi. Yana boshqa bir afsonaga ko‘ra, turk qabilasining ajdodlari Oltoyning shimoliy yon bag‘irlarida joylashgan Soviloyatidan kelib chiqqan bo‘lib, bu yerdagi qabila boshlig‘i Abanbu ularning ilk yo‘lboshchisi bo‘lgan.

Tarixiy manbalar ma’lumotlariga ko‘ra, Turk hoqonligining paydo bo‘lishi 551-552 yillarga to‘g‘ri keladi. Dastavval, turklarning Ashin urug‘idan bo‘lgan Asan (Asyan, Asyan-shod) va Tuu turkiy qabilalar ittifoqiga asos soladilar. Tuuning o‘g‘li Bumin (Xitoycha Tumin) qo‘shti tele qabilasini o‘ziga bo‘yso‘ndirib ancha kuchayishga muvaffaq bo‘ladi. Bu paytga kelib anchagina mustahkamlangan Bumin boshchiligidagi qabilalar ittifoqi Oltoydagi o‘zları qaram bo‘lib turgan jujan (juan-juan)lar qabilalariga qarshi kurash boshlab 551 yilda (ayrim adabiyotlarda 552 yilda) ularni tormor etadilar. Mana shu davrdan boshlab turkiy hukmdorlar o‘zlarini jujanlar egallab turgan yerlarning haqiqiy egalari hamda jujanlarning mavqeい va kuch-qudratining vorislari sifatida Anaguyhoqon (kag‘an) unvonini kabul qiladilar. Jujanlar hukmdori Anaguy joniga qasd qilib o‘zini o‘ldiradi.

Turk hoqonligida davlat boshqaruvi. Turk hoqonligida davlatning oliy hukmdori “hoqon” unvoniga ega bo‘lgan. Xitoy manbalari ma’lumotlariga ko‘ra, turkiylar xonni taxtga o‘tqazishda maxsus marosim o‘tkazishgan. YA’ni, amaldorlar

bo‘lajak xonni kigizga o‘tqazib, quyosh yurishi buylab 9 marotaba aylantirganlar, ishtirokchilar esa uni qutlab va ulug‘lab turganlar. So‘ngra xonni otga o‘tqazib, bo‘yniga ipak mato bog‘laganlar va undan "Siz necha yil xon bo‘lmoqchisiz?" deb so‘raganlar. U necha yil xon bo‘lishini aytgan va shu muddat tugagach taxtdan ketgan.

Qadimgi turkiy afsonalarda berilishicha, turklarning tasavvuriga ko‘ra, davlatchilikning markazi, davlatni o‘z qo‘lida birlashtiruvchi shaxs hoqon hisoblangan. Boshqaruvda hoqonlarning hukmron sulolasi asosiy bo‘lib u uchta kuch - osmon (tangri), yer-suvning kuch va irodasi hamda turk xalqining yaratuvchanlik faoliyati tufayli yuzaga keltiriladi.

Hoqondan keyingi shaxs, birinchi amaldor "Yabg‘u" (Bahodir) bo‘lib, u bosh sarkarda hisoblangan. Ammo, yabg‘u taxtga merosxo‘rlik qila olmas edi. Turkiy hoqonligi taxtiga vorislik tartibi turk davlatchiligi tuzilishi uchun xos bo‘lgan uluslarga bo‘linish tizimiga asoslanib belgilanar edi. Ushbu tizimga ko‘ra taxt aksariyat hollarda otadan o‘g‘ilga emas, akadan ukaga, amakidan jiyanga meros qolar edi. Taxt merosxo‘ri tegin (shahzoda) deb yuritilgan.

Shahzodalar to taxtga o‘tirgunlariga qadar o‘zlariga berilgan uluslarni boshqarib turganlar. O‘rta Osiyodagi mahalliy hokimlarning faoliyatini nazorat qiluvchi amaldor, hoqonning nazoratchisi –"tudun" deb atalgan. Turkiy hoqonligi konfederativ davlat bo‘lgan. Turkiylar o‘z yurti va davlatini "el" deb atashgan. Birinchi turk hoqoni Buminxon elxon unvoniga ega bo‘lganligi bejiz emas.

Hoqonlik tarkibidagi ko‘plab qabila va elatlarni birlashtirish va boshqarib turish, ulardan ma’lum miqdordagi soliqlar va o‘lponlarni o‘z vaqtida yig‘ib olish maqsadida hoqonlikda maxsus ma’muriy va harbiy-siyosiy boshqaruv tizimi joriy etilgan edi. Davlatni boshqarishda oliy hukmdorga uning yakin qarindoshlari, avvalo, hukmron sulola a’zolari hamda ular tomonidan barpo etilgan boshqaruv tizimi yordam berar edi. Manbalarinda ma’lumot berishicha, u to‘rtga bo‘lingan.

YA’ni, qarindoshlar, hoqonga ittifoqdosh bo‘lgan qabila va xalklar; hoqonning o‘ng tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va ma’muriy xodimlar; hoqonning chap tomonida o‘tiruvchi amaldorlar va xodimlardan iborat bo‘lgan. Hoqonning qarindoshlari - o‘g‘illari, amakisi, jiyanolari va aka-ukalariga "tegin" unvoni berilgan. Xitoy manbalarida ma’lumot berilishicha, hoqonlikdabeshta oliy mansab - yexu (yabg‘u), she (shod), dele (tegin), silifa (eltabar) va tutunfa (tudun) qabilar mavjud bo‘lib, ularning barchasi meros qilib qoldirilgan.

Turkiy hoqonligi davlatining asosini yer bilan birga xalq tashkil etar edi. O‘z davrida O‘rta Osiyoda davlatchilikning mustaqil va an’anaviy shakllarini rivojlantirgan turkiylar davlati mavjud jamiyatning muayyan ijtimoiy tuzilmalariga va qadimgi turklarning davlat tomonidan tashkil etilgan hamda nazorat qilinadigan xo‘jalik faoliyatiga tayanar edi. Tarixiy adabiyotlarda berilishicha, bu faoliyatning asosini ko‘chmanchi chorvachilik tashkil etgan. Chorvador turklarda urug‘-qabilachilik an’analari nihoyatda kuchli bo‘lib, qabila va urug jamoalarining asosi katta oilalardan iborat bo‘lgan. Ko‘chmanchi chorvadorlar xalq ommasini turklar "budun" yoki "kora budun" deb atashgan.

Hoqonlikda keng mikyosda dehqonchilik ham qilinar edi. Xitoy manbalari, "garchi turklar doimiy yashash joylariga ega bo‘lmasa ham, lekin ularning har birining ajratib berilgan yeri bor"ligi haqida ma’lumot beradi. Aynan mana shunday "ajratib berilgan yer"larda dehqonlar mavjud suv manbalari hamda lalmikor yerlar imkoniyatdan foydalanib asosan donli ekinlar yetishtirganlar. Mevali daraxtlardan bog‘-rog‘lar yetishtirishga alohida ahamiyat bergenlar. Manba tili bilan aytganda, "(mevali) daraxtlar savlat to‘kib turgan".

Turklardagi qabila va urug‘ jamoalarining katta oilalarida uy qullari ham mavjud bo‘lar edi. Qullarning ko‘payishi bilan sinfiy munosabatlar tarkib topa boshlagan. Lekin qulchilik ijtimoiy hayotga keng kirib kelmagan. Shu bois bo‘lsa kerakki, manbalar hoqonlikda qullar mehnatidan keng foydalanish haqida amalda hech kanday ma’lumot bermaydi. Ayrim tadqiqotchilarining fikricha, ko‘proq ayollar mehnatidan foydalaniłgan va qullar asosan uy ishlari bilan shug‘ullanishgan. Ko‘pincha jamoada ayollar qul qilib olib ketilar edi. Lekin, qul ayollardan ham og‘ir ishlarda foydalaniłmay, balki uy-ro‘zgor ishlarida ishlatilinlar edi. Qul erkakmi, ayolmi baribir kochib ketavergan.

Qochgan qul ta’qib qilinmagan va uning uchun hech kim tovon to‘lamagan. Turkiy hoqonligining markaziy boshqaruв tizimi asosan yirik siyosiy davlat tadbirlari (davlat osoyishtaligini saqlash, davlat sarhadlarini kengaytirish, soliq tizimi, ichki va tashqi savdo, diplomatik munosabatlar va boshq.) bilan mashg‘ul bo‘lib o‘zлari zabt etgan hududlardagi boshkaruv tizimiga ma’lum darajada erkinlik berilgan. Shuning uchun ham Farg‘ona, Sug‘d, Shosh, Toxariston, Xorazm va boshqa mulklardagi boshqaruв tartibi asosan mahalliy sulolalar qo‘lida bo‘lgan. Misol uchun, Sug‘d va Farg‘onada oliv hukmdor - "ixshid" Toxaristonda - "malikshoh", Xorazmda - "xorazmshoh", Keshda – “ihrid”, Buxoroda - "xudot", Ustrushonada - "afshin", Choch va Ilokda – “budun” deb atalgan.

Turkiy hoqonlik davrida Sug‘d hududlariga hozirgi Panjikentdan Karmanagacha bo‘lgan yerlar kirgan. Buxoro esa, VII asrdan boshlab mustaqil mulklar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Sug‘dning mahalliy hokimlari ayrim vaqtarda Choch va Xorazmning mustaqil hukmdorlari bilan birlashar edilar. Bunday yirik siyosiy birlashmalar ma’lum muddatlarda yirik shaharlarda o‘z qurultoylarini o‘tkazib turganlar.

Farg‘ona Sug‘d siyosiy ittifoqiga kirmagan bo‘lib, u alohida mustaqil davlat edi. Uni afshin boshqargan bo‘lib, farg‘onaliklar Tyanshan xalqlari bilan o‘zaro aloqada bo‘lganlar. Xorazm boshqa mulklarga nisbatan ancha mustaqil edi. Mamlakatni Afrig‘iylar sulolasiga mansub podsholar boshqarib turgan.

Ta’kidlash lozimki, Turk hoqonligi ma’lum darajada to‘liq ishlab chiqilgan jinoiy qonunchilikka ega bo‘lgan. Sodir etilgan jinoyat uchun jazoning asosiy turlari – qatletish, odam a’zolarini kesib tashlash, zararni to‘lash, mol-mulk tarzida tovon to‘lashdan iborat edi. Misol uchun, manbalarning ma’lumot berishicha, o‘lim jazosi davlatga qarshi jinoyatlar uchun (isyon ko‘tarish, sotqinlik) hamda nohak yoki qasddan odam o‘ldirganlik uchun berilgan. O‘g‘irlilik qilgan yoki buzuqlik qilgan shaxsning

qo‘li yoki oyog‘i kesilgan. Shaxsga qarshi qaratilgan boshqa jinoyatlar yetkazilgan zararni o‘n barobar qilib to‘lash, jarohat yetkazgani yoxud mayib qilgani uchun molmulk tarzida tovon to‘lash, qizi, xotinini qullikka berish, suyagini sindirganlik uchun esa ot berish yo‘li bilan jazolanardi.

4.2. Arablarning O‘rta Osiyoni istilo etishi. Movaraunnahrda boshqaruv.

Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar. VII asrning birinchi yarmida Arabiston yarim orolida yashovchi arablar islom mafkurasi bayrog‘i ostida muvaffaqiyatli harbiy yurishlar qilib qisqa tarixiy fursatda Osiyo qit’asining katta qismini, Shimoliy Afrika va Janubi-G‘arbiy Yevropani o‘z ichiga olgan qudratli davlatga asos soldilar. Amir al-mu’minin Ali o‘ldirilgandan so‘ng xulafoi rashidun davri tugab, hokimiyat ummaviylar sulolasi qo‘liga o‘tdi va ularning hukmronligi 661-749 yillarni o‘z ichiga oladi.

Yangi sulola arab xalifaligi nomi bilan tarixga kirdi. Poytaxt Damashq shahriga ko‘chirildi. O‘rta Osiyoning zabit etilishi va xalifalik tarkibiga kiritilishi ham aynan ummaviylar zamонига to‘g‘ri keladi.

Dastavval arablar 651 yilda Marvni ishg‘ol etib, sosoniylar davlatiga butunlay barham bergenlaridan so‘ng, Movarounnahr hududiga (Amudaryo shimolidagi yerlarga) ham harbiy yurishlar uyushtira boshladilar. Arablarning O‘rta Osiyoga yurishi mohiyatiga ko‘ra ikki davrga bo‘linadi. Birinchi davr VII asrning o‘rtalaridan - VIII asr boshlarigacha davom etdi. Mazkur harbiy yurishlar talonchilik xususiyati kasb etgan va xalifaning Xurosondagi noiblari tomonidan amalga oshirilgan. Arablar deyarli yarim asr davomida Amudaryoning o‘ng sohilidagi yerlarga, ya’ni Movarounnahrga harbiy razvedka va boylik yig‘ish maqsadida nomuntazam yurishlarni amalga oshirganlar.

704 yilda Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim arablar istilosining ikkinchi davrini boshladi. Unga Movarounnahrni to‘liq bo‘ysundirish va xalifalik tarkibiga qo‘sib olish vazifasi yuklatilgan edi. 705 yilda Balx va Chag‘oniyonni ishg‘ol etgandan so‘ng, Qutayba Movarounnahr hududiga bostirib kirdi. G‘arbiy Turk hoqonligidagi ichki siyosiy beqarorlik, markaziy hokimiyatning zaifligi, mahalliy hokimlarning birlashib harakat qilmaganligi va o‘zaro nizolaridan foydalangan Qutayba ibn Muslim boshchiligidagi arab qo‘sinchilari 707 yilda Poykand, 708 yilda Buxoro atroflari va Romitan, 709 yilda Buxoro shahrini, 710 yilda esa Shuman, Nasaf va Kesh viloyatlarini egallab oldilar.

711 yilda Xorazmdagi ichki siyosiy nizolardan foydalangan Qutayba qo‘sinchilari bu qadimiy viloyatni ham qo‘lga kiritishga erishdilar va natijada mahalliy afrig‘iyalar sulolasi (305-996 yy) xalifalikcha tobe’ etildi. 712 yilda arablar bosib olingan Movarounnahr viloyatlaridan to‘plangan qo‘sinchilar yordamida Samarqand So‘g‘dini ham egallahga muvaffaq bo‘ldilar. Keyingi zarba Jizzax, Xo‘jand, Choch hududlariga qaratildi. 715 yilda Farg‘ona vodiysini ham qo‘lga kiritgan arab qo‘sinchilarining zafarli yurishlari Qashg‘arda xitoyliklar tomonidan to‘xtatib qolindi.

Shu tariqa, VII asrning ikkinchi yarmida boshlangan va VIII asrda katta ko‘lamga ega bo‘lgan arab-musulmon qo‘sishinlarining harbiy yurishlari natijasida Sharqiy Turkistondan Atlantika okeani kirg‘oqlarigacha bo‘lgan ulkan xududda yangi diniy ta’limot – islom dini yoyildi. Tashkil topgan yangi davlat – arab xalifaligi bosib olingan hududlarda islom dinini zo‘rlik bilan yoyish siyosatini olib bordi, eski dinlarga tegishli barcha kitoblar, yozuvlar, ibodatxonalar va osori-atiqalar yo‘q qilindi. Xususan, Marv, Buxoro, Urganch va boshqa qadimiy shaharlardagi moddiy va ma’naviy boyliklar talandi, vayron etildi. Beruniyning yozishicha, Qutayba ibn Muslim “xorazmlik xattotlarni halok etdi, ruhoniylarni o‘ldirdi, ularning kitobi va yozuvlarini yoqib yubordi, xorazmliklar savodsiz bo‘lib qoldilar”.

Arablar istilosи shu davrgacha O‘rtta Osiyoga tashqaridan bo‘lgan harbiy bosqinchilik yurishlaridan tubdan farq qilardi. Sababi arablar o‘zлari bilan yangi diniy ta’limotni olib keldilar va turli yo‘llar (ijtimoysiyoziy va iqtisodiy imtiyozlar berish, zo‘ravonlik, kuch ishlatish va boshqalar) bilan islom dinini mahalliy aholi orasida yoyib boshladilar.

O‘rtta Osiyoda islom dinining tarqalishi va yetakchi mavqega ega bo‘lishi katta qiyinchilik bilan amalga oshdi. Bu haqda O‘rtta Osiyoda arablarga qarshi ko‘tarilgan ko‘plab qo‘zg‘olonlar (Go‘rak va Devashtich boshchiligidagi, Muqanna rahbarligidagi va boshqa qo‘zg‘olonlar) ham guvohlik beradi. Bu Ummaviylar davridayoq O‘rtta Osiyoda asosiy din sifatida e’lon qilingan islom dinining mahalliy xalqlar tomonidan qabul qilinishi jarayoni uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tganligini ko‘rsatadi. Faqatgina X asrga kelib islom dini O‘rtta Osiyo xalqlari ma’naviy hayotida mustahkam o‘rin ola boshladi va an’anaviy e’tiqodlarni, eski diniy ta’limotlarni (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik va boshqalar) siqib chiqara boshladi. Lekin, islom dini yetakchi mavqega ega bo‘lgandan keyin, boshqa dinlar tarafdarlariga kutilganidan ham ko‘ra ko‘proq bag‘rikenglik ko‘rsatdi. Buni biz musulmon dunyosining sharqiy chekkasida bo‘lgan Movarounnahr va Xorazmda ham ko‘ramiz. Agar islomgacha bo‘lgan davrlarda bu hududda budda ibodatxonalari, zardushtylarning muqaddas olov saqlanadigan ibodatxonalari, xristian cherkovlari yonma-yon qurilganligini ko‘rgan bo‘lsak, IX - XII asrlarda ham bu mintaqada hayratda qolarli diniy bag‘rikenglikning guvohi bo‘lamiz.

Manbalarning dalolat berishicha, Buxoroda X asrda ham zardushtylarning ko‘pslonli jamoalari saqlanib qolgan bo‘lib, Romitan va Buxoro atrofidagi boshqa qishloqlarda ularning ibodatxonalari mavjud bo‘lgan. Samarqandda XI asr boshlarigacha moniylik ta’limoti tarafdarlarining faoliyati va ibodatxonalari saqlanib keldi. Buxorodagi Mox masjidi yonida o‘z ma’budalari tasvirini, haykallarini sotib yurgan xristianlar, yahudiylar va boshqa dinlar tarafdarları haqidagi ma’lumotlar arab sayyoohlari asarlarida o‘z aksini topgan.

Abbosiylar hukmronligi davrida islom dunyosida eng ko‘p himoya qilinadigan dinlar xristian va yahudiylar bo‘lib, o‘sha davr qonunlariga ko‘ra ular musulmonlar bilan deyarli bir xil huquqlarga ega bo‘lishgan. Xristian yoki yahudiyni o‘ldirgan

jinoyatchiga musulmon bo‘lgan kishini o‘ldirganlarga beriladigan jazo qo‘llanilishi ham o‘rta asr musulmon davlatlari uchun odatiy hodisa edi. Ko‘pgina xristianlar va yahudiylar bankirlik, sudxo‘rlik, xalqaro savdo, tibbiyot va boshqa sohalar bilan shug‘ullanib, o‘z davrining boy va mashhur kishilari bo‘lishgan. Ko‘pgina musulmon mamlakatlarida, hatto muhim davlat amallarini qo‘lga kiritgan xristianlar haqida ham ma’lumotlar mavjud.

Islom dinida diniy bag‘rikenglik masalasini birinchilardan bo‘lib shveysariyalik sharqshunos olim A.Mets o‘zining 1922 yilda chop etilgan “Musulmon uyg‘onish davri” kitobida ishonchli ko‘rsatib berdi. “Yot dinlarga e’tiqod qiluvchi ko‘plab jamoalarning mavjudligi, - deb yozgan edi A.Mets. – musulmonlar sultanatini butunlay xristian aqidaparastlari ta’sirida bo‘lgan Yevropadan ajratib turadi”.

Boshqa dindagilar, garchi ularning yashash joyini tanlash huquqi cheklanmagan bo‘lsada, odatda alohida mahallalarda yashashgan. Abbosiylar davrida xalifalikning barcha xristian aholisi boshida Bag‘dodda doimiy qarorgohi bo‘lgan nestorian katolikasi turgan. Xalifa yorlig‘i bilan unga sharqiy xristian cherkovi ham bo‘ysungan. Xalifalikning ko‘psonli yahudiylar jamoasini boshqarib turgan “Resh g‘aluta” ham Bag‘dodda joylashgan edi. Musulmon davlati ko‘rsatgan homiylik uchun o‘zga dindagilar jizya-jon solig‘i to‘lab turishgan. Butun islom dunyosida boshqa din vakillari o‘z diniy bayramlarini erkin nishonlashib, bu musulmonlar tomonidan dushmanlik kayfiyatini uyg‘otmagan. Garchi, tarixiy yilnomalarda musulmonlar tomonidan cherkov va sinagoglarning vayron etilgani, yoqib yuborilgani haqida ma’lumotlar uchrasa-da, lekin bunday hodisalar unchalik ko‘p bo‘lmagan va hokimiyat tomonidan qattiq ta’qib qilingan.

Ko‘pgina musulmon mamlakatlarida boshqa din vakillariga ma’lum rangdagagi kiyim kiyishning shartligi, shaharda ot bilan yurishning ta’qiqanishi, uylari va ibodatxonalarini masjidlardan baland qilib qurmaslik kabi ta’qilar ham bo‘lgan. Ammo bu ta’qilar ular ega bo‘lgan huquqlar oldida arzimagan narsa edi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, salib yurishlari davrida Yevropada paydo bo‘lgan va keyinchalik Usmoniylar sultanati bilan bo‘lgan ko‘p asrlik urushlar davrida keng tarqalgan islom aqidaparastligi haqidagi bo‘rttirib ko‘rsatilgan qarashlarga zid o‘laroq o‘rta asrlarda musulmon mamlakatlarida diniy tolerantlik – bag‘rikenglik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu inkivizitsiya to‘liq hukmronlik qilgan va har qanday yot g‘oyalar, ta’limotlar keskin ta’qib qilingan o‘rta asr Yevropasidan IX – XV asrlardagi islom davlatlarini ajratib turadigan asosiy belgilardan biridir.

Mahalliy boshqaruv tartiblari. O‘rta Osiyoning bosib olingan hududlarini boshqarish markazi Marv shahri bo‘lib, bu yerdan turib xalifaning noibi Movarounnahr hamda Xurosonni idora qilgan. VIII asrning o‘rtalariga kelib, Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. Bu davrda Movarounnahrda So‘g‘d, Shosh, Farg‘ona va boshqa mahalliy hukmdorlarning qo‘li ostidagi ma’muriy-idora usuli o‘z shaklini saqlab qolgan bo‘lib, mahalliy hokimlar

zimmasiga aholidan belgilangan soliqlarni yig‘ish, ma’muriy boshqaruvni amalga oshirish asosida islom dini g‘oyalarini aholi orasida yoyish asosiy vazifa etib belgilangan edi. Mahalliy xokimlar faoliyati xalifa tomonidan tayinlanadigan maxsus amirlar tomonidan qattiq nazorat ostiga olingan bo‘lib, bundan tashqari ular xalifaning Xurosondagi noibiga itoat etishlari shart bo‘lgan. Mahalliy hukmdorlarining ko‘pchiligi o‘z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan kishilar bo‘lib, bu dinni qabul qilmagan zodagonlar o‘z yerlaridan mahrum etilib, jizya-jon solig‘i va boshqa ko‘pgina soliq va to‘lovlarni to‘lar edilar. Umuman olganda, ulkan xalifalikning barcha hududlarida amalda bo‘lgan soliqlar (xiroj, zakot, jizya va boshqalar) tizimi Movarounnahrda ham joriy etilgan. Lekin, ba’zi hollarda (xususan, arablarga qarshi qo‘zg‘olonlar ko‘chaygan davrlarda) arab xalifalari va ularning noiblari aholining yangi dinga e’tiqodini iqtisodiy omillar bilan mustahkamlashga ham intilib, shariatda belgilangan soliqlarni e’tiqodli musulmonlardan olmagan davrlar ham bo‘lgan.

Arablar istilosidan keyin Movarounnahrda musulmon qonunchilik tizimi ham joriy qilindi. Islom huquqshunosligining asosini tashkil qiluvchi shariat muqaddas kitob - Qur’oni karim va Hadisi sharifga hamda Fiqhshunos olimlarning turli savollarga javoblari va qarorlariga tayanardi.

Shu tariqa, arablar istilosidan so‘ng O‘rta Osiyo tarixida yangi davr - siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning barcha jabhalarida hamda davlat boshqaruvi sud-huquq tizimida islomiy dunyoqarash hukmron bo‘lgan davr boshlandi.

4.3. Somoniylar davlati.

Movarounnahrda arablar bosqiniga qarshi bir qancha yirik qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan bo‘lib, ularni bostirishda mahalliy zodagonlar yordamidan foydalanib turilar edi. Bu esa mahalliy boshqaruvda ularning ahamiyatini oshirib yubordi.

IX asrning boshlaridagi siyosiy voqealar Xurosonda Tohiriyalar, Movarounnahrda Somoniylar xonadonining kuchayishiga olib keldi. 806 yilda Movarounnahrning bir qancha yirik shaharlarida arab lashkarboshisi Rofe ibn Lays boshchiligidagi xalifalikka qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarildi. Bu qo‘zg‘oloni bostirishda Somon qishlog‘i (Balx yaqinida, ba’zi manbalarda - Termiz yaqinida) oqsoqoli Somonxudotning avlodlari Xuroson noibi Ma’munga katta yordam ko‘rsatdilar. Bu xizmatlari uchun Somonxudotning nabiralari Movarounnahrning turli viloyatlarida mahalliy xokimiyatni qo‘lga olishdi. Xalifa Xorun ar-Rashid (786-809 yillar) yorlig‘i bilan Somonxudotning nabiralari – Nuh ibn Asad Samarqandga (820-842 yillar), Ahmad ibn Asad Farg‘onaga (820-865 yy), Yahyo ibn Asad Choch va Ustrushonaga (820-856 yillar), Ilyos ibn Asad Hirotga hokim etib tayinlandi.

Xuroson noibi Ma’mun 813 yilda Bag‘dodni egallab, akasi Aminni taxtdan ag‘daradi va xalifalik taxtiga o‘tiradi. Taxtni egallahda ko‘rsatgan yordami uchun Xurosonning yirik zodogonlaridan bo‘lgan Tohir ibn Husayn 821 yilda Xuroson va

Movarounnahr noibi etib tayinlandi. Tohiriyalar davrida (821-873 yillar) Movarounnahr rasman Tohiriylargacha tobe' hisoblansada, Somonxudodning nabiralari tomonidan idora etilardi.

873 yilda tohiriyalar hukmronligiga Yoqub ibn Lays boshchiligidagi Safforiylar xonadoni (873-901 yillar) tomonidan barham berilishi tufayli kelib chiqqan siyosiy o'zgarishlardan somoniylar Movarounnahrdagi mavqeini yanada mustahkamlash uchun foydalandilar.

Xalifa Mo'tamid (870-892 yy) Movarounnahrda somoniylar qudratini cheklash uchun Xuroson va Movarounnahr hukmdori etib Yoqub ibn Laysni tayinlagan bo'lsa-da, amalda somoniylar Movarounnahrni mustaqil boshqara boshladilar.

Somoniylar davlatining tashkil topishida Farg'onha hokimi Ahmadning xizmati katta bo'ldi. Samarqand hokimi Nuh vafotidan keyin Ahmad akasiga tegishli bo'lgan bu viloyatni ham egallab, o'z hokimiyatini Farg'onadan Samarqandgacha kengaytirdi. Uning vafotidan keyin Nasr ibn Ahmad (865-892 yillar) otasining siyosatini davom ettirib, Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga kirishdi. 874 yilda Buxoroda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonidan foydalangan somoniylar bu shaharni ham o'z tasarrufiga oldilar. Nasr o'z ukasi Ismoilni Buxoroga hokim etib tayinladi. Shu tariqa 875 yilga kelib butun Movarounnahr somoniylar tasarrufiga o'tadi. Shu yili Nasr ibn Ahmad xalifadan Movarounnahrni boshqarish uchun yorliq olishga muvaffaq bo'ldi va ilk bor o'z nomidan kumush dirxamlar zarb ettiradi. Buxoroda o'z mavqeini mustahkmlagan Ismoil akasi, Samarqand hokimi Nasrga bo'ysunishdan bosh tortgani uchun kelib chiqqan janglarda (888 va 892 yillar) Nasrning yengilishi va vafot etishi (893 y), Ismoilga Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lib qolishga yordam berdi.

Mustahkamlanib borayotgan somoniylar davlatini zaiflashtirish maqsadida Arab xalifasi 898 yilda Movarounnahr hokimligidan Ismoilni tushirib, o'rniغا safforiylar sulolasidan Amr ibn Laysni hokim etib tayinlash haqida yorliq jo'natadi. 899 va 900 yillardagi harbiy to'qnashuvlarda Ismoil Somoni Amr ibn Lays qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Natijada Xalifa Ismoil ibn Ahmadni Xuroson va Movarounnahr hukmdori sifatida tan olishga va maxsus yorliq jo'natishga majbur bo'ldi. Shu tariqa X asr boshlarida Xorazm, Isfijob, Chag'oniyon va Xuttalondan tashqari (ularning hokimlari somoniylarga rasman tobe edilar, xolos) Movarounnahr va Xurosonning katta qismiga amalda somoniylarga tobe bo'lib qoldi. Somoniylar Movarounnahr va Xurosonni amalda mustaqil, rasman xalifaning noiblari sifatida X asr oxirigacha boshqarib keldilar. 999-yilda bu sulola Qoraxoniylar sulolasini tomonidan xokimiyatdan mahrum qilindi.

Davlat boshqaruvi. Somoniylar davlatining amaldagi asoschisi Ismoil ibn Ahmad davrida davlat boshqaruvi, iqtisodiy va harbiy sohalarda qator samarali islohotlar o'tkazildi. Ismoil Somoni o'z diqqat-e'tiborini markazlashgan davlat tizimini barpo etishga qaratdi. Bu tizim asosini oliy hukmdor dargohi va devonlar (vazirliklar) majmui tashkil etgan. Oliy hukmdor amir unvoniga ega bo'lib, undan tashqari oliy hukmdorning barcha hukm va topshiriklari bajarilishini nazorat qilib

turgan. Xoris amiri lavozimiga ega amaldor ham bo‘lgan. Dargoh hamda boshqa qator muhim davlat idoralarining xavfsizligini amalga oshirish vazifasini bosh hojib va uning xodimlari bajarganlar. Dargohning xo‘jalik yumushlari faoliyatini vakil boshqargan. Bundan tashqari, dargohda dasturxonchi, eshik-og‘asi, sharbaddor va boshqa xizmatchilar ham bo‘lgan.

Somoniylar davrida 10 ta devon (vazirliklar) faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ular mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy hayotini boshqargan. Devoni vazir, devoni amid, devoni mustavfiy, devoni sohibshurot, devoni sohibbarid, devoni muhtasib, devoni mushrif, devoni qozi, devoni ziyo, devoni vaqfdan iborat bu devonlar ijroiya-boshqaruvin tizimining asosi hisoblanardi. Mamlakat poytaxti hisoblangan Buxoro shahridada har bir devon (vazirlik) uchun alohida binolar barpo etilgan edi. Bu devonlarning joylarda mahalliy bo‘limlari ham bo‘lib, ular viloyatlarda mahalliy ijro hokimiyatinini amalga oshirganlar.

Somoniylar davrida mahalliy boshqaruvin tizimi ham samarali faoliyat yuritgan. Viloyatlar boshliqlari hokim, shahar boshliqlari rais deb yuritilgan. Amaldorlarni davlat xizmatiga qabul qilishda ma’lum bir talablar: davlat tili hisoblangan arab tilini mukammal bilish, islomiy huquq – fiqx meyorlaridan to‘liq xabardorlik, tarix, adabiyot kabi ilmlardan boxabarlik, hisob-kitob ishlarida bilimdonlik va boshqalar mavjud bo‘lib, bu markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Davlat boshqaruvida harbiy ma’muriy amaldorlarning mavqeい ham katta edi. Ismoil Somoniy harbiy islohot o‘tkazib, turk sipohlaridan iborat milliy gvardiya hamda muntazam qo‘sish tuzganligi somoniylar davlatining harbiy-siyosiy qudratini ta’mindadi. X asr o‘rtalaridan boshlab davlat boshqaruvida turk lashkarboshilarining siyosiy mavqeい nihoyatda oshib keta boshlaydi. Buni Alp Tegin, Sabuk Tegin, Foiq va Simjuri kabi harbiyma’muriy amaldorlar faoliyati misolida ham ko‘rish mumkin. Bu holat davlat boshqaruvida ko‘p hokimiyatchilikka, markaziy hokimiyatning nufuzi tushib ketishiga olib kelardi. Bu esa oxir-oqibat somoniylarning xokimiyatdan butunlay mahrum bo‘lishlariga olib keldi.

Huquqiy munosabatlar. Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan bo‘lib, ular qozilik devoni tomonidan boshqarilgan. Sud jarayonidagi ishlar, qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari qozikalonga bo‘ysingan. Og‘ir jinoyat qilganlar o‘limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan.

Viloyatlarda og‘ir jinoyat sodir etganlar ishi qozikalon va amir hukmiga havola etilgan. O‘lim jazosini berish huquqiga faqat amir haqli bo‘lib, bu jazo ibrat uchun Buxoro Registonida, ko‘pchilik xalq oldida ijro etilgan. O‘g‘irlik qilganlarning qo‘li chopib tashlanar, bu jazo odatda o‘g‘ri ushlangan joyida, aholi ko‘pchilik bo‘lgan joylarda yoki bozorlarda amalga oshirilardi. Yengilroq gunoh qilganlarga tan jazosi (kaltak, darra) berilgan yoki jarima solingenan.

Somoniylar davrida islomdagi huquqiy munosabatlarni mahalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar ham yaratilganligini aytib o‘tish

kerak. Ulardan qozilik mahkamalarida yordamchi qo'llanma sifatida foydalanganlar. Masalan, faqih Abu Lays Nasr ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (vafoti 985 yili)ning «Xazinatul-fiqh» («Musulmonchilik qonun-qoidalari xazinasasi») asari va boshqalar shular jumlasidandir.

Somoniylar davrida davlat tili sifatida arab tilining mavqeい nihoyatda yuqori bo'lsada, fors-tojik va turk tillarining ham mavqeい va ahamiyati saqlanib qolindi.

Umuman olganda, somoniylar davrida davlat boshqaruvi va xarbiy siyosatning o'z davri uchun murakkab va salohiyatliz tizimi tashkil topgan. Mazkur masalaga juda katta e'tibor berilganligini shu narsadan ham bilsa bo'ladiki, davlatning umumiyligini daromadi 45 million dirxamni tashkil etgan holda, shundan 20 million dirham davlat boshqaruvi va lashkarga sarflangan.

4.4. Qoraxoniylar davlati.

Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi, hududi. Bu davlat Yettisuv hududidagi Qarluq (756-940 yy.) davlati o'rnida X asr o'rtalarida tashkil topdi. Uning asoschisi Sotuq Bo'g'roxon (915-955 yy.) hisoblanadi. Somoniylar davlatidagi ichki nizolardan foydalangan qoraxoniylar X asr oxirlarida Movarounnahr yerlarini ham egallahga va o'z davlati hududini kengaytirishga muvafaq bo'ldilar. Qoraxoniylar xukmdori Hasan Bug'roxon 992 yilda Buxoroni qo'lga kiritgan bo'lsada, G'azna viloyati xokimi Subuktegning yordami tufayli somoniylar xokimiyatni yana qisqa vaqt qo'lga olishga muvaffaq bo'ldilar. Lekin Nasr Iloqxon boshliq qoraxoniylar qo'shini 999 yilda Movarounnahrni to'liq egallab olishga erishdi. Xuroson esa Maxmud G'aznaviy tasarrufiga o'tdi. Shu tariqa, X asr oxirida somoniylar davlati hududida turkiy sulolalar barpo etgan ikkita davlat tashkil topdi.

Birinchisi, Qoshg'ardan Amudaryogacha cho'zilgan - Sharqiy Turkistonning bir qismini, Yettisuv, Shosh, Farg'ona va qadimgi Sug'diyona hududlarini o'z ichiga olgan qoraxoniylar davlati.

Ikkinchisi, Shimoliy Hindiston sarhadlaridan Kaspiy dengizining janubiy qirg'oqlarigacha cho'zilgan hamda hozirgi Afg'oniston va shimolisharqiy Eronni, Xorazm vohasini o'z ichiga olgan g'aznaviyilar davlati edi.

G'aznaviyilar davlati asoschisi Sulton Mahmud va qoraxoniylar xoni Nasr o'rtasida 1001 yilda tuzilgan shartnomaga ko'ra, Amudaryo ikki davlat o'rtasidagi chegara qilib belgilandi.

Qoraxoniylar davlati XI asrning birinchi yarmidayoq ichki siyosiy nizolar natijasida ikki qismga - G'arbiy qoraxoniylar davlati va Sharqiy qoraxoniylar davlatiga bo'linib ketadi. XI asr o'rtalarida "Tamg'ochxon" unvonini olgan qoraxoniylar hukmdor Ibrohim ibn Nasr G'arbiy qoraxoniylar davlatining poytaxtini O'zganddan Samarqandga ko'chirgach, Movarounnahr qoraxoniylar davlatining katta siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy hududiga aylandi.

Qoraxoniylar davlatidagi ichki nizolardan foydalangan saljuqiylar (XI asrning 2-yarmida), qoraxitoylar (XII asrning o'rtalari) va xorazmshohlar (XIII asr boshlari)

qoraxoniylarga tegishli hududlarni egallab oldilar. Qoraxoniy hukmdorlar bu davrlarda ularga rasman tobe' bo'lib, ularning hukmronligi 1212 yilda xorazmshoh Sulton Muhammad tomonidan butunlay tugatildi.

Davlat boshqaruvi. Qoraxoniylar davrida davlat boshqaruvi tartiblari somoniylar davri davlat boshqaruvi tizimidan tubdan farq qilmaydi. Saroy amaldorlarining nomlanishi va vazifalarida ham bu holatni ko'rish mumkin. Mamlakat oliv hukmdor - xon yoki xoqon tomonidan boshqarilib, eng ulug' xon - qoraxon unvoniga ega bo'lgan. Saroyda somoniylar davlatida bo'lganidek vazir, sohibbarid, mustavfiy, hojib, rais (Muhtasib), bitikchi (Munshi), kotib (Mirza), qushchi (xoqon ovining tashkilotchisi) va boshqa mansablar bo'lgan.

Qoraxoniylarda xoqonning taxti merosiy sanalib, taxt otadan o'g'ilga yoki akadan ukaga o'tishi asosiy qoida sifatida belgilangan. Ma'muriy idoralar ikki qismga - dargoh va devonga bo'lingan edi. Qoraxoniylarda ikki shahar - Koshg'ar va Bolasog'un poytaxt sanalib, ulug' xon shu shaharlardan biridagi qarorgohda o'tirib davlatni boshqarardi. Qoraxoniylar hukmdori "**Tamg'achxon**" yoki arablardagi "sulton us-salotin", forslardagi "shahanshoh" atamalariga muvofiq keladigan "**xoqon ul-xoqon**" degan nom bilan ham ulug'langan. G'arbiy qoraxoniylar davlatiga kirgan Movarounnahr xukmdorlari odatda **Eloqxon** (ularning ba'zilari o'zlarini **Tamg'achxon** deb ham ataganlar) yuritilar edi.

Qoraxoniylar davlatni ulus va viloyatlarga bo'lib idora qildilar. Mamlakat endilikda markazlashgan davlat tizimidan alohida mulk boshqaruv tizimiga o'tdi. El-yurt hokimlari "**Eloqxon**" deb yuritilar edi. Viloyatlar esa ma'lum siyosiy mavqega ega bo'lib, ular ham xondan kichikroq unvonga ega **iloqxonlar** tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Ular faoliyati ulug' xon tomonidan tayinlanadigan maxsus amaldorlar -**takin** deb ataluvchi noiblar tomonidan nazorat qilib turilardi. Shu tariqa qoraxoniylar tomonidan Movarounnahrning ishg'ol etilishi hududning siyosiy hayotida katta o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Qoraxoniy hukmdorlar garchi bu davrda hali o'troq hayotga ko'chmagan bo'lsalar-da dehqonchilik vohalari va shaharlarning madaniy ahamiyatini yaxshi anglar edilar. Bolosog'un, Qoshg'ar, Taroz, O'zgan, Samarcand, Buxoro kabi shaharlar umumdavlat miqyosida ham katta ahamiyatga ega hisoblanardi. Shaharlar shahar hokimi, raisi va muhtasiblari tomonidan boshqarilardi. Viloyat hokimlariga misdan chaqa tangalar zarb qilish huquqi berilgan bo'lib,

Movarounnahr eloqxoni qoraxoniy eloqxonlari orasida katta obro'-e'tibor qozongan edi.

Qoraxoniylarga qarashli yerlar **Tamg'achxon** tomonidan o'g'illari va qarindoshlari o'rtasida taqsimlangan edi. Shu bois yer-mulk masalasida otao'g'il, amaki-jiyanlar hamda aka-uka va. amakivachchalar o'rtasida doimiy nizolar yuz berib, u siyosiy ahvolga salbiy ta'sir ko'rsatib turardi.

Qoraxoniylar davlatida imom, sayyid, shayx, sadrlar kabi diniy ulamolarning ham mavqeい kuchli edi. Qoraxoniylar mamlakatda o'z hukmronligini mustahkamlab

olishga intilib musulmon ruhoniylari bilan yaqin va do'stona munosabatlar o'rnatadilar. Bu davrda din peshvolariga e'tibor kuchayib ularning obro'yi har qachongidan ham balandga ko'tariladi.

4.5. G'aznaviyalar va saljuqiylar davlati.

Sobiq sovet davri tarixshunosligida G'aznaviyalar, xususan mazkur davlatning eng yorqin namoyondasi Mahmud G'aznaviy shaxsi to'g'risida umumiy hamda bir yoqlama salbiy qarash ustunlik qilgan. Darslik va adabiyotlarda Mahmud G'aznaviyini asosan «talonchi», «zo'ravon hukmdor» deb ko'rsatish odat tusiga kirib qolgan edi. Mavzuning manbashunosligiga to'xtalganda bu sulola tarixi Abu Said Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Abulfazl Bayhaqiyining «Tarixi Mas'udiy» asarlarida ko'proq o'z aksini topganligini ta'kidlash joiz. Shu bilan birgalikda Nizomulmulkning «Siyosatnoma», Nizomiy Aruziy Samarqandiyning «Chahor maqola», Ibn al-Asirning «Al-Komil fit-tarix» va boshqalarda ham G'aznaviyalar davlati xususida tegishli ma'lumotlar uchraydi.

Somoniylar hukmronligi davridayoq sobiq turkiy qul (g'ulom)lardan tashkil topgan gvardiya saroy hayoti, umuman mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o'ynay boshlagan edi. Ushbu gvardiyaning boshlig'i hojib ham ahamiyatli lavozim egasi bo'lgan. Hojiblarning eng kattasi – Hojibi buzurg (ulug' hojib) bo'lib, u eng yuqori davlat amaldorlaridan biri bo'lgan.

Hojiblar ichida Alptegin alohida salohiyat egasi bo'lib, 35 yoshidayoq Xuroson sipohsolori darajasiga ega bo'lib, qo'lida 2700 nafar harbiy askarlari bo'lgan. U keyinchalik Abdulmalik I davrida (954-961) katta mavqe va ulkan yer mulklar egasiga aylandi. Amir vafotidan so'ng (961) Alptegin yangi amir Mansur I (961-976) bilan o'zaro nizoga borib qolib, bir qator to'qnashuvlardan so'ng, 961 yili G'azna va uning atrofidagi yerlarni egallaydi.

Alptegin o'z tarbiyasi va homiyligiga olgan sobiq turkiy qullar orasida Sabuqtegin ham bo'lgan. 963 yili Alptegin vafot etgach, G'aznada Somoniylar noibi sifatida uni Piriy, Ishoq, Bilgategin kabi shaxslar ketma-ket boshqarib kelishdi. Hudud rasman Somoniylarga qarashli deb hisoblangan.

Sabuqtegin asli Sirdaryo bo'yalarida yashagan barsxon turkiy qabilasiga mansub bo'lib, yoshligida asir olinib, so'ngra qul qilib sotilgan edi. Somoniylar turkiy gvardiyasi boshlig'i Alptegin uni o'z qaramog'iga olgan. Somoniylar davlatining turkiy askarlar qo'shinida xizmat qilgan Sabuqtegin 977 yildan boshlab G'azna va uning atroflarini Somoniylar noibi sifatida boshqaradi. Bu vaqtga kelib Somoniylar sulolasini inqirozga yuz tutgan bo'lib, Sabuqtegin rasman noib bo'lsada, aslida o'zini mustaqil hokimdek tuta boshlaydi. Shijoatkor sarkarda Sabuqtegin aynan Somoniylar amiri Nuh II (976-997 y.) dushmanlariga qarshi kurashda yordam berib, «Nosiriddin addavla» (Davlat va din himoyachisi), o'g'li Mahmud esa «Sayf ad-Davla» (Davlat shamshiri) degan sharaflı nomlarga sazovor bo'lishadi.

Sulton Mahmud G'aznaviyalar davlatining ustuni edi. Uning vafotidan so'ng o'g'li Mas'ud (1030-1041 y.) shuhrat pog'onasini saljuqiylarga topshirishga majbur bo'ldi. Mas'ud hukmronligi davrida saljuqiylar ta'siri kuchaya bordi. Avval 1038 yili Saraxs yaqinida bo'lган jangda sulton Mas'ud g'alaba qozongan edi. Saljuqiylar bundan tegishli xulosa chiqarib, o'z harbiy tayyorgarliklarini kuchaytirdilar. 1040 yil mayida bo'lib o'tgan Dandanaqon jangidan so'ng Xuroson saljuqiylar hukmiga o'tadi. Sulton Mas'ud mag'lub bo'lib G'aznaga chekindi. Bu esa g'aznaviyalar orasida norozilik va fitnaga sabab bo'ldi. Mas'udning ukasi Muhammad taxtni egallab, 1041 yil yanvarida Mas'udni qatl ettiradi. O'zi esa bor-yo'g'i 3 oy hokimiyatni egallab turdi. 1041 yil apreliagi jangdan so'ng Mas'udning o'g'li Mavdud taxtni egalladi. Sulton Mavdudning (1041-1049 yy.) G'aznaviyalar shuhratini qaytarish uchun olib borgan sayharakatlari deyarli besamar tugadi. Tez orada G'aznaviyalar davlati qo'li ostida sharqiy Afg'oniston va Shimoliy Hindistonning bir qismi qoldi, xolos. G'uriylar hukmdori G'iyosiddin Muhammad 1186 yili oxirgi sulton Xisrav Malikni Panjobda o'ldirib, butkul G'aznaviyalar sulolasiga xotima beradi.

G'aznaviyalar O'rta Sharq hududida yagona geosiyosiy maydonni birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar, shuningdek ular hukmronligi davrida ma'naviy hayotga tahdid soluvchi kuchlarga nisbatan chek qo'yildi, ilm-fan, adabiyot, shaharsozlik qurilishida ma'lum taraqqiyot yuz berdi.

Mahmud G'aznaviy X asr birinchi choragida musulmon sharqi siyosat maydonida katta o'rin tutgan buyuk sarkarda va yirik davlat arbobi sifatida tarixda nom qoldirdi. Har bir tarixiy shaxs kabi uning faoliyatni ham ziddiyatli va qaramaqarshiliklardan xoli bo'limgan. Ayniqsa, bu hol uning butun hukmronlik davrining asosiy mohiyatini tashkil etgan.

G'aznaviyalar davlatida boshqaruv tizimi Somoniylar, Qoraxoniyalar davridagi boshqaruvga yaqin bo'lgan. Boshqaruv tizimining markazida dargoh va devonlar (vazirliklar) turgan. Dargohda hojiblik xizmati alohida e'tiborga sazovor bo'lgan. Hojiblikning bu davrda tarixchi Bayhaqiy ta'kidlagan quyidagi shakllari bo'lgan: ulug' hojib, saroy hojibi, navbatchi hojib, hojibjomador. Ulug' hojib nafaqat hojiblar orasida, balki butun mamlakat hayotida katta mavqega ega bo'lgan. Masalan, Mahmud G'aznaviydan so'ng bevosita hokimiyat ishlarini qo'lga olgan ulug' hojib Ali Qarib ismli shaxs bo'lgan. Rasmiy marosimlar, turli tadbirlarda ulug' hojib hukmdorga eng yaqin joyda turgan. Janglarda ham unga qo'shining eng salmoqli va mas'uliyatlari qismiga boshchilik qilish vazifasi yuklatilgan. Masalan, hukmdor markaziy, sipohsolor o'ng qanot, ulug' hojib esa chap qanotiga boshchilik qilgan.

Dargoh faoliyatida sipohdor (saroy xizmatchisi), davotdor (hukmdor shaxsiy hujjatlari bilan bog'liq ishlarga bosh), pardador (maxfiy xizmatlarni bajaruvchi), martabador (o'rta darajadagi amaldor), farrosh (kichik xizmatchi), xazinachi, jomaxona (kiyim-kechak saqllovchi xona) boshlig'i kabi mansab va xizmatlarning ham o'z o'rni bo'lgan. Devonlar (vazirliklar) tabiiyki, ijroiya idoralari bo'lib, ularning manbalarda beshtasining nomi keltiriladi: vazir devoni, ya'ni bosh vazir devoni, harbiy ishlar devoni, diplomatik va boshqa rasmiy tadbirlar, hujjatlar devoni, moliya devoni,

xatxabar (pochta) devoni. Shuningdek, mushriflik (davlat nazorati), muhtasiblik xizmatlari ham bo‘lgan. Viloyat boshlig‘ini voliy deb atashgan, u hukmdor tomonidan tayinlanar edi. Viloyatdagi ijroiya boshqaruv ishlarini amid olib borgan. Shahar boshlig‘ini esa rais deb atashgan. Shahar miqyosida shihna, qutvol (qal'a komendanti), sohibi devon (ma'muriy boshqaruvchi) kabi amaldorlar ham faoliyat yuritishgan.

G‘aznaviylar, xususan Mahmud G‘aznaviy davrida kuchli qo‘sish yuzaga kelgan. Bosh qo‘mondon-sipohsolor mansabiga sulolaning eng ishonchli kishisi tayin etilgan. Masalan, Mahmud G‘aznaviy davrida bu mansabga Muhammad Yusuf tayin etilgan. Yuqori harbiy lashkarboshilar sarhang deyilib, ular xayl (bir necha o‘n otliq)larga boshchilik qilishgan. Harbiylar o‘z qozilik, xatxabar xizmatlariga ega bo‘lganlar. Dargohda shaxsan saralangan kuchli gvardiya ham alohida tarzda mavjud bo‘lgan.

G‘aznaviylar davrida ichki va tashqi savdo-sotiq aloqalari ancha rivoj topdi. Shaharlarda hunarmandchilik sohalari, qurilish, binokorlik, ganchkorlik va boshqalar taraqqiy etdi. Qishloq xo‘jaligi avval boshidagi inqirozdan so‘ng yana qaddini rostab ola boshladi, bozorlarda turli mahsulotlar turi ko‘paydi va hokazo.

G‘aznaviylar **(977 – 1186 yy.)**

- Sabuqtegin (977 – 997 yy.)
- Ismoil (997 – 998 yy.)
- Mahmud G‘aznaviy (998 – 1030 yy.)
- Muhammad (1030 yy.)
- Mas’ud I (1030 – 1041 yy.) Muhammad
(1041 y.)
- Mavdud (1041-1049 yy.)
- Ali ibn Mas’ud ibn Mahmud (1049 yy.)
- Bahouddavla Ali (1050 y.)
- Abdurrashid (1050 – 1053 yy.)
- Farruhzod ibn Mas’ud (1053 – 1059 yy.)
- Ibrohim ibn Mas’ud (1059 – 1099 yy.)
- Mas’ud III (1099 – 1115 yy.)
- Sherzod (1115 y.)
- Arslonshoh (1115 – 1119 yy.)
- Bahromshoh (1119 – 1153 yy.)
- Xisravshoh (1153 – 1160 yy.) Xisrav
Malik (1160 – 1186 yy.)

Saljuqiylar tarixi xususida bir qator tarixiy manbalar mavjud bo‘lib, ular orasida al-Movardiyning “Al-ahkom as-sultoniya val-valoyot addiniya” (“Sultonchilik

ahkomlari va diniy boshqaruvarlar”), Nizomulmulkning “Siyosatnoma” Sadriddin Ali Husayniyning “Zubdat at-tavorix”, “Tarixi Salojaqa” Zahiriddin Nishopuriyning “Saljuqiyonna”, noma’lum muallifning “Hudud ul-olam”, Mas’udiyning “Muruj az-zahab”, Abul Fazl Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy”, Abu Said Gardiziyning “Zayn ul-axbor”,

Ibn al-Asirning “Al-Komil fit-tarix” asarlarini alohida ta’kidlash joiz.

XIII asr tarixchilar, shu davrda yashagan davlat arboblari al-Bundariy, arRavandiy, Abul Faraj, ibn Bibi, Juvayniy va boshqalarning asarlari, esdaliklari ham shu davrni o’rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

XX asr tarixshunosligida saljuqiylar masalasi yuzasidan A.Lembton, K. Kaen, G.Xorst, NV.Kyuner I.Kafas o‘g‘li, S.Len-Pul, K.Bosvort, B.Zaxoder va boshqalar tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Saljuqiylar davlati xususidagi fundamental asar turkman tarixchisi S.Agadjanovga tegishli bo‘lib, yuqorida qo‘yilgan masala yuzasidan muallif tomonidan e’lon qilingan adabiyotlarda to‘laqonli ravishda o‘z aksini topgan.

Saljuqiylar kelib chiqishi bo‘yicha turkiy o‘g‘uz qavmiga tegishli bo‘lib, Sirdaryoning o‘rtal oqimidagi yerlarda ko‘chmanchi tarzda hayot kechirar edilar. O‘g‘uz qabilalari bir necha urug‘larga bo‘lingan edi. Ushbu urug‘lardan biriqiniq urug‘i bo‘lib, uning sardori – Saljuq ibn Do‘kak ismli kishi bo‘lgan. Tarixchilar, xususan Ibn al-Asir Saljuqni iste’dodli, o‘z fikr-mulohazasiga ega rahbar sifatida ta’riflagan. Ular ma’lum sabablarga ko‘ra 925 yili Jand viloyatiga kelib o‘rnashib, so‘ngra islom dinini qabul qiladilar. Bu yerda boshqa ko‘chmanchi turkiy qavmlar bilan turli darajadagi kurashlar bo‘lib bo‘lib o‘tadi.

Saljuqning Muso, Yunus, Mikoil ismli o‘g‘illari bo‘lgan. Isroil manbalarda Arslon nomi bilan keltiriladi, Dovud esa Chag‘ri nomi bilan ataladi. To‘g‘rul keyinchalik o‘ziga Muhammad ismini ham olgan. Tarixiy manbalarning xabariga ko‘ra Saljuq Jandda 102 yoshda vafot etib, o‘scha yerga dafn etilgan. Mikoil ham o‘zaro kurashlarning birida halok bo‘lib, uning o‘g‘illari To‘g‘rul va Dovudlar Buxorodan 12 farsah uzoqlikdagi yerlarga kelib o‘rnashdilar. Arslonxon (Isroil) Qoraxoniylar xizmatiga o‘tib katta mavqega ega bo‘lgan, Alpteginga Movarounnahrni olib berishda yordam bergan.

Qoraxoniylarning Amudaryodan janubga o‘tishlariga qarshi harakat boshlagan Mahmud G‘aznaviy saljuqiylarning kuch-quvvati, harbiy salohiyatini guvohi bo‘ldi. U saljukiylardan Arslon ibn Saljuqni ham qo‘lga oldi. U 7 yil hibsda bo‘lib 1032 yili vafot etdi. Shundan so‘ng saljuqiylarga To‘g‘rul va Dovud boshchilik qila boshlashdi.

Shu voqeadan so‘ng Mahmud G‘aznaviy 1025 yili 4000 oiladan iborat saljuqiylarga Amudaryodan kechib o‘tib, Saraks, Farova, Obivard atroflaridagi yerlarga kelib o‘rnashishga ruxsat berdi. Saljuqiylarning bir qismi Isfahon va Kirmonga ketishlari ma’lum ziddiyatlarni keltirib chiqardi. 1029 yili Mahmud G‘aznaviy ularga qarshi kurash olib bordi. Saljuqiylar avval Mahmud G‘aznaviy, so‘ngra uning o‘g‘li Mas’udning soliq siyosatiga qarshi chiqa boshladilar. Bu paytda Xorazmda ham vaziyat keskinlashdi. G‘aznaviylargaga qaram bo‘lgan Oltuntosh

vafotidan so‘ng uning o‘g‘li Horun ibn Oltuntosh Xorazm hokimi etib tayinlangan edi. Horun qoraxoniylar bilan til biriktirgan holda, 1030 yili Xurosonga yurish qildi. Mas’ud Horunni yo‘q qilishga muvaffaq bo‘ldi hamda qoraxoniylar bilan diplomatik kelishuvni amalga oshirdi. 1035 yilga kelib saljuqiylarning Xurosonda navbatdagi norozilik isyonlari boshlandi. Isyonlar oqibatida ko‘plab nomaqbul ishlar, talonchilik harakatlari ham bo‘lib o‘tib, bu haqli tarzda oddiy aholi noroziligiga olib keldi. 1038-1039 yillarda Mas’ud G‘aznaviy Balxdan Saraxs tomon qo‘sish tortib, saljuqiylarning o‘sha yerdagi qismlarini tor-mor keltirdi. Mas’uddan uzoqroqda bo‘lgan To‘g‘rulbek esa Nishopur atroflarini egallab, katta o‘ljani qo‘lga kiritdi. Saljuqiylarning To‘g‘rulbek va Chag‘ribek Dovud boshchiligidagi qo‘sishlari Xurosonning turli hududlarida o‘z mavqelarini oshirdilar. 1040 yil bahorida Saraxs va Marv oralig‘idagi sahroda joylashgan Dandanaqon nomli kichik qal‘a yonidagi jang G‘aznaviylar sultonini Mas’ud G‘aznaviyning (1030-1041) mag‘lubiyati bilan tugadi.

Ta’kidlash lozimki, Saljuqiylar davlati singari ulkan hududlarni o‘z ichiga olgan davlatni yagona markazdan turib boshqarish oson emas edi. Shuning uchun ham markazdan turib boshqaruvdagi qiyinchiliklar, sulola vakillarining toju-taxt uchun kurashlari, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishlari, qaram o‘lkalardagi norozilik harakatlari Saljuqiylar davlatining zaiflashuviga sabab bo‘lgan edi. Natijada Sulton Sanjar davriga kelib (1118-1157) Saljuqiylar davlatining g‘arbiy Iroq qismida uning ta’siri pasayib ketdi. Mamlakatning sharqiy qismi – Eron, Afg‘oniston, Xorazm va Movarounnahrda sultonning ta’siri birmuncha kuchli edi. Ammo, 1141 yilda Sulton Sanjar va uning vassali hamda ittifoqchisi, qoraxoniy Mahmudxonning birlashgan qo‘sishlari bilan qoraxitoylar o‘rtasida Samarqand yaqinidagi Qatvon cho‘lidagi jangda Sulton Sanjar qo‘sishlari mag‘lubiyatga uchraydi. Natijada Movarounnahr qo‘ldan ketib, sultonning mavqeい ancha pasayib ketadi.

Saljuqiylarning mag‘lubiyatidan xorazmshoh Qutbiddin Muhammad Otsiz ustalik bilan foydalanib, 1141 yilning qishida saljuqiylarning poytaxti Marvni bosib oldi va 1142 yilda Nishopurga yurish qildi. Lekin, Sulton Sanjar Xorazm qo‘sishlarini Xurosandan quvib chiqardi va Otsizni yana o‘ziga bo‘ysundirishga erishdi. Sulton Sanjarning harakatlariga qaramay, Saljuqiylar davlati o‘zining avvalgi qudratini yo‘qota boshlagan edi. Saljuqiylarga hal qiluvchi zARBANI Balx va Xuttalon viloyatlarida yashovchi o‘g‘uz qabilalari berdi. 1153 yilda ular Sulton Sanjar qo‘sishlarini tor-mor etib, uning o‘zini asir oldilar. O‘g‘uzlar himoyasiz qolgan Marv va Nishopur shaharlarni talon-taroj qilib, ularga o‘t qo‘ydilar. Sulton Sanjar 1156 yilda asirlikdan qutulishga muvaffaq bo‘lsa ham, lekin Saljuqiylar davlatini qayta tiklay olmadidi. U bir yildan so‘ng vafot etdi. Sulton Sanjar vafoti bilan (1157 y.) saljuqiylarning O‘rta Osiyodagi hukmronligi o‘z poyoniga yetdi.

Saljuqiylar hukmronligi u yoki bu darajada 1157 yildan – 1194 yilgacha faqat G‘arbiy Eron va Iroqda saqlanib qolindi. Saljuqiylar davlat boshqaruvi o‘ziga xos edi. Davlat boshlig‘i, oliy hukmdor saljuqiylar xonadoni vakili bo‘lib sulton ul-a’zam unvoniga ega bo‘lgan. Ilgarigi sulolalarda bo‘lgan kabi, sulton nomiga xutba o‘qilib, tangalar zarb etilgan. Mol-mulk, yer-suv taqsimlash davlat va boshqaruv mansablariga

tayinlash, davlat kirim-chiqimlarini nazorat qilib turish, amaldorlar va xizmatkorlar faoliyatini nazorat qilish, yangi qal'alar, shaharlar, hashamatli inshootlar qurishga boshchilik qilish kabilar sultonning zimmasida bo'lgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimida bosh vazir alohida mavqega ega bo'lgan. Manbalarda bosh vazir-rais ur-ruaso (raislarning boshlig'i), sayyid ur-ruaso (boshliqlarning kattasi) deb atalib, u barcha devonlar faoliyatiga rahbarlik qilgan holda xazina, moliya, soliq, davlatga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish muassasalari ishlarini nazorat qilgan.

Saljuqiylar boshqaruv tizimi dargoh va devonga bo'lingan bo'lib dargohdagi eng asosiy xizmat va vazifalar quyidagilar edi:

Ulug' hojib – oliy hukmdorning eng yaqin kishisi, dargoh bilan devonlar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib turuvchi, rasmiy qabullarni uyushtiruvchi amaldor;

Amiri horis – oliy hukmdor chiqargan jazolar hukmlarini ijro etish bilan shug'ullanuvchi amaldor;

Salohdor – saroydagi qurol-aslaha, ayniqlsa oliy hukmdorga tegishli narsalarni saqlash bilan shug'ullanuvchi amaldor;

Xos vakil – dargoh ishlarini boshqaruvchi amaldor;

Jangdor – sulton va dargoh xavfsizligini ta'minlovchi amaldor. Undan tashqari oliy hukmdor huzuridagi dargoh faoliyatini ta'minlashda jomador, sharobdor, choshnigir (sultonning ovqatlanishiga mas'ul), sarhang, miroxo'r, tashtdor kabi amaldorlar ham xizmatda bo'lgan.

Saljuqiylar davlat boshqaruvidagi devonlar sulolaviy va rasmiy devonlarga bo'lingan. Sulolaviy devonlar oliy hukmdor xonadoni faoliyati bilan bog'liq bo'lib, bu xonadonga tegishli bo'lgan mol-mulk, yer-suv, xazina kabilarning boshqaruvi va hisob-kitobi bilan shug'ullangan. Rasmiy devonlar qo'yidagilar bo'lgan:

Devoni tug'ro – bu devon oliy hukmdorning farmonlari, qarorlari, rasmiy yozishmalari va hujjatlarini tayyorlab, ularni muhr bostirishga taqdim etgan. Joylarga

rasmiy hujjatlar yuborish, ulardan hujjatlar qabul qilish, chet ellarga maktublar yuborish, davlat hujjatlarida maxfiylikni ta'minlash ham shu devonning vazifasi edi;

Devoni istifo (molija devoni) – davlat kirim-chiqimlarini, soliqlar, boj va boshqa molijaviy daromadlar, ularni alohida ro'yxatga olish bilan shug'ullangan. Bu devonning xizmatchilari dargoh kirim-chiqimlari, xazinadagi ahvol, mavjud naqd pulning hisobi, davlat qaramog'ida bo'lganlarga ketadigan xarajat, maosh, nafaqa miqdori kabilarni ham nazorat qilganlar;

Devoni ishrof (davlat nazorati) – molija-soliq ishlarini nazorat qilish va tekshirish, vaqfga tegishli mulklar ustidan umumiy nazorat olib borish, sulolaga tegishli yer-suvar, qimmatbaho molija qog'ozlari, zarbxonalar, amaldagi muhrlar, bozor mutasaddilari, soliqchilar, qishloq oqsoqollari va boshqa amaldorlar ustidan nazorat olib borgan;

Devoni arz (harbiy vazirlik) – lashkarga mo‘ljallangan maosh va ta’midot, harbiylarning ro‘yxati, yangilanib turishi, harbiy qismlarning tarkibiy soni, ularga ketadigan xarajatlarning turi va hajmi, ot-ulov, harbiy yurishlar paytidagi ta’midot, harbiylar ko‘rigini tashkil etish kabi vazifalarni bajargan.

Saljuqiylar hokimiyatida, ayniqsa Sulton Sanjar hukmronligi davrida hokimiyatda harbiy sarkardalar katta o‘rin egallaganlar. Harbiy boshliqlar va sarkardalarning ko‘pchiligi turli urug‘ va qabilalardan (o‘g‘uz, turkman, xalaj, chig‘il va boshq.) chiqqan kishilardan bo‘lgan. Harbiy sarkardalar tabaqasi o‘z ta’sirini Sulton Sanjar boshqarayotgan hokimiyatga o‘tkazib, ularning ixtiyori bilan ish tutishni talab qilganlar. Harbiy sarkardalarning mavqeい Sulton Sanjarning Qatvon cho‘lidagi mag‘lubiyatidan so‘ng yanada kuchayib ketgan edi.

Saljuqiylar davri mahalliy boshqaruv tizimida viloyat boshliqlari (voliylar) ham o‘z devonlariga ega bo‘lganlar. Voliylarni oliy hukmdor tayinlagan va mansabidan olgan. Voliylar butun viloyat hayoti bilan bog‘liq barcha sohalarga boshchilik qilganlar. Moliya, soliq, sud, harbiy ishlar, jazo idoralari voliylar nazorati ostida faoliyat ko‘rsatgan. Tumanlar va shaharlar miqyosidagi boshqaruv tizimi ham viloyatlarniki singari bo‘lgan.

Saljuqiylar **(1040 – 1157 yy.) To‘g‘rulbek**

(1040 – 1063 yy.)

Alp Arslon (1063 – 1072 yy.)

Jaloliddin Malikshoh I (1072 – 1092 yy.)

Mahmud I (1092 – 1094 yy.)

Rukniddin Berkiyorouq (1094 – 1104 yy.) Malikshoh II
(1104 – 1105 yy.)

G‘iyosiddin Muhammad (1105 – 1118 yy.)

Muiziddin Sanjar (Sulton Sanjar) – (1118-1157 yy.)

4.6. Xorazmshoh - anushteginiylar davlati.

Tashkil topishi, hududi. Xorazmda 305-yildan boshlab hukmronlik qilgan afrig‘iylar sulolasini tugatib (996 yil) Xorazm poytaxtini Qatdan Urganchga ko‘chirtirgan Ma’mun ibn Muhammad (995-997) ma’muniylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola 1017 yilda Mahmud G‘aznaviy qo‘sishnlari tomonidan tugatilgach, Xorazm XI asrning o‘rtalarigacha g‘aznaviylar davlati tarkibida bo‘lib keldi. Saljuqiylar davlatining tashqil topishi va kuchayishi natijasida Xorazm vohasi ham g‘aznaviylarning ko‘plab hududlari singari Saljuqiylarga tobe’ bo‘lib qoldi va XII asrning o‘rtalarigacha, ya’ni saljuqiylar Xuroson va Eronda siyosiy hokimiyatdan mahrum bo‘lgunga qadarda bu davlati tarkibida bo‘ldi.

1076 yilda saljuqiy hukmdor Malikshoh (1072-1092) o‘z tashtdori Anushtakinni Xorazmga hokim etib tayinlagan edi. Anushtakinning nabirasi Otsiz

(1127-1156) Xorazmni mustaqil davlatga aylantirish uchun qattiq kurash olib borgan bo‘lsa-da, faqatgina so‘nggi buyuk saljuqiy hukmdor Sulton Sanjar (1118-1157) vafotidan keyin Xorazm mustaqil davlatga aylandi.

Elarslon (1156-1177), Takash (1172-1200) hukmronligi davrida Xorazm ancha kuchaydi. Xuroson, Eron, Iroq va Kichik Osiyoning katta qismi Xorazmga bo‘ysundirildi. Sulton Muhammad (1200-1221) XIII asr boshlarida Movarounnahrni ham qo‘lga kiritib, qoraxoniylar sulolasiga butunlay barham berdi.

Xorazmshoh anushtakiniylar davlati 1219-1221 yillarda mo‘g‘ullarning Movarounnahrga uyushtirilgan harbiy istilolari tufayli tugatildi. Mashhur turk sarkardalari – Xo‘jand xokimi Temur Malik va anushteginiylar taxti merosxo‘ri Sulton Jaloliddin Manguberdi mo‘g‘ullarga qarshi kurash olib borgan bo‘lsalar-da, xorazmshohlar davlatini saqlab qola olmadilar

Davlat boshqaruvi. Xorazmshohlar davlatida mutlaq xokimiyat davlat boshlig‘iga, ya’ni Xorazmshohga tegishli edi. Saroy dargohida asosan Xorazmshohning hukmdor sifatidagi faoliyatiga yordam beruvchi quyidagi amaldorlar to‘planganligini ko‘rish mumkin:

-hojib ul-kabir - hukmdor shaxsi bilan bog‘liq masalalar, marosimlarning nazorati bilan aloqador ishlarga javobgar edi. Ular sultonning eng zarur topshiriqlarini bajarishgan hamda hukmdorga doimiy ravishda hamrohlik qilganlar. Ular vazirlik devonining daftarlari, undagi yozuvlar, arxivlar, moliya sohasidagi kitoblar va amaldorlarning hattiharakatini nazorat qilgan. Hojib ul-kabir bilan bir qatorda hojib ul-xos ham tilga olinadi;

-ustozdor – barcha xo‘jalik ishlari: otxona, oshxona, novvoy, saroy xizmatkorlari ustidan idora ishlarini amalgalash oshiradigan saroy ayoni. U bundan tashqari, saroyning barcha chiqimlari nazoratini amalgalash oshirib, mamlakat xazinasi hisobidan novvoy, oshpaz, otboqar va boshqalarga maosh belgilari, saroy ishlarini hamda yumushlariga sarflar edi. Bu amaldor xazinadan chiqadigan sarf-xarajatlar uchun shohga hisobot berib turgan.

-amiri-oxur yoki miroxur – otxona boshlig‘i lavozimi bo‘lib, bu amaldor sultonga qarashli minib yuriladigan otlarga egalik qilgan.

Merosxo‘rlar harbiy yurishlarda faol ishtirok etganlar;

-amiri-shikor – sultonning ov ishlarini tashkil qiluvchi amaldor;

-tashtdor – sultonning yuvinishi uchun zarur bo‘lgan ashyo va narsalarni saqlovchi shaxs. Uning qo‘l ostida g‘ulomlari bo‘lgan. Deyarli barcha sultonlarning ayrim yashirin amallari borligi uchun ham tashtdor hukmdorga eng yaqin kishi hisoblanar edi. Xorazmshohlar davlatida tashtdorlar malik unvoniga ham ega bo‘lishgan. Ayrimlari hatto o‘n ming askarlarga boshchilik qilib, harbiy yurishlarda qatnashganlar.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari sharobdor (sulton sharobxonasining boshlig‘i), qissador, choshnigir (u ko‘p hollarda bakovul, ya’ni

sultonga uzlatilajak taomni sinab ko‘rvuchi amaldor bo‘lgan), davotdor (sultonning kotibi), farosh va boshqa kichik saroy mulozimlari ham bor edi.

Markaziy davlat boshqaruvi “al-majlis ul-oliy al-faxri at-toji” deb nomlangan bo‘lib, unga vazir raislik qilgan. Vazir Xorazmshohga bevosita buysunar va hukmdorning bosh maslahatchisi edi. Vazirning vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: asxob ad-davovin, ya’ni devon amaldorlarining boshlig‘i sifatida kishilarni yuqori mansabga tayinlash va bo‘shatish, davlat amaldorlariga nafaqa (arzak) belgilash, davlat amaldorlarining ta’mintonini amalga oshirish, soliq va xazinani nazorat qilish, hukmdorni xalqaro aloqalar, rasmiy marosimlarda rasmiy ravishda tanishtirish hamda raiyat bilan munosabatlarida vositachilik qilish, hukmdorga muntazam hamkorlik qilish, ba’zi paytlarda qo‘shinga boshchilik qilish va boshqalar.

Vazirlar sadr, dastur, xojayi buzurg singari unvonlarga ega bo‘lib, turk, arab hamda fors tilini bilishi, ma’muriy ishdagi qobiliyatlar, saroy odobi singari bilimlarga ega bo‘lishligi shart bo‘lgan. Xorazmshohlar davlatining vazirlari asosan Xorazm, Buxoro, Nishapur, Isfaxon, Balx Xirotdan chiqqan shaxslar bo‘lgan. Xorazm davlatiga qarashli viloyatlarning ma’muriy boshqaruvida ham vazirlar bo‘lgan. Ba’zan shaharlarga ham vazirlar tayinlangan bo‘lib, ular o’sha joyda mahalliy boshqaruvni amalga oshiruvchi yagona hokim hisoblanar edilar.

Xorazmshohlar davlati ma’muriy jihatdan viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib, viloyatlar Xorazmshohlar tomonidan tayinlanadigan amaldorlar tomonidan boshqarilgan. Mahalliy boshqaruvida ulardan tashqari shixna - qishloq va muzofot hokimi, mutasarruf – moliya va xiroj ishlari ma’murlari, mirob – suv taqsimoti bilan shug‘ullanuvchi, omil – xiroj yig‘uvchi amaldorlar va boshqa mansab va lavozimlar egalari ham katta o‘rin tutganlar.

4.7. Chig‘atoi ulusi.

Mo‘g‘uliston, Xitoy va Sharqiy Turkistonni egallab yangi davlatga asos solgan Chingizzon 1219-1221 yilarda Xorazmshohlar davlati hududlarini ham egallab, ulkan imperiyaga asos soldi. Chingizzon hijriy 624 yilda (milodiy 1227 yil) 73 yoshida vafot etadi. Abulg‘izi Bahodirxon o‘zining mashhur

“Shajarai turk” asarida Chingizzonning to‘ng‘iz yilida tug‘ilganini, to‘ng‘iz yilida xon bo‘lganini va to‘ng‘iz yilida vafot etganini katta ajablanish bilan yozib qoldiradi. Chingizzon o‘limidan oldin o‘g‘illari O‘qtoy, Chig‘atoi, To‘lixon va Jo‘jixonning farzandlarini (Chingizzonning katta o‘g‘li Jo‘jixon otasidan olti oy oldin ov paytida sirli ravishda vafot etgan edi) huzuriga chorlab, bosib olgan hududlarini ularga taqsimlab bergen edi. Uyg‘urlar o‘lkasi va Oltoyning janubiy qismidan Amsudaryo sohillarigacha bo‘lgan hududlar uning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoiga berilgan bo‘lib, bu hudud mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Chig‘atoi ulusi deb atalardi.

Harbiy-siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi. Mo‘g‘ullar asos solgan davlat yarim ko‘chmanchi tipdagi, asosan harbiy tartiblarga muvofiq kelgan davlat

boshqaruviga ega siyosiy tashkilot edi. Chingizzxon va uning avlodlari xon unvoni sohiblari edilar. Ularning qo‘li ostidagi boshqaruv tizimida turli unvon, martaba va mansab egalari bo‘lgan. Bunday amallarning aksariyati harbiy boshqaruv tartiblariga mos tushardi. Davlat boshqaruvida harbiy sarkardalar va qo‘shin boshliqlarining nufuzi ancha salmoqli edi. Faqat ulug‘ xonga itoat etadigan maxsus harbiy bo‘linma - manbalarda keshik nomi bilan ataluvchi harbiy qism mavjud bo‘lib, undan o‘ta favqulodda holatlarda foydalilanigan. Yirik harbiy bo‘linma boshida no‘yonlar, bahodirlar va merganlar turgan. O‘n ming askardan iborat tumanga xonning farzandlari ham boshchilik qilishgan. Tumanlar o‘z navbatida minglik, yuzlik, o‘nliklarga bo‘lingan va har bir bo‘g‘inda harbiy boshliqlar: mingboshi, yuzboshi va o‘nboshilar turgan. Chingizzxon qo‘shinining asosiy qismi turli turkiy qabilalardan tuzilgan bo‘lib, qattiq harbiy intizom o‘rnatilgan bu qo‘shin o‘z davrining haqiqatdan ham qudratli jangovar armiyasi sanalardi.

Movarounnahr va Yettisuv mo‘g‘ullar davrida Chig‘atoj ulusi tarkibiga, Xorazmning g‘arbiy qismi Oltin O‘rda davlati, qolgan qismi Chig‘atoj ulusi tarkibiga kiritilgan edi. Chig‘atoj ulusi Yettisuvdagagi Ili daryosi bo‘yidagi Olmaliq shahridan turib boshqarilardi. Mo‘g‘ullar ko‘chmanchi xalq bo‘lganliklari uchun davlatni boshqaruv ishida anchagina no‘noq edilar. Shuning uchun ham ular bosib olingen hududlarni boshqarishda o‘zlari tomonidan tayinlangan noiblar yordamiga muhtoj edilar. Chig‘atoj ulusi davrida Movarounnahrni boshqarish ishlari mahalliy hukmdorlarga, mahalliy boy zodagonlar qatlamiga topshirilgan edi. XIV asrda Movarounnahrni xorazmlik yiriq savdogar Mahmud Yalavoch (1226-1238) va uning o‘g‘li Mas‘ubek (1238-1289) xon noibi sifatida boshqarib keldilar. Movarounnahrda juda katta huquqga ega bo‘lgan Mahmud Yalavoch va Mas‘ubekning qarorgohi Xo‘jand shahrida edi. Noibning asosiy vazifasi belgilangan soliqlarni yig‘ish va ulug‘ xon qarorgohiga yetkazish, aholini itoatda saqlab turish hisoblanardi. Noiblar Xo‘janddan turib o‘z qo‘li ostidagi mo‘g‘ul harbiy bo‘linmalari yordamida davlatni boshqargan, soliqlarni yiqqanlar. Buxoroda esa mahalliy zodagonlar va ruhoniy rahbarlar mamlakatda boshqaruvni o‘z qo‘llariga olgan edilar. Bular mahalliy amirlar va sadrlar hisoblangan.

Movarounnahrni deyarli mustaqil boshqargan Mahmud Yalavoch 1338 yildagi Mahmud Torobiy boshchiiligidagi mo‘g‘ullarga qarshi ko‘tarilgan xalq harakati tufayli o‘z vazifasidan bo‘shatiladi. Lekin Chingizzonga va keyingi mo‘g‘ul xonlariga ko‘rsatgan xizmatlari hisobga olinib, Xonbaliq (Pekin) shahriga gubernator qilib tayinlanadi. U bu lavozimda to umrining oxirigacha (1254) turgani ma’lum. Mavorounnahrqa noib etib tayinlangan Mas‘ubek esa otasi siyosatini davom ettirib, mo‘g‘ullarga sodiq xizmat qildi.

Mo‘g‘ullar davrida maxsus hujjat-payzalarga ega bo‘lgan kishilar ham mahalliy boshqaruvda katta nufuzga ega bo‘lganlar. Bunday alohida yorliqlarga ega xon xonadoni vakillari, turli darajadagi amaldorlar, savdogarlar va ruhoniylar qiyofasidagi ayg‘oqchilar joylarga safar qilganda mahalliy aholi ularni turar joy hamda oziq-ovqat va ot-ulov bilan ta’minlash kabi harajatlarni qoplashi shart edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Mo‘g‘ul istilosini Markaziy Osiyo xo‘jaligiga ham katta zarar yetkazdi. Mahalliy hukmdorlarning o‘zboshimchaligi tufayli belgilab qo‘yilgan turli to‘lovlar va soliqlarning bir necha marta oshirilishi xalqning ahvolini chidab bo‘lmas darajaga yetkazdi. O‘zboshimchalik va zo‘ravonlik, xavfsizlikka qarshi hech qanday kafolat berilmagani omon qolgan shahar va qishloq aholisida xo‘jalikni rivojlantirishga bo‘lgan ishtiyoyini butunlay so‘ndirgan edi. Shuning uchun ham mo‘g‘ul bosqinidan keyingi dastlabki o‘n yilliklar davrida Markaziy Osiyoda iqtisodiy, ijtimoiy ahvol yanada yomonlashib bordi. Natijada XIII asrning 30-yillaridan boshlab dehqonchilik vohalari aholisi va shahar hunarmandlari orasida mo‘g‘ullar zulmiga qarshi kurash kuchaya boshladi. Bunday harakatlar Buxoroda ayniqsa kuchli edi. 1238 yilda Buxoro yaqinidagi Torob qishlog‘ida ko‘tarilgan qo‘zg‘olonga toroblik hunarmand (elak sozlovchi) Mahmud Torobiy boshchilik qildi. Lekin qo‘zg‘olon shafqatsizlik bilan bostirildi.

XIII asrning ikkinchi yarmiga kelib mo‘g‘ul hukmron doiralari o‘rtasida boy madaniy viloyatlardan foydalanish masalasida ikki xil munosabat paydo bo‘ldi. Ko‘chmanchi harbiy zodagonlarning katta qismi, xonzodalar va ayrim hoqonlar o‘troq hayotga mutlaqo qarshi edilar. Mahalliy zodagonlar, ruhoniylar va savdogarlarning asosiy qismi hamda ba’zi bir xonlar o‘troq hayotga o‘tish uchun kurash olib borib, markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilar edilar.

Bunday siyosat tarafdarlaridan biri Mo‘g‘ulistonning ulug‘ xoqoni Munkexon va Chig‘atoy ulusi noibi Ma’subek edi. Ayniqsa, Munkexonning qonunlashtirilgan chora-tadbirlari cheklanmagan soliq va yig‘imlarni tartibga solib aholini o‘zboshimchalik bilan yig‘ib olinadigan soliqlardan ozod etdi, ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Buning natijasida XIII asrning 70-80 yillariga kelib Movarounnahrda astasekinlik bilan shahar hayoti, hunarmandchilik va savdo munosabatlari jonlana boshlandi.

1271 yilda Mas’udbek pul islohoti o‘tkazdi. Bu islohot Movarounnahr shaharlarining ichki hayotini, ayniqsa pul munosabatlarining tiklanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Mas’udbek Samarqand, Buxoro, Termiz, Taroz, O‘tror, Xo‘jand, Naxshab kabi ko‘pgina shaharlarda bir xil vazn va yuqori qiymatli sof kumush tangalar zarb ettirib, ularni butun mamlakat bo‘ylab muomalaga chiqardi. Bu hol ichki savdo va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib, aholining kumush tangalarga ishonchi mustahkamlandi, tanga nufuzi ortib bordi. Bu savdo-sotiq va umuman iqtisodiy rivojlanishga birmuncha ta’sir ko‘rsatdi.

Chig‘atoy ulusi XIV asr boshlariga kelib amalda ikki qismga bo‘linib ketadi. Kebekxon xukmronligi (1318-1326) davrida ulusning markaziy boshqaruvi Yettisuvdan butunlay Movarounnahrga ko‘chirildi. Kebekxon mo‘g‘ullar istilosini tufayli tashlab ketilgan va vayronaga aylangan Nasaf shahridan ikki farsah uzoqlikda o‘ziga yangi saroy barpo ettirdi. Uning atrofida hozirgi Qarshi shahri shakllandi. Kebekxon o‘zining ko‘p tarmoqli islohotlarini ushbu shaharda turib amalga oshirdi. O‘tkazilgan harbiyamuriy islohotlar natijasida Chig‘otoy ulusi tumanlarga bo‘lib

chiqildi. Bu ma'muriy birliklar keyingi tarixiy davrlarda ham saqlanib kelindi. Kebekxon o'tkazgan pul islohoti natijasida butun mamlakatda bir hil vazniga ega bo'lgan kumush tangalar zarb etildi va muomalaga kiritildi. Sof kumushdan yasalgan bu tangalar Chig'atoy ulusidagi iqtisodiy ahvolni, moliya tizimini ma'lum vaqt yaxshilashga xizmat qildi. Kebekxon zarb qildirgan kumush tangalar Oltin O'rda davlati orqali rus knyazliklariga ham kirib borgan bo'lib, Rossiyada "Kopeyek" atamasi hozirgacha mayda tanga pullarga nisbatan ishlatalib kelinmoqda.

Chig'atoy ulusida aholidan ko'plab to'lovlar va soliqlar yig'ib olinar, turli majburiy mehnatga jalb qilinar edi. Dehqonlardan umumiylar hosilning o'n foizini tashkil etgan yer solig'i (xiroj), chorvadorlardan yuz bosh moldan bir bosh hisobida ko'pchur va shule solig'i, hunarmand va savdogorlardan ishlab chiqarilgan va sotilgan molning o'ttizdan bir ulushi hajmida targ'u solig'i olingan. Munka qoon nomida pul zarb etilgach, 1270 yildan soliq va jarimalar pul bilan olina boshlagan. Yirik mulkdorlar, savdogarlar, islom peshvolari mo'g'ullar bilan yaqinlashib, katta imtiyozlarni qo'lga kiritgan, turli to'lov va soliqlardan ozod qiluvchi har xil yorliqlar olgan edilar.

Umuman olganda, mo'g'ullar hukmronligi davri O'rta Osiyo ijtimoiysiyoziy, iqtisodiy-madaniy hayotida keskin inqiroz davri hisoblanadi. XIII asrning 70-80 yillariga kelibgina, Movarounnahrda vayron bo'lgan shaharlar tiklanib, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq jonlandi. XIV asrning o'rtalariga kelib, Movarounnahrda hokimiyatni yana turkiy amirlar o'z qo'llariga oldilar. Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi bilan O'rta Osiyoda mo'g'ullar hukmronligiga butunlay barham berildi.

Nazorat uchun savollar

1. Kidariylar, xioniylar va eftaliylarning siyosiy hamda etnik tarixi haqida so'zlab bering.
2. Eftaliylarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Eftaliylar davri madaniy hayot haqida ma'lumot bering.
4. Turk hoqonligining siyosiy tarixini so'zlab bering.
5. G'arbiy Turk hoqonligi haqida nimalarni bilasiz?
6. Turk hoqonligidagi davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
7. Somoniylar davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
8. Qoraxoniylar davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.
9. Xorazmshoh-Anushteginlar davlat boshqaruvi haqida gapirib bering.

IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot.

Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

1. Amir Temur tomonidan markazlashgan davlat va buyuk sultanatning tashkil etilishi.
2. Amir Temur davrida harbiy ish. Harbiy san’atning taraqqiy etishi..
3. “Temur tuzuklari” – davlat boshqaruv ishidagi muhim manba sifatida.
4. Amir Temur diplomatiyasi.
5. Amir Temur vafotidan keyin siyosiy holat. Shohruh va Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida temuriylar davlati.
6. Markazlashgan davlatning parchalanishi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraimov M. Temur va To‘xtamishxon. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2000.
2. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. - Toshkent: Sharq, 2000.
3. Amir Temur o‘gitlari. - Toshkent: Navro‘z, 1992.
4. Amir Temur jahon tarixida. - Toshkent: Sharq, 1996.
5. Ahmedov B. Sohibqiron Temur.- Toshkent, 1996.
6. Bo‘riev O. Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. – Toshkent, 2016
7. Zayniddin Vosifiy. Badoye’ al-vaqoye. – Toshkent, 1979.
8. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. Arab tilidan tarjima, kirish so‘zi va izohlar muallifi Ubaydulla Uvatov. Toshkent: Mehnat, 1992.
9. Ivanov M. Ikki buyuk sarkarda Chingizzon va Amir Temur. - Toshkent: Xazina, 1994.
10. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy.– Toshkent: O‘zbekiston, 2011.
11. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar davri. -Toshkent: Fan, 1996.
12. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996.
13. Odilov A.A. Amir Temur tuzuklari – davlat boshqaruvi asosi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va tehnologiya, 2016.
14. Rui Gonsales de Klavixo. Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar)- Toshkent:O‘zbekiston NMIU, 2010.

15. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1996.
16. Temur tuzuklari. - Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
17. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. - Toshkent: Sharq, 1997.
18. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
19. O‘ljayeva SH. Amir Temur va Temuriylar davrida milliy davlatchilikning rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2005.
20. Qadimgi Kesh – Shahrisabz tarixidan lavhalar. – Toshkent: Sharq, 1998.
21. Qamchibek Kenja. Buyuk Sohibqiron o‘tgan yo‘llarda. – Toshkent: Sharq, 2014.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

2-amaliy mashg‘ulot.

So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma’muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari.

1. Buxoro xonligining tashkil topishi. Xonlikning davlat boshqaruvi tizimi.
2. Buxoro xonligida ashtarxoniyalar (joniylar) sulolasи hukmronligining o‘rnatalishi.
3. Buxoro xonligida hokimiyatning mang‘it amirlari qo‘liga o‘tishi.
4. Xiva xonligining tashkil topishi. Xonlikning davlat boshqaruvi tizimi.
5. Qo‘qon xonligiga asos solinishi. Xonlikning boshqaruvi tizimi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000.
2. Vohidov SH., Xoliqova R. Markaziy Osiyodagi davlat boshqaruvi tarixidan (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
3. Zayniddin Vasifiy. Badoye’ ul-vaqoye’. – Toshkent, 1979.
4. Istoriya Uzbekistana (XVI– pervaya polovina XIX v.). Kollektiv avtorov. Otv. red. Alimova D.A. – Tashkent: Fan, 2012.

5. Istorya Uzbekistana (XVI-pervaya polovina XIX v.). Kollektiv avtorov. Otv.red.Alimova D.A. – Tashkent: Fan, 2012.
6. Qosimov Y. Qo‘qon xonligi tarixi ocherklari. – Namangan, 1994.
7. Mirzo Olim Mahdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
8. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. – Toshkent, 2009.
9. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
10. Muhammad Solih. Shayboniynoma. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1989.
11. Muhammad Haydar Mirzo. Tarixi Rashidiy. – Toshkent: Sharq, 2010.
12. Muhammadyor ibn Arab Qatag‘an. Musaxxir al-bilad. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
13. Rajabov Q., Ochilov E. Ubaydullaxon. Risola. – Toshkent: Abu Matbuotkonsalt, 2011.
14. Sagdullayev A., Aminov B., Yakubov B. Qashqadaryo tarixidan lavhalar. – Qarshi: Nasaf, 1997.
15. Sultonov O‘.A. Muhammad Solihxo‘ja va uning “Tarixi jadidayi Toshkand” asari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2007.
16. To‘rayev H. Buxoro xonligining XVI-XVII asrlar ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-madaniy hayotida jo‘ybor xojalarini tutgan o‘rni. – Toshkent, 2007.
17. Xoliqova R. Rossiya – Buxoro: tarix chorrahasida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
18. Hofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma (Sharofnomayi shohiy). I – kitob, II – kitob. – Toshkent: Sharq, 1999, 2000.
19. Shodmon Vohid. Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligida unvonlar va mansablar. – Toshkent: Hamid Sulaymon nomidagi qo‘lyozmalar instituti, 1996.
20. Eshov B.J. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.
21. Eshov B.J., Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi.I – jild. Darslik. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

3-amaliy mashg‘ulot.

Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari. 1. Mustamlakachilik boshqaruv tizimi, 1886 yilgi “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom” va ma’muriyatichilikning kuchayishi.

2. Harbiy boshqaruv tartibi. O‘lkaning viloyatlar, uezdlar, volostlar, uchastkalarga bo‘lib boshqarilishi. Toshkent shahar Dumasi.
3. Rossiya imperiyasining o‘lkamizda iqtisodiy hukmronlikni o‘rnatish tadbirlari. Rossiya sanoat va moliya kapitalining hukmronligi.
4. Rossiya aholisini ko‘chirib keltirish siyosati.

Adabiyotlar ro‘yxati: 1. Abduraximova N.,

Ergashev F. Turkistonda chor mustamlaka tizimi. – Toshkent. Akademiya, 2008. – 240 bet.

2. Bobobekov H. Qo‘qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996.
3. Bababekov X. N. Anglo-russkoye sopernichestvo v Sredney Azii XIX vek. – T., 2006.
4. Ziyoyev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash. – Toshkent: Sharq, 1998.
5. Ismoilova J. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Toshkentning “Yangi shahar” qismi tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiy. 2004.
6. Mulla Yunusxon Munshiy. Amiri lashkar Alimqul tarixi. Alimqul jangnomasi. Nashrga tayyorlovchilar: R.Shamsutdinov, P.Ravshanov. – Toshkent, 1998.
7. Musayev N. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixidan (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari). – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
8. Mustabid tuzumning O‘zbekiston boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Sharq, 2000.
9. Muhammad Aziz Marg‘iloniy. Tarixi Aziziy (Farg‘ona chor mustamlakasi davrida). Nashrga tayyorlovchilar: SH.Vohidov, D.Sangirova. – Toshkent: Ma’naviyat, 1999.
10. Odilov A. Abdulmalik to‘ra boshchiligidagi ozodlik harakati tarixi. – Toshkent, 2006.
11. Tillaboyev S. Turkiston o‘lkasining boshqaruv tizimida mahalliy aholi vakillarining ishtiroki (Farg‘ona viloyati misolida). – Toshkent: Fan, 2008. 12. O‘zbekiston tarixi. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Akademiya, 2010.
13. O‘zbekistonning yangi tarixi. Turkiston Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida. Birinchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2000.
14. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

15. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullaev U. Vatan tarixi. (XVI-XX asr boshlari). Ikkinchchi kitob. – Toshkent: Sharq, 2010.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

4-amaliy mashg‘ulot.

O‘zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida

1. O‘rta Osiyoda milliy – davlat chegaralanishining o‘tkazilishi.
2. O‘zbekiston SSR tashkil topishi. Milliy chegaralanishning salbiy oqibatlari.
3. Sovet hukumatining O‘zbekistonda turli yillar mobaynida amalga oshirilgan qatag‘on siyosati.
4. Sovet davlatining siyosiy va iqtisodiy boshqaruv tuzilmalari.

Partiyaning yakka hokimligi.

5. Kadrlar muammosi, milliy siyosat va dinga munosabat.
6. Sovet davlatining siyosiy va iqtisodiy inqirozga yuz tutishi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yermetov A. Turkiston ASSRda nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o‘rnatalishidagi o‘rni (1918-1924 yillar). Tarix fan. nomz. diss. avtoreferati.-T., 2006.
2. Kulliyev X. Skladivaniye ekonomicheskix i duxovnih osnov totalitarnogo stroya v Turkestane (1917-1920). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. -T., 1998.
3. Nabiiev F. Problemi i protivorechiye sotsialnoy politiki v Turkestane (1917-1927gg.). Avtoref. diss. ... dokt. ist. nauk. -T., 1995.
4. Ozerova N. Dexkanstvo Turkestana v usloviyah perexoda k nepu (1921-1924gg.). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. -T., 1997.
5. Rajabov Q., Haydarov M. Turkiston tarixi. T.: Universitet, 2002.
6. Rustamova G. Kolonialnaya sushnost sarskoy i bolshevistskoy vlasti v Turkestane (1867-1924gg.). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. -T., 1999.
7. Tarix shohidligi va saboqlari. Chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O‘zbekiston milliy boyliklarining o‘zlashtirilishi. Mas’ul muharrir D. Alimova. –T.: Sharq, 2001.
8. Xaydarov M. Sentralizatorskaya politika Sovetskoy vlasti v Turkestane i ye ye posledstviya (1917-1924gg.). Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. -T., 1998.

9. Haydarov I. O‘zbekistonda Iqtisodiy Kengashlar faoliyati (1917-1934 y).-T.: Abu matbuot-konsalt, 2008.
10. Haydarov M.M. Turkiston iqtisodiyotida «harbiy kommunizm» siyosati // O‘zbekiston tarixi, 2003. №3, 30-39 betlar.
11. Erkayev E.M. Sovet davrida O‘zbekistonning paxta xom ashyo bazasiga aylantirilishi va uning dehqonlar hayotiga salbiy ta’siri (1917-1940 y). Tarix fanlari nomzodi...dissertatsiya avtoreferati. T., 2011.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

5-amaliy mashg‘ulot.

O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi

1. Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanishi. Dastlabki islohotlar.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va davlat ramzlarining qabul qilinishining tarixiy ahamiyati.
3. Davlat hokimiyatining milliy, huquqiy, demokratik asoslarining barpo etilishi.
4. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati tarmoqlarining shakllanishi.
5. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashkil qilinishi. Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining shakllanishi.
6. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat mustakilligi asoslari to‘g‘risida»gi 1991 yil 31 avgust Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi, 1991.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiysi to‘g‘risida”gi 1993 yil 2 sentabr Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993, № 9, 320-modda.

4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston”, 1997.

5. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - Toshkent, «Sharq», 1998.

6. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq, Toshkent, 2016. 56-b.

7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar’ –Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 104-b.

8. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr- Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 48-b.

9. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan.Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 488-b.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

6-amaliy mashg‘ulot

Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli

1. Davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining erkinlashuvi.
2. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli
3. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., “O‘zbekiston”, 1997.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. - Toshkent, «Sharq», 1998.
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq, Toshkent, 2016. 56-b.
4. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 yil 14 yanvar’ –Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 104-b.
5. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr- Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 48-b.
6. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaxri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan.Toshkent, O‘zbekiston, 2017. 488-b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017 yil 7 fevral PF-4947-soni Farmoni.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.ziyonet.uz.
2. www.edu.uz.
3. www.google.uz.
4. www.fvat.uz.
5. www.turklib.uz.
6. www.mirknig.ru.

IV. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Tinglovchi mustaqil ishni muayyan modulni xususiyatlarini hisobga olgan xolda quyidagi shakklardan foydalanib tayyorlashi tavsiya etiladi:

- meyoriy xujjatlardan, o'quv va ilmiy adabiyotlardan foydalanish asosida modul mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar bilan ishslash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha modul bo'limlari yoki mavzulari ustida ishslash;
- tinglovchining kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modul bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish.

Mustaqil ta'lif mavzulari:

1. O'rta Osiyo qadimgi sivilizatsiyasining kishilik jamiyatni tarixida, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati
2. Sivilizatsiya va davlatchilik tarixi muammolarini o'rganilishi ahamiyati.
3. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakklarining rivojlanishi asosida ilk shaharlar va davlatlarning vujudga kelishi qonuniyatları.
4. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar
5. "Avesto". Siyosiy jarayonlar va g'oyalar. Kuchli hokimiyat g'oyasi.
6. Arxeologik tadqiqotlar natijalaridan ijtimoiy-iqtisodiy mavzularni yoritishda, davlatchilik tarixini o'rganishda foydalanish.
7. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan arxeologik tadqiqotlarning sivilizatsiya va davlatchilik tarixini o'rganishdagi ahamiyati.
8. O'tmisht voqealarini haqqoniy umumlashtirish, tarixni asl manbalarga tayangan holda yoritish, tarixni o'rganish borasida haqqoniy ilmiy uslub va tamoyillarni qaror toptirish zaruratining ahamiyati.
9. Ilk davlatlarning turlari va boshqaruv shakkllari.
10. Ahamoniylar davrida hududiy-ma'muriy boshqaruv.
11. Salavkiylar davri davlatchilik xususiyatlari.
12. Kushon podsholigida tovar-pul munosabbatlari.
13. Afrig'iylar davlati. Hududiy-ma'muriy tuzilishi va boshqaruv.
14. Turk xoqonligi davlat boshqaruvi.

15. Somoniylar davrida davlat boshqaruvi.
16. Qoraxoniylar davlati. Hududiy-ma'muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi.
17. Xorazmshohlar davlati rivojlanishining tarixiy hususiyatlari.
18. O'rta asrlar davlatchiligi tarixining mustaqillik yillarida o'rganilishi
19. Amir Temur hukmronligi davrida o'zbek davlatchiligining yuksalishi.
20. "Temur tuzuklari" - davlat boshqaruvi haqidagi muhim tarixiy manba.
21. Markaziy Osiyoda rivojlangan o'rta asrlar davlatlarida soliq tizimi.
22. O'zbek xonliklarida davlatchilik an'analarini va ularning rivojlanishi.
23. Turkiston Muhtoriyati: milliy demokratik davlatchilik qurilishi tajribasi.
24. O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi.
25. "Mustaqillik Deklaratsiyasi" qabul qilinishining davlatchilik tarixida tutgan o'rni
26. O'zbekistonda demokratik tamoyillar asosida milliy davlat boshqaruv tizimining yaratilishi
27. Ikki palatali parlamentning shakllanishi: Qonunchilik palatasi va Senat faoliyati.
28. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi
29. O'zbekiston mustaqilligi yillarida Qoraqalpog'iston davlatchiligi taraqqiyoti.
30. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar.

V. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Agema	Makedoniyalik Aleksandrning maxsus otliq qo‘smini.	Agema is a term to describe a military detachment, used for a special cause, such as guarding high valued targets. Due to its nature the Agema is most probably composed by elite troops.
Anabasis	yunoncha davlat ichkarisiga dengizdan uzoqlashgan harbiy yurish	Anabasis (from Greek ana - "upward", bainein - "to step or march") is an expedition from a coastline up into the interior of a country.
Anaxita	suv, yer va hosildorlik ilohasi.	Anahita is the Old Persian form of the name of an Iranian goddess and appears in complete and earlier form as Aredvi Sura Anahita; the Avestan language name of an Indo-Iranian cosmological figure venerated as the divinity of 'the Waters' (Aban) and hence associated with fertility, healing and wisdom.
Antik davr	qadimgi dunyo tarixi davri.	Antiquity may refer to any period before the Middle Ages (476–1453), but still within Western civilization-based human history or prehistory: Ancient history, any historical period before the Middle Ages Classical antiquity, the classical civilizations of the Mediterranean
Arxeologiya	yunoncha “arxayos” – qadimgi, “logos” – fan, qadimshunoslik.	Archaeology or archeology, is the study of human activity through the recovery and analysis of material culture. The archaeological record consists of artifacts, architecture, biofacts or ecofacts, and cultural landscapes.

Axriman	zardushtiylik dinining zulmat, ochlik, urush, o'lim, gunoh va barcha yovuzlik xudosi.	Angra Mainyu is the Avestanlanguage name of Zoroastrianism's hypostasis of the "destructive spirit".
		The Middle Persian equivalent is Ahriman. In the Gathas, which are the oldest texts of Zoroastrianism and are attributed to the prophet himself, angra mainyu is not yet a proper name. In the one instance in these hymns where the two words appear together, the concept spoken of is that of a mainyu ("mind", or "spirit" etc.) that is angra ("destructive", "inhibitive", "malign" etc, of which a manifestation can be anger). In this single instance—in Yasna 45.2—the "more bounteous of the spirits twain" declares angra mainyu to be its "absolute antithesis".
Axuramazda	zardushtiylik dinining bosh tangrisi, yorug'lik, farovonlik, sihat-salomatlilik, tinchlik va barcha ezbiliklar xudosi.	Ahura Mazda (also known as Ohrmazd, Ahuramazda, Hourmazd, Hormazd, Harzoo, Lord or simply as spirit) is the Avestan name for the creator and sole God of Zoroastrianism, the old Iranian religion. Ahura Mazda is described as the highest spirit of worship in Zoroastrianism, along with being the first and most frequently invoked spirit in the Yasna. The literal meaning of the word Ahura is "mighty" or "lord" and Mazda is wisdom.
Boj	savdogarlardan olinadigan soliq.	Tax which is paid by traders

Dehqon	ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi”, yer egasi.	Dehkan "landowner" is the designation of the Central Asian peasants. Initially in the Sasanid empire, the dehkans were the well-to-do peasants who had moved out of the community and were leading an independent economy, some of whom later became feudal lords, sometimes village sergeants.
Diadoxlar	makedoniyalik Aleksandr davlatini qismlarga bo‘lib, o‘z qullariga kiritgan lashkarboshilar, “merosxo‘rlar”.	The Diadochi (plural of Latin Diadochus, from Greek: "successors") were the rival generals, families and friends of Alexander the Great who fought for control over his empire after his death in 323 BC.
		The Wars of the Diadochi mark the beginning of the Hellenistic period.
Jizya	islom diniga o‘tmaganlardan olinadigan jonboshi solig‘i.	Jizya or jizyah is a per capita yearly tax historically levied by Islamic states on certain non-Muslim subjects-dhimmis-permanently residing in Muslim lands under Islamic law.
Zakot	chorvadan olinadigan soliq, to‘plangan boylikdan daromad solig‘i.	Zakat "that which purifies", also Zakat al-mal" zakat on wealth", or "Zakah" is a form of alms-giving treated in Islam as a religious obligation or tax, which, by Quranic ranking, is next after prayer (salat) in importance.

Innovatsiya	yangilanish, tarixiy jarayonda, madaniyatda, fanda vujudga kelgan yangi uslublar, ixtiolar va kashfiyotlar.	Innovation can be defined simply as a "new idea, device or method". However, innovation is often also viewed as the application of better solutions that meet new requirements, unarticulated needs, or existing market needs. This is accomplished through more-effective products, processes, services, technologies, or business models that are readily available to markets, governments and society. The term "innovation" can be defined as something original and more effective and, as a consequence, new, that "breaks into" the market or society.
Mulki vaqf	madrasa va masjidlar tasarrufidagi yermulk, hayrlı ishlar uchun ajratilgan molmulk.	A waqf also known as habous or mortmain property, is an inalienable charitable endowment under Islamic law, which typically involves donating a building, plot of land or other assets for Muslim religious or charitable purposes with no intention of reclaiming the assets
Numizmatika	tangashunoslik fani.	<p style="text-align: center;">Numismatics is the study or collection of currency, including coins, tokens, paper money, and related objects.</p> <p>While numismatists are often characterized as students or collectors of coins, the discipline</p>
		also includes the broader study of money and other payment media used to resolve debts and the exchange of goods.
Oykumena	yunonlar tasavvurlarida insonlar joylashgan dunyo hududlarining chegaralari.	The ecumene (US) or oecumene was an ancient Greek term for the known world, the inhabited world, or the habitable world. Under the Roman Empire, it came to refer to civilization and the secular and religious imperial administration.

Oriylar (ariylar)	bronza davrida O'rta Osiyo, Eron va Hindiston hududlariga Yevrosiy dashtlaridan kirib kelgan chorvador qabilalar, boshqa nazariyalarga ko'ra, ular Old Osiyodan kelib chiqqanlar.	Aryan is a term meaning "noble" which was used as a self-designation by Indo-Iranian people. The word was used by the Indic people of the Vedic period in India as an ethnic label for themselves, as well as to refer to the noble class and geographic location known as Aryavarta where IndoAryan culture was based.
Ostадон (ossuariy)	sopol tobutchा	An ossuary is a chest, box, building, well, or site made to serve as the final resting place of human skeletal remains. They are frequently used where burial space is scarce. A body is first buried in a temporary grave, then after some years the skeletal remains are removed and placed in an ossuary.
Rabod	shaharning tashqi qismi, karvonsaroy	Rabad is a suburb, a commercial and industrial suburb in the medieval (7th-8th centuries) cities of Central Asia and Southern Kazakhstan, Iran, Afghanistan. Rabad adjoined the shahristan. Later, around Rabad, walls and ditches were built. From 9-10 centuries the center of economic and political life of the medieval Muslim city
Satrap	harbiy-ma'muriy o'lka hokimi (ahamoniylar va antik davrda)	Satraps were the governors of the provinces of the ancient Median and Achaemenid Empires and in several of their successors, such as in the Sasanian Empire and the Hellenistic empires.

Suyurg‘ol	oliy tabaqa zodagonlariga in’om qilingan yer-mulk.	feudal award; Sometimes in medieval texts occurs in the meaning of "gift"
Urbanizatsiya	aholi va ishlab chiqarishning shaharlarda to‘planish jarayoni.	Urbanization refers to the population shift from rural to urban areas, "the gradual increase in the proportion of people living in urban areas", and the ways in which each society adapts to the change.
Xronologiya	asrlar, davrlar, vaqt o‘lchovi haqidagi fan, yunoncha “xronos” – vaqt, “logos” – fan so‘zlaridan kelib chiqqan tushuncha	Chronology is the science of arranging events in their order of occurrence in time. Consider, for example, the use of a timeline or sequence of events. It is also "the determination of the actual temporal sequence of past events".
Etnogenез	xalq va elatlarning kelib chiqishi.	Ethnogenesis (from Greek "group of people, nation", and <i>genesis</i> , "beginning, coming into being"; plural ethnogeneses) is "the formation and development of an ethnic group." This can originate through a process of self-identification as well as come about as the result of outside identification.
Qo‘rg‘on, qo‘rg‘oncha	atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan darvozali istehkom	A manor house was historically the main residence of the lord of the manor. The house formed the administrative centre of a manor in the European feudal system

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. –T., O'zbekiston. 2015.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. –T.: O'zbekiston, 1998.
4. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. –T.: O'zbekiston, 1999. T.7.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
7. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston", 2016.
8. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston", 2017.
9. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. France, 1996.
10. Abdullayev O'. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. T.: Akademiya, 2009.
11. Avesto / Asqar Maxkam tarjimasi. – Toshkent: Sharq, 2001. – 383 b.
12. Avesto. Yasht kitobi / M.Ishoqov tarjimasi. Toshkent, 2001.
13. ArxeologiY. Uchebnik. M.: Izd. MGU. 2006. pdf.
14. Davlat qurilishi va boshqaruvi. –T.: Akademiya, 2007.
15. Isomiddinov M. Istoki gorodskoy kulturi Samarkandskogo Sogda. – T, 2002.
16. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. T.1. –T.: O'zbekiston, 2009.
17. Qadimgi davlatchilik va urbanizatsiY. Tarixiy lavhalar. – T. 2010.
18. Rtveladze E. Aleksandr Makedonskiy v Baktrii i Sogdiane. Tashkent, 2002.
19. Rtveladze E. Sivilizatsii, gosudarstva, kulturi Sentralnoy Azii. – Tashkent: UMED, 2005.
20. Rtveladze E., Pidayev SH., Sagdullayev A. I dr. Vidayushiyesya pamyatniki arxeologii Uzbekistana. Tashkent: San'at, 2013.
21. Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T.: Adolat, 2001.
22. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: Universitet, 2004.
23. Sagdullayev A., Aminov B. va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. – T.: Akademiya, 2000.

24. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Akademiya, 2006.
25. Sarianidi V.I. Margush. Drevnevostochnoye sarstvo v staroy delte reki Murgob. –Ashgabad, 2002.
26. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. Problemi sivilizatsii Uzbekistan VII v do n.e. – VII v n.e. – Tashkent: Fan, 2000.
27. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. – T.: Shari, 2001.
28. Xorezm v istorii gosudarstvennosti Uzbekistana. Tashkent, 2013.
29. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Ma’rifat, 2009.
30. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlod, 2012.
31. Eshov B.J. O‘rta Osiyoning qadimgi shaharlari tarixi. Darslik. Toshkent. 2008.